

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

N.M. RASULOV, A.R. ISMAILOV

MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV NAZARIYASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan
5A230108 – Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni
rivojlantirish mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar
uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – «IQTISODIYOT» – 2019

UO‘K: 347.214.21(075)
КБК: 67.404.1

Rasulov N. M., Ismailov A.R. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 208 bet.

O‘quv qo‘llanma mazkur fan bo‘yicha ma’ruza boblarininig tayanch konspekti, mustaqil ta’limga oid topshiriqlar, oraliq nazoratga oid o‘quv loyihalarining namunaviy boblari, yakuniy nazoratga oid namunaviy savollar va topshiriqlar, har bir bob bo‘yicha talabalarining mustaqil ishlashi uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxatini hamda glossariylarni o‘z ichiga olgan bo‘lib u 5A230108 - Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar uchun “Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi. o‘

В учебнике представлен базовый обзор темы лекций по этому предмету, задания для самостоятельного обучения, примерные темы учебного плана для промежуточного контроля, примерные вопросы и задания для итогового контроля, также включает список литературы и глоссариев для самостоятельной работы студентов. Учебник рекомендуется в качестве руководства для студентов по предмету «Теория антимонопольного управления» по специальности 5A230108 – Теория антимонопольного управления и развитие конкуренции.

In this book is shown a basic overview of lecture topics of lesson, tasks for self-study, sample topics of the curriculum for interim check, sample questions and tasks for final exam, also includes a list of literatures and glossaries for independent work of students. This book is recommended as a guide for students in the subject "Theory of Antitrust Management" in specialty 5A230108 - Theory of Antitrust Management and the development of competition.

ISBN 978-9943-6004-7-8

UO‘K: 347.214.21(075)
КБК: 67.404.1

© «IQTISODIYOT», 2019
© Rasulov N.M., Ismailov A.R., 2019.

MUNDARIJA

Mazmuni	beti
Kirish.....	7
1-BOB. “MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV NAZARIYASI” FANINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI	9
1.1. Monopoliyalarni tartibga solishda davlat rolining nazariy asoslari.....	9
1.2. Monopoliyalarni tartibga solishning zarurati.....	12
1.3. Monopoliyalarni tartibga solishning maqsad va vazifalari.....	14
1.4. O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish-monopoliyalar faoliyatini tartiblash omili.....	17
1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli Farmonida monopol faoliyatni tartibga solishning asoslanishi.....	20
1.6. O‘zbekiston Respublikasida Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi faoliyatining funktsiyalari.....	24
2-BOB. MULKIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH.....	27
2.1. Mulk tushunchasi. Moddiy ne‘matlar. Mol-mulkning turlari.....	27
2.2. Ko‘chmas mulk va ko‘char mulk. Xususiy mulk va ommaviy mulk shakllari.....	29
2.3. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari. Xususiy mulk huquqi.....	30
2.4. Respublika mulki va ma‘muriy-hududiy tuzilmalar mulki.....	32
2.5. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Ko‘p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirish.....	35
2.6. Mulk islohoti va uning bosqichlari.....	39
2.7. Milliy iqtisodiyotda davlat mulki salmog‘ining o‘zgarishi. O‘rta mulkdorlar tabaqasini shakllantirish.....	43
2.8. Mulkchilik munosabatlarini takomillashtirishda davlatning o‘rni. Davlat aktivlarining ochiq birja savdolarida sotilishi.....	46
3-BOB. NARXLARNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH	49
3.1. Narxning vazifalari. Tovar narxi tartibga solinishiga daxldorlar	49
3.2. Ustama narxlar. Narxlarni tartibga soluvchi organ.....	52
3.3. Monopolist korxonalar. Tabiiy monopoliya subyekti.....	56
3.4. Narxlarni tartibga soluvchi koeffitsientlar (pasaytiruvchi yoki oshiruvchi).....	59
3.5. Tarif smetasi. Narx (tarif)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlashi) shart hollar. Narx (tarif)ni shakllantirish tartibi.....	64
3.6. Monopol narx va narxlar diskriminatsiyasi.....	66

3.7. Adolatli foyda olishni ta'minlaydigan narx. Iste'molchi ortiqchaligining narx va ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi.....	70
4-BOB. MONOPOL HOKIMIYAT VA UNING BOZOR	
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI.....	73
4.1. Monopoliyalarni o'rganishning uslubiy asoslari.....	73
4.2. Mukammal raqobatlashgan bozorlar va ularda faoliyat yuritayotgan firmalarning xatti-harakati. Raqobatlashmagan bozorlar.....	76
4.3. Monopoliyalar va ularning turlari. Monopol bozor shartlari.....	80
4.4. Monopoliyalarni turkumlash mezonlari: vujudga kelish sababi va tavsifi, bozorni qamrab olish darajasi.....	83
4.5. Monopolistik rakobat. Oligopoliya. Monopol hokimiyat. Monopol hokimiyat manbalari.....	86
4.6. Monopolistik raqobat. Monopoliyaga qarshi boshqaruvning obyekti va subyekti.....	90
5-BOB. STRATEGIK TOVARLAR SAVDOSINI TARTIBGA	
SOLISH.....	93
5.1. Strategik tovarlar savdosining tashkiliy-uslubiy asoslari.....	93
5.2. Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etish.....	95
5.3. Mahsulotlarning monopol turlarini mavsumiy talabni hisobga olgan holda birja savdolariga qo'yish tartibi.....	98
5.4. Iste'molchilar o'rtasida limitlarni taqsimlash tugatilishi. Moddiy-texnika resurslarining strategik turlari.....	100
5.5. Foydalanishning asosiy yo'nalishlari. Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning monopol turlarini tovar-xomashyo birjasi orqali sotish ro'yxatini yanada kengaytirish va hajmlarini ko'paytirish.....	103
5.6. Strategik va monopol mahsulotlar, xomashyo va materiallar hajmlarni bir maromda birja va kimoshdi savdolariga majburiy tartibda qo'yish.....	105
6-BOB. BIRJA VA TENDER SAVDOLARI FAOLIYATINI TARTIBGA	
SOLISH.....	107
6.1. Tanlov (tender) yoki birja savdolarining xususiyatlari.....	107
6.2. Birja faoliyatining davlat tomonidan tartibga solish.....	109
6.3. Birja faoliyatining asosiy prinsiplari.....	110
6.4. Birja savdolarida tovarlarning narxi.....	112
6.5. Birja savdolarini o'tkazish tartibi. Tanlov (tender) va birja savdolarini o'tkazish hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat yo'llari.....	113
6.6. Tanlov (tender) yoki birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablarni buzganlik uchun jarimalar.....	115
7-BOB. MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	116

7.1. 30.03. 2018 yildagi “Tovar bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMning 249-sonli qarorida belgilangan vazifalar.....	116
7.2. Tovar bozorida sotiladigan tovarlarning monopol yuqori va monopol past narxlarini aniqlash tartibi.....	118
7.3. Davlat tomonidan narxni tartibga solish usullarini qo‘llash yo‘llari.....	122
7.4. Davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar.....	125
7.5. Tovarining monopol yuqori(past) narxlarini aniqlash uchun ma’lumotlarni olish va tahlil qilish.....	128
7.6. Tovarga monopol yuqori(past) narxni aniqlash. Monopol yuqori(past) narxni qo‘llash aniqlanganda chora-tadbirlar ko‘rish tartibi.....	129
8-BOB. RAQOBAT MUHITINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI..	131
8.1. Monopoliyadan chiqarish va sog‘lom raqobatni rivojlantirish mohiyati.....	131
8.2. Monopoliyadan chiqarishning tashkiliy-me’yoriy asoslari.....	135
8.3. Tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish asoslari.....	138
8.4. Tovar va moliya bozorlarida xo‘jalik yurituvchi subektlar va shaxslar guruhining faoliyati.....	140
8.5. “Ustun mavqe”, “iqtisodiy konsentratsiya”, “Insofsiz raqobat”, “Kamsituvchi shartlar” kabi tushunchalar tavsiflari.....	144
8.6. Davlat siyosatining ishbilarmonlik faolligiga ta’siri. Raqobat muhitini izchil rivojlantirish tizimi.....	149
9-BOB. MONOPOLIYALARNI TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	152
9.1. Sanoat va savdoni himoya qilish bo‘yicha dastlabki yondoshuvlar.....	152
9.2. Napoleonning Fuqarolik kodeksi. Kanada yondoshuvi (1889 yil).....	156
9.3. Antitrest qonunlar. Sherman va Kleyton qonunlari.....	157
9.4. Tadbirkorlar va iste’molchilarni himoya qilish bo‘yicha Magnusson-Moss qonuni.....	160
9.5. Davlat monopoliyasiga keynschilikdagi munosabat.....	162
9.6. Meyoriy va pozitiv nazariyalarning shakllanishi.....	166
9.7. Ijtimoiy farovonlikni maksimizatsiyalashning ahloqiy jihatlari.....	168
9.8. Robinson va Chamberlin nazariyalari.....	170
Testlar.....	173
Glossariy.....	194
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	198

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamlakat makroiqtisodiy barqarorligiga hamda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga erishish, avvalambor, monopoliyaga qarshi boshqaruvni samarali tartibotlarni amalga oshirish va real raqobatchilik muhitini shakllantirish, bunda raqobat muhitini rivojlantirish uchun qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Chunki zamonaviy iqtisodiy ta'limotda va ko'pgina dunyo mamlakatlarining davlatni rivojlantirishdagi siyosiy konsepsiyalarida samarali raqobat iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Mustaqillikka erishish va bozor munosabatlariga o'tish davridan boshlab O'zbekiston Respublikasining monopoliyaga qarshi va raqobat sohasidagi siyosati davlat tomonidan tartibga solish tizimini isloh qilishda asosiy rolni o'ynadi, chunki davlat boshqaruvi tizimi iqtisodiy va ijtimoiy me'yorlar sifatini qat'iy belgilaydi va raqobatni himoyalovchi qonunlarni qo'llashni shart qilib qo'yadi.

Mamlakatimizda davlat tomonidan monopoliyaga qarshi boshqaruvni tartibga solish va takomillashtirish nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki institutsional hamda funksional rivojlanish xususiyatlariga ham ega. Institutsional va funksional rivojlanish esa, bozor iqtisodiyotiga o'tish va unga mos keluvchi bozor iqtisodiyotining eng asosiy elementlaridan hisoblangan raqobatni rivojlantirish, raqobat munosabatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy omillaridan biridir.

Monopoliyalarni tartibga solish va unda davlatning rolini kuchaytirish, monopoliyaga qarshi boshqaruvning mohiyati, uning mazmun-mundariyasi haqida fikr yuritishdan avval, monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi, uning turlari, vujudga kelish asoslarini bayon etish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning barqarorligini ta'minlash ko'p jihatdan turli sohalarda olib borilayotgan islohotlar natijasiga bog'liq. Bugungi kunda iqtisodiyotda yuqori samarali raqobat strategiyani shakllantirish va amalga oshirish

davlatning korxonalarining tashqi va ichki bozorlardagi barqaror mavqeini ta'minlash shartlarini belgilab beruvchi uzoq muddatli iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jamiki tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash va isloh etish jarayoni hamda raqobatchilikka asoslangan biznes muhiti sharoitida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirishning ahamiyati ortib bormoqda. Islohotlarni yanada chuqurlashtirish zahirida "...nafaqat iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini, balki, eng avvalo, hududlarni kompleks rivojlantirish va mamlakatimiz barcha fuqarolarining hayotiy manfaatlarini ta'minlashga va ularning daromadlarini ko'paytirishga doir istiqboldagi muhim vazifalar turishi kerak".

Sanoat korxonalarini rivojlantirish va samarali boshqarishda esa 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish tizimini, raqobat muhitini izchil rivojlantirishning huquqiy bazasini takomillashtirilishi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish talablari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining nazorat vazifalarini qisqartilishi, shuningdek izchil rivojlanib borayotgan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi munosabatlari monopoliyaga qarshi boshqaruv faoliyatining institutsional va funksional asoslarini takomillashtirish zaruriyatini belgilab berdi. Zero, so'nggi yillarda iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining kuchayishi, bozorda turli moliyaviy, iqtisodiy hamda mulkiy munosabatlarning yangi shakllarining rivojlanishi natijasida bozor qo'ygan talablarni, ya'ni shakllangan munosabatlarni tartib solish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Boshqacha aytganda, hozirda monopolistik faoliyatni nafaqat tovar bozorlarida, balki moliya bozorlarida, qimmatli qog'ozlar bozorida, birja savdolarida ham cheklash choralarini ko'rishni davlatimizning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham talab etmoqda.

1-bob. “MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV NAZARIYASI” FANINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Monopoliyalarni tartibga solishda davlat rolining nazariy asoslari.

Monopoliyalarni tartibga solish va unda davlatning rolini kuchaytirish, monopoliyaga qarshi boshqaruvning mohiyati, uning mazmun-mundarijasi haqida fikr yuritishdan avval, monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi, uning turlari, vujudga kelish asoslarini bayon etish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

“Monopoliya” (inglizcha monopoly) yunoncha “monos” – bitta (yagona), tanho va “poleo” – sotaman, degan ma’noni anglatib, bozor sharoitida biron-bir faoliyat sohasidagi yagona sotuvchi, tanho xizmat ko‘rsatuvchi demakdir.¹ Bu ta’rifga ko‘ra monopoliya – bu o‘xshashi bo‘lmagan qandaydir mahsulotning tanho ishlab chiqaruvchisi bo‘lgan yagona firma, kompaniya, degan ma’noni anglatadi.

Aytish mumkinki, iqtisodiyotda mazkur tushuncha mohiyatini turli xil yondashuv, farqli talqin va ta’riflarda izohlanganini kuzatamiz. Masalan, L.M.Kulikov monopoliya tushunchasining tor va keng ma’nosini o‘zaro farqlaydi: “Monopoliya (grekcha monos – bitta, yagona + poleo – sotaman) – tor ma’noda bitta sotuvchining bozordagi hukmronligini anglatadi. Biroq keng ma’noda monopoliya deganda, bir yoki bir necha shaxslar guruhi faoliyatining qandaydir sohada hukmronlik holati tushuniladi. Xususan, iqtisodiyotda kompaniyalarning monopol (hukmronlik) holatining to‘rtta varianti ajratiladi: monopoliyaning o‘zi, oligopoliya (grekcha oligos – ozchilik + poleo), monopsoniya (grekcha monos + opsonia – oziq-ovqat xaridi) va oligopsoniya (grekcha oligos + opsonia)”.

Bugungi kunga qadar monopoliya atamasining mazmunini ifodalashda mohiyatan farqlanuvchi ikki yondashuvni ko‘rish mumkin. Birinchi yondashuv – monopoliyalarni turli yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning sun’iy birlashmasi sifatida ifodalash.

¹ Станковская И.К., Стрелец И.А. “Экономическая теория”. Дарслик. –М.: ЭКСМО, 2008 й. 140 б.

Jumladan, bunday yondashuvga A.F.Shishkin tomonidan monopoliyaga berilgan ta'rifni keltirish o'rinlidir: "Monopoliyalar – bu xususiy mulkchilikka (yakka tartibdagi, guruh yoki aksiyadorlik shaklidagi) asoslangan hamda monopol yuqori narxni o'rnatish va monopol foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik xo'jalik birlashmalari".

Monopoliya atamasining mazmunini ifodalashda ikkinchi yondashuv – bu monopoliyalarga bozordagi ishtirokchilar (sotuvchi yoki xaridorlar) sonining cheklanganligi tufayli vujudga kelgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi va narxiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini namoyon etuvchi bozor holati sifatida qarash orqali tavsiflanadi.

Monopoliyalarning iqtisodiy mazmuni ularning namoyon bo'lish shakli va turlarini tadqiq etish orqali yanada kengroq ochib berilish mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy adabiyotlarda monopoliyaning turlari har xil belgilari bo'yicha turkumlanadi. Biroq, muallif tomonidan turkumlangan har bir monopoliya turlari to'liq bo'lmay, ba'zi bir monopoliya turlarining ajratib ko'rsatilishi munozarali hisoblanadi. Shuningdek, turli mualliflar tomonidan amalga oshirilgan turkumlash ba'zida bir-biriga zid holatlarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, E.F.Borisov monopoliyalarni quyidagi belgilar bo'yicha turkumlaydi:

a) savdo bitimlaridagi o'rniga ko'ra: 1) ko'plab xaridorlarga ma'lum tovarlarni sotuvchi kompaniyalarning birlashmasi – monopoliya; 2) barcha sotuvchilarning qandaydir mahsulotlarni sotib oluvchi xo'jalik birlashmasi – monopsoniya;

b) bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra: 1) bozor faoliyatining bitta tarmog'i miqyosidagi mutlaq monopoliya; 2) bozor faoliyatining bitta tarmog'i miqyosidagi mutlaq monopsoniya; 3) milliy xo'jalik miqyosidagi mutlaq monopoliya; 4) milliy xo'jalik miqyosidagi mutlaq monopsoniya;

v) paydo bo'lish tavsifi va sababiga ko'ra: 1) tabiiy monopoliya; 2) legal (qonuniy) monopoliyalar; 3) sun'iy monopoliyalar.

V.Ya.Ioxin esa monopoliyalarni yana bir belgi – bozorga kirish imkoniyati cheklanganligining turli darajasi tamoyilidan kelib chiqqan holda 3 turga ajratadi: 1) yopiq monopoliyalar; 2) tabiiy monopoliyalar; 3) ochiq monopoliyalar.

Muallifning asoslashicha, yopiq monopoliya boshqa kompaniyalarning u yoki bu xo‘jalik faoliyati sohasiga kirib kelishiga to‘sqinlik qiluvchi yoki boshqalarga tegishli aqliy mulkdan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydigan mavjud me‘yoriy qonunchilik hujjatlari natijasida vujudga kelsa, ochiq monopoliya kompaniya tomonidan taklif etilayotgan tovar yoki xizmatning yangiligi jihatidan qandaydir vaqt davomida u yoki bu mahsulotning yagona ishlab chiqaruvchisiga aylanishi orqali tavsiflanadi. Ko‘pincha bozorga birinchi marta yangi mahsulot bilan chiqqan kompaniyalar ochiq monopoliya holatida bo‘ladi.

A.A.Kostusev² monopoliyalarning kelib chiqish manbaiga ko‘ra institutsional monopoliya va tadbirkorlik asosidagi monopoliyalarni farqlash lozim deb hisoblaydi. Institutsional monopoliyalar turli institutlar tomonidan vujudga kelib, bozor ishtirokchilari uchun raqobatning teng bo‘lmagan sharoitlarini sun‘iy tarzda hosil qilinishi orqali namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlikka asoslangan monopoliya esa bozor hukmronligiga, ya‘ni mahsulot taklifi va talabini tartibga solish orqali uning narxini nazorat qilish imkoniga ega bo‘lgan tuzilmalarning rivojlanishi natijasida vujudga keladi.

Institutsional monopolizmning kelib chiqishi asosan davlat va mahalliy hokimiyatning litsenziyalash va proteksionistik xatti-harakatni olib borishi bilan bog‘liq raqobatga qarshi aralashuvi natijasi hisoblansa, tadbirkorlik monopolizmining asosida ishlab chiqarishning konsentatsiyalashuvi yotadi.

Yuridik nuqtai-nazardan, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlatning ishlab chiqarishni monopollashuviga qarshi hamda tovar ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari (tegishli qonunchilik va soliqqa tortish tizimi, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, kichik tadbirkorlikni

² Костусев А.А. Конкурентная политика в Украине: Монография. –К.:КНЕУ, 2004 й. 21 б.

rag‘batlantirish va h.k.) majmuidir.³ Iqtisodiy nuqtai-nazardan, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlatning monopoliyalar paydo bo‘lishini, qo‘shilish va birlashtirib olish harakatlarni, kartellar tashkil etilishini, narx hokimligini, raqobatga qarshi qilinayotgan harakatlarni cheklash va tartibga solishga yo‘naltirilgan siyosati.⁴

Yana bir kengroq ta‘rifga ko‘ra, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar (tegishli qonunchilikni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga kiritish, soliqqa tortish tizimi, mulkni denatsionalizatsiya qilish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, kichik korxonalar yaratilishini qo‘llab-quvvatlash va b.) majmui bo‘lib, ular trestlarga qarshi qonunchilikka va insofsiz raqobatni oldini olish borasidagi qonunchilikka tayanadi, sh uningdek raqobatni rivojlantirish, bozor munosabatlari ishtirokchilarining monopol faoliyatiga hamda bozorda monopoliyalarning hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan⁵.

Demak, mamlakatda monopoliyaga qarshi siyosat davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosat turlaridan biri bo‘lib, u asosan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan.

1.2. Monopoliyalarni tartibga solishning zarurati

Monopoliyalarni tartibga solish zarurati, monopoliyaga qarshi boshqaruvni tartibga solishga oid iqtisodiy adabiyotlarda bir qancha ta‘riflar keltirilgan. Jumladan, zamonaviy iqtisodiy lug‘atlardan birida “monopoliyaga qarshi tartibga solish – bu davlatning alohida ishlab chiqaruvchilar tomonidan u yoki bu turdagi mahsulotni monopollashib olish harakatlarini oldini olishga yo‘naltirilgan hamda iste’molchilar huquqlarini himoyalashga qaratilgan faoliyatidir”⁶, degan ta‘rif keltirilgan.

³ Большой юридический словарь. — М.: Инфра-М. А. Я. Сухарев, В. Е. Крутских, А.Я. Сухарева. 2003.

⁴ Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 512 с.

⁵ Экономика и право: словарь-справочник. — М.: Вуз и школа. Л. П. Кураков, В. Л. Кураков, А. Л. Кураков. 2004.

⁶ Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 479 с.

Shunga muvofiq, biz monopoliyaga qarshi tartib solish tizimini quyidagicha tasvirladik (1-rasm).



1-rasm. Monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimi ⁷

Boshqa lug‘atlarning birida ushbu tushunchaning kengroq talqini keltirilgan, ya’ni monopoliyaga qarshi tartibga solish – bu raqobat bozorini samarali faoliyat yuritish sharoitlarini ta’minlash hamda uning haddan tashqari monopollashuviga qo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ma’muriy va qonunchilik choralari majmuidir. Monopoliyaga qarshi tartibga solish ishlab chiqarish va muomala sohasini konsentratsiyalashuv va monopollashuv jarayonlarini tartibga solish, xususiy raqobatchilik uchun sharoitlarni qo‘llab-quvvatlash va korxonalar tomonidan bunday raqobatlashuv shartlariga rioya qilish ustidan nazorat olib borish, tashqi iqtisodiy faoliyatni (bozorning xorijiy raqobatchilar uchun ochiqligi yoki eksport monopoliyasini rag‘batlantirish) tartibga solish kabi ishlarni

⁷ Манба: муаллиф ишланмаси

o‘z ichiga oladi. Monopoliyaga qarshi tartibga solish ishlari monopoliyaga qarshi qonunchilik, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatli bozorni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar hamda ayrim boshqa me‘yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.⁸

YUqoridagi ta‘riflarni tahlil qilgan holda, biz tomondan “monopoliyaga qarshi boshqaruv” tushunchasiga quyidagicha iqtisodiy interpretatsiya, ya‘ni ta‘rif shakllantirildi, ya‘ni monopoliyaga qarshi boshqaruv – bu iqtisodiyotda monopoliyalar paydo bo‘lishi, narx hokimligi, raqobatga qarshi qilinayotgan harakatlarni cheklash va oldini olishga yo‘naltirilgan hamda raqobatni rivojlantirish, iste‘molchilar huquqlarini himoyalash, insofsiz raqobatga yo‘l qo‘ymaslik, ishlab-chiqaruvchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali raqobatchilik muhitini yaratishga qaratilgan davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ma‘muriy va qonunchilik chora-tadbirlari tizimidir.

1.3. Monopoliyalarni tartibga solishning maqsad va vazifalari

Mamlakatimizda monopoliyalarni tartibga solishning maqsad va vazifalarini tushuntirishda monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatini samarali ishlashi bilan birga monopoliyaga qarshi boshqaruvning funksional asoslari ko‘rib o‘tiladi. Avvalambor, aytish joizki, monopoliyaga qarshi boshqaruv faoliyatining funksional jihatlarini asosan monopoliyaga qarshi boshqaruvni olib boruvchi vakolatli davlat organining shu sohadagi funksional vazifalarini bajarilishini ko‘zda tutadi. SHuning uchun ushbu paragrafimizda O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga soluvchi organning tashkil etilishi va uning funksional faoliyati to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Dastlab, 1992 yilda “Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonunini, xususan uning “Monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshirishga vakolatli idora” nomidagi 7-moddasini amalda ro‘yobga chiqarishni ta‘minlash, o‘zaro bog‘liq moliyaviy, monopoliyaga qarshi va narx-navo siyosatini

⁸ Большой экономический словарь. — М.: Институт новой экономики. А.Н. Азрилиян. 1997.

olib borish, raqobat muhitini vujudga keltirish va bozor munosabatlarini rivojlantirish maqsadida 1993- yil 6- fevralda Vazirlar Mahkamasining 63-sonli “O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligiga monopoliyaga qarshi siyosat olib borish bo‘yicha vazifalarni yuklash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinadi. Mazkur qarorga muvofiq, Moliya vazirligining Narx belgilash bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosatini olib borish bosh boshqarmasiga aylantiriladi. Ya’ni O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi faoliyatni dastlab Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi bajargan. Bunda ushbu bosh boshqarmaning asosiy funksional vazifalari etib quyidagi belgilandi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona monopoliyaga qarshi va narx siyosatini shakllantirish va olib borish ishlarini muvofiqlashtirish, iste’molchilarni monopolizm va g‘irrom raqobatdan narxlar va tariflarning asoslanmagan o‘shishidan ijtimoiy himoya qilishning barqaror negizini yaratish;

- monopoliyaga qarshi va narx qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va kiritish;

- parallel ishlab chiqarishlarning monopolistik tarmoqlarda va muomala sohasidagi faoliyatini rag‘batlantirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, erkin raqobatni qo‘llab-quvvatlash va bozor infrastrukturalarini rivojlantirish, monopolist korxonalarning narxlarini tartibga solish bo‘yicha aniq tadbirlarni amalga oshirish;

- raqobatni cheklashga olib keluvchi, bozorning normal faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qiluvchi, boshqa korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning manfaatlarini kamsituvchi, sun’iy ravishda taqchillik yaratuvchi hamda ortiqcha monopol foyda daromad olishni ta’minlovchi ayrim xo‘jalik subyektlari faoliyatiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘rish;

- xarid, ulgurji, chakana narxlar va tariflarni ma’muriy tartibga solish sohasini bosqichma-bosqich qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish,

aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari bilan birgalikda shartnomaviy erkin narxlar sohasini kengaytirish;

- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, respublika korporatsiyalari, konsernlari uyushmalari, korxonalari va tashkilotlarining narxlari va tariflari asosli shakllanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- respublika xalq xo'jaligida erkin narx belgilash sohasini, hamdo'stlik mamlakatlarida va jahon bozorida narxlarni tahlil qilish va operativ baho berish.

Ushbu funksional vazifalar yuqoridagi qarorni amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993- yil 30- martdagi 160-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Moliya vazirligining monopoliyaga qarshi va narx siyosatini olib borish Bosh boshqarmasi to'g'risida Nizom"da ham o'z aksini topdi.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi kurash bo'yicha dastlabki mustaqil organ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996- yil 15- maydagi PF-1464-sonli farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasini tashkil etish etildi. Bunda narx siyosatini o'tkazish sohasidagi funksiyalar esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va mahalliy moliya organlarida saqlab qolindi. Ushbu farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi raqobatni rivojlantirish, monopolistik faoliyatini cheklash funksiyalarini bajarish bilan birgalikda iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish sohasidagi siyosatni o'tkazadigan davlat boshqaruv organi bo'lib qoldi. Shu jumladan, yuqridagi farmon va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996- yil 23- maydagi 188-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari

to'g'risida"gi qaroriga asosan uning asosiy funksional vazifalari hamda faoliyati yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- monopoliyaga qarshi qonunchilikka va iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi bilan birgalikda tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini yaratish yagona metodologik yondashuvni, monopoliyadan chiqarish tarmoq mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borilishini ta'minlash;

- raqobatni va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bozor munosabatlari shakllantirishga ko'maklashish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan monopolistik faoliyatning, tovar va moliya bozorlarida ustunlik mavqeining iste'mol qilinishining oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik, nohalol raqobatga va iste'molchilar manfaatlarining kamsitishga barham berish chora-tadbirlarini ko'rish;

- monopolist birlashmalar (korxonalar)ning O'zbekiston Respublikasi Davlat reestrini yuritish;

- ishda oshkoralikni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi aholisini ommaviy axborot vositalari, shu jumladan ixtisoslashgan davriy nashrlar orqali iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari qanday amalga oshirilayotganligidan xabardor qilib borish;

- monopoliyaga qarshi kurashning tartibga solib borish va iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish sohasida chet el tajribasini tahlil etish.

1.4. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish-monopoliyalar faoliyatini tartiblash omili

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning barqarorligini ta'minlash ko'p jihatdan turli sohalarda olib borilayotgan islohotlar natijasiga bog'liq. Bugungi kunda

iqtisodiyotda yuqori samarali raqobat strategiyani shakllantirish va amalga oshirish davlatning korxonalarining tashqi va ichki bozorlardagi barqaror mavqeini ta'minlash shartlarini belgilab beruvchi uzoq muddatli iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jamiki tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash va isloh etish jarayoni hamda raqobatchilikka asoslangan biznes muhiti sharoitida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirishning ahamiyati ortib bormoqda. Islohotlarni yanada chuqurlashtirish zamirida "...nafaqat iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini, balki, eng avvalo, hududlarni kompleks rivojlantirish va mamlakatimiz barcha fuqarolarining hayotiy manfaatlarini ta'minlashga va ularning daromadlarini ko'paytirishga doir istiqboldagi muhim vazifalar turishi kerak".

Sanoat korxonalarini rivojlantirish va samarali boshqarishda esa 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonini chuqurlashtirishning hozirgi sharoitida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni yuksaltirish, uning salohiyatini oshirish omillarini aniqlash, tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlashning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Respublikamizda bu masalalar echimi bo'yicha bir qancha qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Prezidentimizning 2017- yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017- yil 19- iyundagi "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018- yil 22- yanvardagi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat

dasturi to'g'risida"gi farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekistonda monopolistik faoliyatni tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini izchil rivojlantirish, tabiiy monopoliyalar korxonalari faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlarning asossiz oshirilishiga yo'l qo'ymaslik, raqobat va uning huquqiy bazasini takomillashtirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish sharoitida asosiy vazifadir.

Bozor munosabatlarining asosi sifatida raqobatni rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda yurboshimiz boshchiligida ulkan ishlar amalga oshirildi. SHu o'rinda qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010- yil 26- fevraldagi "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4191-sonli Farmoni bilan monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish ishlariga bugungi kun rivojlanish realligidan kelib chiqqan holda tizimga yangi talablar qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil qilindi.

Ayni paytda, monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish tizimini, raqobat muhitini izchil rivojlantirishning huquqiy bazasini takomillashtirilishi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish talablari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining nazorat vazifalarini qisqartilishi, shuningdek izchil rivojlanib borayotgan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi munosabatlari monopoliyaga qarshi qonunchilikni yanada takomillashtirish zaruriyatini belgilab berdi. Zero, so'nggi yillarda iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining kuchayishi, bozorda turli moliyaviy, iqtisodiy hamda mulkiy munosabatlarning yangi shakllarining rivojlanishi natijasida bozor qo'ygan talablarni, ya'ni shakllangan

munosabatlarni tartib solish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Boshqacha aytganda, hozirda monopolistik faoliyatni nafaqat tovar bozorlarida, balki moliya bozorlarida, qimmatli qog'ozlar bozorida, birja savdolarida ham cheklash choralarini ko'rishni davlatimizning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham talab etmoqda.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"

2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli Farmonida monopol faoliyatni tartibga solishning asoslanishi.

Harakatlar strategiyaning «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari» bobida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini himoya qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesga to'liq erkinlik berish, ular faoliyatiga davlat idoralarining noqonuniy aralashuviga yo'l qo'ymaslik, davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida davlatning ishtirokini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish va bozor munosabatlari chuqurlashtirish jarayonida liberallashtirish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish, milliy xo'jalikda tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish makroiqtisodiy mutanosiblikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelayotir. Liberallashtirish tamoyillari tufayli qator yillar mobaynida mamlakatimizda iqtisodiy o'sish barqaror turibdi. Jumladan, o'tgan yili yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 5,3 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng

ko‘lamda rivojlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Liberallashtirish uzluksiz, doimiy jarayon sifatida bundan keyin takomillashib boraveradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oila tadbirkorligini rivojlantirish, «Har bir oila - tadbirkor» Dasturini izchil amalga oshirish uning kafolati bo‘la oladi. Ayrim davrlarda davlat “charchagan” xususiy va jamoa mulki obyektlarini “jonlantirib”, keyin ularni xususiy qo‘llarga sotishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulotning 81 foizi nodavlat, 19 foizi esa davlat sektorida ishlab chiqarilmoqda. YAlpi qishloq xo‘jalik mahsulotlari, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida nodavlat sektor ulushi 100 foizga yaqinlashib qoldi. Ish bilan band aholining 80 foizdan ziyodi mazkur tizimda mehnat qilayotir.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning ilk bosqichida chakana savdo va umumiy ovqatlanish shaxobchalari, uy-joy va maishiy xizmat obyektlari xususiy qo‘llarga sotildi, imtiyozli va tekin berildi. Maqsad aholida bozor ko‘nikmalarini hosil qilish va mustahkamlash edi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlarda o‘rta va yirik korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. Natijada aksiyadorlik jamiyatlari, davlat ulushi bo‘lgan kompaniyalar, uyushmalar yuzaga keldi.

Bosqichma-bosqich erkinlashtirib borish o‘tish davrining o‘zidayoq o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 90-yillar o‘rtalariga kelib yalpi sanoat mahsuloti, keyin esa yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bozor islohotlaridan oldingi darajada tiklandi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yillarida ham iqtisodiyotda o‘sish davom etdi. Islohotlarni chuqurlashtirish, tarkibiy qayta qurishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, kichik biznesni rivojlantirish, xususiy mulkning ustuvor rolini ta’minlash, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirib borish hisobiga iqtisodiy samaradorlik ta’minlandi.

Mamlakatimizda har yili 30 mingdan ziyod kichik biznes subyektlari barpo etilmoqda. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 56,9 foizga, sanoat

ishlab chiqarishida esa 45 foizga etkazildi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi 52 foizni tashkil etdi.

Keyingi ikki yilda 378 aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi savdoga qo'yildi. Qayd etish lozimki, nisbatan muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan «Navoiyazot», «Farg'onaazot», «Urganchekskavator», «Qizilqumtsement», «Jizzax akkumulyator zavodi», «Qo'qon yog'-moy zavodi» kabi aksiyadorlik jamiyatlari, «Aloqabank», «Turonbank» kabi banklar, «O'zagrosug'urta» kompaniyasidagi davlatga tegishli aksiyalar savdoga qo'yildi. Bu nima beradi?

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari davlatga tegishli qismining sotilishi davlat g'aznasiga mo'may mablag' keltiradi. Ikkinchidan, davlatning qo'li xo'jalik yumushlaridan birmuncha bo'shaydi. Uchinchidan, mamlakatda tadbirkorlik muhiti kengayadi. Bundan ham davlat, ham mulkdorlar va oddiy kishilar yutadi. Asosiysi, bozor islohotlarini chuqurlashtirish shuni talab qiladi.

Davlatning monopol mavqei uglevodorod xomashyosi, rangli metallar, uran qazib olish, temir va avtomobil yo'llari, aviatashuvlar, elektr energiyasi ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarda saqlanib qolishi lozim. Boshqa sohalardagi davlat aktivlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davom etadi. Xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari chet ellik investorlarga sotilmoqda. Jumladan, yuzlab mulk majmualari tanlov asosida investitsiya kiritish sharti bilan «0» qiymatda yangi mulkdorlarga sotildi. Ular esa investitsiya kiritish, minglab ishchi o'rinlarini yaratish majburiyatini oldi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni pirovard maqsad bo'lmasligi kerak. Agar erkinlashtirish sur'atlari, iqtisodiyotning o'sish sifat ko'rsatkichlari, aholi turmush darajasi barobarida kechsa yanada yaxshi bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra, dunyodagi tez rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ham oldingi o'rinlarga chiqdi. Ushbu ko'rsatkichlar hozirgi sharoitda ancha yuqori hisoblanadi. Chunki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali

to'la barham topgani yo'q, davlatlarning bir-biriga sanksiya va embargolar qo'llashi avj olmoqda. Qolaversa, muhim tovarlarga tashqi talab kamayib, narxlar pasayib bormoqda, talabga nisbatan taklif ustunroq. Bu kabi tashqi iqtisodiy va siyosiy beqarorlik milliy iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish uchun davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha Dasturida to'la quvvat bilan ishlamayotgan davlat korxonalarini tugatish va ochiq savdolar orqali yangi xususiy mulkdorlar ixtiyoriga o'tkazish, strategik ahamiyatga ega bo'lmagan va foydalanilmayotgan davlat ulushini to'la sotish, qator korxonalardagi davlat ulushi aksiyalarini fond bozorida sotish orqali 51 foizgacha tushirish va boshqa chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. SHu bilan birga, bu tadbirlarni o'tkazish mexanizmlari ham takomillashtirildi. Jumladan, davlat aktivlarini sotish muddatlari qisqartirildi, savdolardagi davlat aktivlariga ikki oy muddatda talab tushmagan taqdirda, ularning bahosini 50 foizgacha, har 15 kunda esa 10 foizga pasaytirish, shunda ham sotilmasa investitsiya kiritish va yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan «0» qiymatda sotish, Markaziy bankning qayta moliyalash yillik stavkasi miqdorida chegirma berish, davlat obyektlarini qismlarga bo'lib sotish, xarid to'lovlariga imtiyozlarga erish, davlat obyektlarini ijarachilarga sotilishga ustunlik berish, xo'jalik organlarining ustav kapitalidagi davlat ulushlarini sotishdan tushgan mablag'lar korxonalarni modernizatsiya qilishga yo'naltirilishi mumkinligi va boshqalar belgilab qo'yildi.

Valyuta va tashqi savdo bozorini erkinlashtirish iqtisodiyotni liberallashtirishning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, davlat pul-kredit siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Monetar siyosat davlat yoki uning Markaziy banki tomonidan makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish maqsadida muomaladagi pul massasini oshirish yoki pasaytirish orqali amalga oshiriladigan vositadir. Bu siyosat foiz stavkasi va ayirboshlash kursi, to'lov balansi, ustidan nazorat, inflyasiyani jilovlash, umumiy

bandlikni oshirish, baholar darajasini me'yorlash va boshqa tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Monetar siyosat bir amerikalik tili bilan aytganda, "bir tanga ustida umbaloq oshish"dir.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, 2017 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Valyuta siyosatini erkinlashtirish to'g'risidagi farmonni imzoladi. Undan asosiy maqsad, barcha bozor ishtirokchilari uchun bir xil sharoit yaratish bo'lib, bozordagi turli-tuman valyuta kurslari o'rniga yagona rasmiy kurs bir dollarga 8100 so'm miqdorida belgilandi. Korxona va aholida chet el valyutasini erkin sotib olish imkoni paydo bo'ldi. Bu qadar radikal yondashuv hatto ancha bilimdon bo'lgan iqtisodchilarni ham xavotirga solib: endi nima bo'ladi, milliy valyuta kursining roppa-rosa ikki baravarga pasaytirilishi inflyasiyaning yangi xalqasini keltirib chiqarmaydimi, degan mulohazalarni tug'dirgan edi. Lekin 2019 yilning avgust oyining o'rtalariga kelib bir dollar 9108,33 so'mga ko'tarila boshladi. Bu esa milliy valyutani qadrini biroz pasayyotganligini ko'rish mumkin. Natijada, aholida milliy valyutani «dollarlashtirish» tendensiyasi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini, jumladan, valyuta bozorini liberallashtirish, davlatning xalqaro imiji bilan bog'liq katta voqea. Lekin ular ustidan, shuningdek, emissiya, chet eldan pul ko'chirmalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilmasa, iqtisodiyotning real o'sishi va muomaladagi pul miqdori o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq sifatida doimo paydo bo'ladigan inflyasiyani keltirib chiqarishi hech gap emas. Monetar siyosat bilan fiskal siyosatni qo'shib olib borish bunday holatlarning oldini olish imkonini beradi.

Umuman olganda, barcha xavflarni bartaraf etadigan yagona yo'l iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, ishlab chiqarish hajmini oshirishdir.

1.6. O‘zbekiston Respublikasida Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi faoliyatining funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasida Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 14- yanvardagi PF-5630-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga aylantirildi. Mazkur Farmon «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» deb nomlanadi.

Yangi tashkil etilgan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va hisobot beradi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi o‘z faoliyatida quyidagilarga amal qiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Nizomiga

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yil PQ-4112-sonli O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Qaroriga

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi o‘z faoliyatini bevosita, shuningdek hududiy organlar va uning idoraviy mansub tuzilmalari, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- davlat aktivlarini samarali boshqarish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish;
- o'ziga berilgan davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitalidagi davlat aksiyalari paketlari (ulushlari) bo'yicha aksiyador (ta'sischi va ishtirokchi) huquqlarini amalga oshirish;
- ilg'or xorijiy tajriba asosida davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv shakl va usullarini joriy qilish, ularni boshqarishda kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning rolini tubdan oshirish;
- davlat ishtirokidagi korxonalarni, shu jumladan xalqaro moliya institutlari tavsiyalari asosida bosqichma-bosqich ichki va tashqi bozorlarda raqobatlasha oladigan, samarali korxonalarga aylantirishga ko'maklashish;
- davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining samaradorligi va shaffofligini ta'minlash, boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, yuqori daromadlilik va kapitalizatsiyani oshirish, sohasiga kirmaydigan va foydalanilmayotgan aktivlarini chiqarib tashlashga qaratilgan rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va tasdiqlashni muvofiqlashtirish;
- davlat manfaatlarini ta'minlagan holda, shu jumladan davlat aksiya paketlarini (ulushlarini) ishonchli boshqaruvga berish orqali investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- davlat ishtirokidagi korxonalarning obligatsiya va aksiyalarini chiqarish va realizatsiya qilish, shu jumladan mahalliy va xorijiy fond birjalarida IPO/SPO

bo'yicha emissiyalarni joylashtirish hisobiga, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, shuningdek portfel investitsiyalarni jalb qilish;

- davlat aktivlarini realizatsiya qilish (xususiylashtirish) va ijaraga berishning ochiq va shaffof mexanizmini ta'minlash, investorlar tomonidan qabul qilingan investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi ustidan monitoring qilish, shuningdek davlat xususiy sheriklik bo'yicha takliflarni tayyorlashda ishtirok etish;

- tahlil asosida davlat ishtirokidagi faoliyat yuritmayotgan, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni aniqlash, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish hamda faoliyati samaradorligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat ishtirokidagi korxonalarda samarali dividend siyosatini olib borish;

- baholash faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishini ta'minlash, mol-mulkni baholash standartlarini tasdiqlash, shuningdek rieltorlarni sertifikatlashtirish.

2-bob. MULKIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH

2.1. Mulk tushunchasi. Moddiy ne'matlar. Mol-mulkning turlari.

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining maxsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari moddiy va manaviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, mulkchilik munosabatlari-bu mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Mulkka egalik qilish mulkning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amaliy foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin.

Mulkdan foydalanish-bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanishidir. Mol-mulkni o'zlashtirish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishi bildiriladi. Mulkni tasarruf etish-bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi holatlarni erkin tanlash imkoniyati orqali namoyon bo'ladi.

Xususiy mulk azaldan odamlarda qiziqish, rag'bat uyg'otib kelgan. Negaki, mulkning egasi bo'lsa, mehnat unumdorligi bir necha marotaba ortadi. Mulkdorning kayfiyati, intilishi, ish yuritishi, o'z faoliyatiga, umuman, hayotga munosabati boshqacha bo'ladi. Mulk egasi o'z ishini yaxshilashga, mulkiga mulk qo'shishga harakat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etishda mulkdorlarning o'рни nihoyatda katta. Zero, ular jamiyatdagi o'zgarishlarga bevosita daxldor bo'lgan qatlamdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida xususiy mulkni himoya qilish, uning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha keng - miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mulkiy munosabatlar amaldagi bir qancha qonun hujjatlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi, Yer kodeksi, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi, "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi, "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonunlar va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Mazkur qonun hujjatlarida xususiy mulk va mulkdorlarning huquqlari, ya'ni o'z mulkiga egalik qilishlari, undan erkin foydalanishlari, uni tasarruf etishlari, o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi hamda shu kabi bir qator huquq va erkinliklari belgilangan.

2.2. Ko'chmas mulk va ko'char mulk. Xususiy mulk va ommaviy mulk shakllari

Hozirgi vaqtda milliy qonunchiligimizda xususiy mulk huquqi va bu huquqlarni amalga oshirish bo'yicha davlat kafolatlariga muhim o'rin ajratilgan. Bunday kafolatlar amaldagi bir qancha qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. SHu bilan birga, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, xolisona tahlil, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

Xususan, bugungi kunda mulkiy huquqlarni bekor qilish hamda mulkni olib qo'yish hollarida uni adolatli kompensatsiya qilish qonunchilik hujjatlari bilan etarli darajada tartibga solinmagan. Qonunchilikda havolaki normalarning ko'pligi esa mulkiy huquqlar bilan bog'liq muhim masalalarni tegishli sohadagi qonun bilan

emas, balki idoraviy hujjatlar yordamida hal qilishga sharoit yaratadi. SHu bilan bir qatorda, xususiy mulk huquqiga qilingan tajovuzga davlat organlarining javobgarligi aniq belgilanmagan. Amaliyot ko'chmas mulkni davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yish huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligini ko'rsatmoqda.

“Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi esa, bu boradagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda ayni muddaodir. Ayni paytda qonun loyihasida, avvalo, xususiy mulk huquqining vujudga kelishi va bekor qilinishi holatlarini va xususiy mulk huquqlari faqat qonunda belgilangan hollarda hamda sudning qaroriga ko'ra bekor qilinishini belgilash lozim.

Mulkchilik munosabatlarning iqtisodiy mazmunini uning ajralmas jihatlari (egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar tavsifi nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin.

Mulkchilik munosabatlari uning obektlari va subektlari bo'lishi shart qilib qo'yadi. Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik obyektlaridir. Mulk obekti bo'lib, inson yaratgan moddiy va manaviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilish qobiliyati-ishchi kuchi va boshvalar hisoblanadi.

Mulk obektida asosiy bo'g'in-bu ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo'ladi. Real hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. SHunga mos ravishda mulk subektlari vujudga keladi.

Mulk subekti jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo'lgan, mulk obektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlariga birlashgan bo'ladi. Mulk obektlari va subektlari yordamida mulkchilik munosabatlari va huquqlarini yanada

yaqqolroq tushunish mumkin. Mulkchilik munosabatlari bu mulk obektini o'zlashtirish bo'yicha mulk subektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Mulkchilik huquqlari esa mulk subektining mulk obektiga nisbatan munosabatidir, ya'ni undan foydalanish va nazorat qilish yuzasidan kelib chiquvchi huquqlar majmuidir:

Mulk subektlari ko'p darajali bo'lib, shu subektlardan birontasi o'zini mulk egasi sifatida yuzaga chiqara olmasa, unda mulkchilik munosabatlari rasmiy va yuzaki tus oladi. Bozor iqtisodiyotiga utish sharoitida mulkning xar xil shakllari rivojlanadi.

2.3. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari. Xususiy mulk huquqi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston xalq turmush farovonligini, iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik erkinliklarini, eng muhimi, mulkdor bo'lish imkoniyatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

Mamlakatimizda tom ma'nodagi raqobat muhitini shakllantirish haqida bormoqda. Ma'lumki, bunday muhit ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash va modernizatsiya qilish, jahon bozorlariga chiqish yo'lida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bugun shuni tan olishimiz kerakki, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan dasturiy chora-tadbirlar zamonaviy talablarga hali-beri to'liq javob bermaydi. Biz hanuzgacha eskicha fikrlash qolipidan chiqa olmayapmiz, o'z umrini o'tab bo'lgan, eski va yaroqsiz planli-taqsimot tizimi qoldiqlari, afsuski, butunlay barham topgani yo'q. Keskin raqobat sharoitida soliq imtiyozlari va proteksionistik choralar hisobidan yashash mumkin, degan noto'g'ri qarash miyamizga chuqur o'rnatilib qolgan.

Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining xilma-xil bo'lishida o'z ifodasini topadi. SHu boisdan ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lib,

unda turli mulk shakllari va xo‘jalik ukkladlarining teng huquqligi, muvozanatda bo‘lishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi ta’minlanadi. qarorlari mavjud. O‘zbekistonda jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirishning maqsadi va bosqichlari.

O‘zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo‘ladi: birinchisi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki, ikkinchisi, ularning shirkat xo‘jaliklaridagi paylari, aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ xususiy mulk. Yakka va korporativ (ulushli) xususiy mulk egalari mulkdor hisoblanib, ularning mulkka bo‘lgan huquqlari, dahlsizligi davlat tomonidan himoyalandi. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksida» «mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishi huquqidan iboratdir.

Mulk huquqi muddatsizdir». O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida esa mulkdor huquqining daxlsizligi bilan birga, uning mas’uliyati ham belgilab berilgan. Xususan, unda «mulkdor mulkiga o‘z xohishiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart», deb ta’kidlangan. Xususiy mulk miqyoslarining kengayib borishiga olib keladi. Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida ma’lum sohada xo‘jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi.

Bu shuningdek, u yoki bu tarmoqqa tadbirkorlarning o‘z xohishlariga ko‘ra kirishini va undan chiqishini ham anglatadi. Tovarining nuqsonlari bo‘yicha iste’molchining talablari u kassa yoki tovar chekini kafolat muddati belgilangan tovarlar bo‘yicha esa tegishli rasmiashtirilgan texnik pasport yoki uning o‘rnini


bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko‘riladi. Bunday tovarlar boshqa nuqsonsiz tovarlarga almashtirilib beriladi yoki zararining o‘rni pul bilan qoplanadi.

2.4. Respublika mulki va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki.

Har qanday iqtisodiy tizimda bo‘lganidek, bozor iqtisodiyotida ham mulk miuammosi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va harakatdagi mavjud mulk shakllarining bozor talabiga, uning xususiyatlariga mos kelishi talab etiladi. YUqorida qayd qilganimizdek, erkin iqtisodiy taraqqiyot, xo‘jalik xillarining turliligini, iqtisodiy tashabbuskorlik, raqobat holati bozorning mohiyatini belgilovchi asoslardir.

Bular avvalo mavjud mulk shakllariga bog‘liq bo‘lib, ularning ifodasini tashkil etgan holda asosan mulk mohiyatini kedib chiqadi. Iqtisodiy tizimlar mulk shakllarining aksi bo‘lganidek bozor munosabatlari ham o‘zlariga xos va mos mulk shakllarini talab etadi. Tarixda turli mulkchilik va yakka mulkchilik shakllari mavjud bo‘lgan. Jamiyat turli xil mulkchilik asoslarida ham doimo rivojlanib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risidagi qonunga asosan mulk quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:⁹



2-rasm. O‘zbekistonda mulkchilikning shakllari

⁹ Ш.Ш.Шодмонов.У.В.Ғофуров. “Иқтисодиёт назарияси Дарслиги”. -Т.: “ИQTISOD-VOLIYA”, 2010 йил 79-бетдаги

XX-asrga kelib yakka mulkchilik tizimi ham barpo bo'ldi. Bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyotining mulk shakllariga bog'liqligi ijtimoiy mulkchilik sharoitida, ayniqsa juda ayon bo'ldi. Xo'jaliklarning turliligi, darajalarining har xilligi kurashga da'vat etadi, ya'ni raqobatga olib keladi. Ijtimoiy mulk esa, aksincha tenglik, bir xillik xususiyatini yaratadi.

Bundan tashqari u xo'jalik yuritishda markazlashuvga olib kelib, mustaqil xarakat qilish, tashabbus ko'rsatish imkonlarini yo'q qiladiki, bunday sharoit bozorcha taraqqiyotni inkor etadi. Eng muhim narsa shuki, ijtimoiy mulk bir xillik bo'lsa, xususiylik turlilikdan iboratdir.

Xususiy mulk, jamoa (shirkat) mulki, davlat mulki, xorijiy fuqarolar, tashkilotlar, davlatlar, shu jumladan, xorijiy huquqiy va jismoniy shaxslar mulklari.

Xususiy mulk ayrim shaxslarga qarashli bo'lgan, daromad olishga qaratilgan mulkdir. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi Qonunining 7-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, xususiy mulk o'z mol-mulkiga xususiy egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir deb ko'rsatilgan. Xususiy mulkning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: xususiy jismoniy va yuridik shaxslar, fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamiyat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va boshqa nodavlat yuridik shaxslar. Ularning barchasi xususiy mulkning subyektlaridir.

Xususiy mulkning asosiy obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi: uylar, kvartiralar, dala hovlilar, bino-inshootlar, qurilishlar, uskunalar, ishlab chiqarish vositalari, transport vositalari, uy hayvonlari, pul va qimmatbaho qog'ozlar, alohida huquqlarning turli-tuman tafakkur obyektlari kiradi. Davlat mustaqilligi tufayli bozorga o'tishning o'z modelimiz ishlab chiqilgach, asosiy e'tibor xususiy mulkni amalda mustahkamlash va rivojlantirishga qaratildi. Xususiy mulkning huquqiy mavqelari quyidagilardan iborat: xususiy mulk tushunchasi, uning boshqa shakllari tizimidagi o'rni, obyektlari doirasi, mulkdorning qonuniy huquqlari xususiyatlari, bu huquqlarning himoyasi va uni amalda ro'yobga chiqarish.

Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Xususiy mulk sohibi mulkka nisbatan o'z huquqlarini xususiy tarzda amalga oshiradi, ya'ni u boshqa shaxslarning roziligi yoki ruxsatini so'rab o'tirmay, o'z xohishiga ko'ra ish olib boradi. Ma'lumki, davlat mulki shaklida davlatning o'zi subyekt (mulkdor) hisoblanib, inson mulkdan ajratiladi, begonalashtiriladi. Xususiy mulkda esa boshqa kishi emas, balki uning o'zi subyekt bo'ladi. Xususiy mulkning asosiy fazilati shundan iboratki, barcha shakllar orasida yolg'iz u mulkdorga yaqin turadi.

Bu holda esa u o'z xohishi bilan va o'z irodasiga muvofiq, molmulkka tezkorlik bilan ta'sir ko'rsatib, uning saqlanishi va ko'payishi mas'uliyatini zimmasiga oladi. O'zbekistonda xususiy mulkning vujudga kelishining muhim manbai sohibi o'z mol-mulkiga nisbatan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirishga haqli, ishlab chiqarish, tijorat va yuridik mustaqillika ega bo'lib, o'z korxonasini boshqarishda mustaqil shaxs hisoblanadi.

2.5. Muldni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.

Ko'p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirish.

O'zbekistonda xususiy mulkni o'rta va kichik firmalar va korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa xo'jaligi va individual mehnat faoliyatlaridan tashkil topgandir. O'rta va kichik korxonalar xususiy mulkni tashkil etuvchi poydevor bo'lib, ular yakka holatdagi xususiy tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar jumlasidandir. Ko'pchilik iqtisodchilar mayda tovar xo'jaligi xususiy ukklad tarkibida alohida maqomga ega, deb ta'kidlashmoqda. Ular guruhlashtirilib, mayda tovar xo'jaligi tarkibiga kichik korxonalar, dehqon xo'jaliklari, kichik fermer xo'jaliklari va yakka tartibda ishlovchilar kiritilmoqda.

Albatta, ular birbiridan farqlanadi. Masalan, kichik fermer xo'jaligida ozchilik ishlagani holda, ish bilan band bo'lganlar oila a'zolari yoki oilaning yaqin qarindoshlari hisoblanadi. Bundan farqli o'laroq, kichik firmalarda ishlovchilarning qonqarindoshlik munosabati kam uchraydi. Mayda tovar xo'jaligi ilgari

iqtisodiyotda alohida uklad deb yuritilgan bo'lsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida u xususiy ukladning bir turidir, deb talqin etilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida xususiy mulk yirik fermerlar xo'jaliklar hisobiga ham o'sib bormoqda. Mustaqillikka erishilgandan so'ng ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlat mulkini xususiy mulk va mulkning boshqa shakllariga almashtirish mumkinligini muqarrar qilib qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni davlat qonunlari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Natijada ko'p ukladlilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti, aralash iqtisodiyot yuzaga keldi. Iqtisodiyot nazariyasi fani ukladni ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida mezonlar asosida, ya'ni mulk shakllari, xo'jalik yuritish uslublari, daromad manbalari va uning turlari asosida tatbiq etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida to'rtta uklad amal qiladi: davlat, xususiy, jamoa va aralash ukladlar. Bu ukladlar mazmun jihatdan turlichadir. Ular birbiri bilan doimo raqobatda bo'ladi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uchun jami ukladlar tizimi raqobati asos bo'ladi va bunga bozor munosabatlari orqali erishiladi.

Ko'p ukladli iqtisodiyotda mulkiy munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida mulk shakllari o'rtasida raqobat kurashi kuchayadi. Ular bir-biridan o'zining iqtisodiy ustunligiga erishishga intilish, yuqori mavqega chiqib olishga harakat qilish doimiy tus oladi. Bu raqobat kurashida iqtisodiy jihatdan zaif bo'lgan mulk o'zini saqlab qola olmaydi, chunki u barham topadi. Mulk shakllarining raqobatli kurashi natijasida mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlari ko'tariladi va bozorning taklif darajasi ortadi. Ko'p ukladli iqtisodiyot aralash iqtisodiyotdir. Bunday iqtisodiyot bozor iqtisodiyotining talabi hisoblanadi.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondashuvning muhim xususiyati-uni maxsus dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat.¹⁰

1992-1993-yillarda xususiylashtirishning ***birinchi bosqichini*** o'z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini engil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o'rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko'proq ijara korxonalariga, yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Ushbu bosqichda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini engish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish kabi vazifalarni hal qilishga to'g'ri keldi.

Mazkur vazifalarni hal qilish uchun iqtisodiyotni dastlabki isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish talab qilindi. Birinchidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, shuningdek, engil sanoat, qurilish va transport sohasidagi ayrim korxonalarni aksiyadorlik asosida qayta qurish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish. Uchinchidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishning g'oyat muhim sharti bo'lmog'i kerak edi.

¹⁰ Ш.Ш.Шадмонов У.В.Фофуров. Иқтисодий назария Дарслик. -Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010 йил 84-бет.

Ikkinchi bosqich 1994-1995 yillarga to'g'ri keldi. Ushbu bosqich o'sha davrda yosh davlatimizning iqtisodiy tizimini mustahkamlashga, iqtisodiy mustaqillikka erishishga hamda milliy valyutaning muomalasi va ichki almashinuvi barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu bosqichning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi. Davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishlarni oxiriga etkazish; Ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, korxonalar hamda tarmoqlarning va umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish; Milliy valyuta so'mni yanada mustahkamlash, milliy valyuta kuchli bo'lsa, iqtisodiyot o'shandagina mustahkam bo'ladi.

Iqtisodiyotni strukturasi tubdan o'zgartirish, hom ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifatini va raqobatga bardoshligini jahon bozori talablari darajasiga etkazishdan iborat. Bu bosqichda ko'plab o'rta va yirik korxonalar akyiyadorlar jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi.

Davlat mulki aksiyadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalarini tashkil qilish jadallashtirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bu bosqichida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama tavsifga ega. Bir tomondan, u aholining bo'sh turgan mablag'larini o'ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini pasaytirida. Ikkinchi tomondan, yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi.

Bu erda shuni ta'kidlash lozimki, xususiylashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorini shakllantirishning yagona yo'li emas. Tashabbuskorlik

asosida yakka tarkibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi kichik va o'rta korxonalarni tashkil qilish-ikkinchidan qudratli jarayon hisoblanadi. Respublika iqtisodiyoti

1996-yildan boshlab mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning **uchinchi bosqichiga** kirdi. Bu bosqich davrida (1996-1998-yillar) xususiylashtirilmaydigan obektlar ro'yxatiga kirmagan barcha obekt va korxonalar (jami 3146 ta) davlat tasarrufidan chiqarildi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish maqsadida kichik biznes, tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiyot sohasida amalga oshirilgan islohatlar, ularning ijobiy natijalari oqibatida iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan ijtimoiy iqtisodiy sharoit yaratiladi.

Xususiylashtirish jarayonlarining **to'rtinchi bosqichi** (1998-2003-yillar) uning asosiy vazifalari sifatida davlat budjetiga xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni yo'naltirish, xususiylashtirilgan korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, boshqaruv samaradorligini oshirish va mulkchilikning yangi munosabatlarini to'laqonli amal qilishi uchun sharoitlar yaratish tadbirlarini amalga oshirish belgilanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash; Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish hisobiga uning tashqi xavf-xatarlar ta'siridan himoyalash; Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish; Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash ishlarini davom ettirish va sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish; Mamlakatimizning oziq-ovqat va energetik xavfsizligini yanada mustahkamlash; Aholi daromadlarini oshirish va turmush sifatini yanada yaxshilash.

O'zbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining hozirgi **beshinchi bosqichi** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2003-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁷ Farmoni bilan bog‘liq. Mazkur farmon asosida iqtisodiy nochor korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, shuningdek, mazkur korxonalarni modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya larni jalb etish maqsadida xususiylashtirilgan obektlarga narx belgilashning samarali mexanizmi joriy etildi.

2.6. Mulk islohoti va uning bosqichlari.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar asosida mulkni xususiylashtirish natijasida xususiy mulk boshqa mulklarga nisbatan birlamchilar qatoriga o‘ta boshladi va boshqa mulklar bilan aloqaga kirishib, ularning taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsata boshladi. Chunki xususiy mulk O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «...xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir» ,deb qayd etilgan.

Bu xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun iqtisodiy sharoit mavjudligi e’tirof etilib, kelajakda uning etakchi, birlamchi mulk bo‘lishiga zamindir. Xususiy mulk xususiy tadbirkorlik mulkidir. U davlat, kooperativ yoki boshqa mulklarning hammasi yoxud bir qismining fuqarolarga o‘tkazilishi yoyinki shaxsiy jamg‘armalar, bankdan olingan qarzlar hisobiga bu mulkni sotib olish, shuningdek ijaradagi mulkning haqini to‘liq to‘lab yoki uni qonunda ko‘zda tutilgan boshqa yo‘llar bilan xarid qilish kabi hollarda vujudga kela boshladi. Xususiy korxonaning egasi, odatda, xususiy tadbirkor bo‘ladi. O‘zi tavakkal qilib va o‘zi mulkiy javobgar bo‘lgani holda shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida tashabbuskorlik asosida xo‘jalik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxslar xususiy tadbirkorlar maqomini oladilar. Xususiy korxonalarning yollanma mehnatdan foydalanishi cheklanmagan. Xususiy mulk islohotlarning yo‘lga qo‘yilishi bilan makroiqtisodiyotning barcha sohalarida paydo bo‘la boshladi.

Agrar sektorda ham umumxalq mulki bo'lgan erda ish yurituvchi dehqon (fermer) xo'jaliklarini shakllantirish asosida xususiy mulk yuzaga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" gi Qonunida qo'yidagicha beriladi:

Davlat tasarrufidan chiqarish - davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyadorlik jamiyatlariga, ma'suliyati cheklangan jamiyatlariga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirish.

Xususiylashtirish – fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Bundan ko'rinadiki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiylashtirish davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishidir. **Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir qator yo'llar bilan amalga oshiriladi: davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatga qarab chiqarilgan cheklar (*vaucher*) bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulkini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va hokazolar.

Xususiylashtirishning usullari ham turli-tuman bo'lib, ularni ich guruhga ajratish mumkin:

- Davlat mulkini bepul bo'lib berish orqali xususiylashtirish
- Davlat mulkini sotish orqali xususiylashtirish
- Davlat mulkini bepul bo'lib berish hamda sotishni uyg'unlashtirish orqali xususiylashtirish amalga oshiriladi.



3-rasm. Davlat mulkini xususiylashtirish usullari ¹¹

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Huddi shu masalani xal qilish bilan yangi jamiyat, yangi iqtisodiy munosabatlar poydevoriga birinchi g‘isht qo‘yildi. Ushbu masalaning davr talablariga muvofiq, muvaffaqiyatli hal etilishi respublikamiz iqtisodiyotini jahondagi rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorga qo‘yadigan asosiy omildir.

¹¹ Ш.Ш.Шадмонов У.В.Ғофуров. Иқтисодий назария Дарслик. -Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010 йил 84-бет.

O'zbekiston Respublikasi davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonunga binoan davlat mulkining barcha obyektlari ikki guruhga bo'linadi.

- Davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtiriladigan obyektlar;
- Xususiylashtirish ta'qiqlangan obyektlar.

Tarmoq mansubligi, chiqarilayotgan mahsulotning, bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatliligi davlat mulkini saqlab qolishning maqsadga muvofiqligi obyektни u yoki bu guruhga kiritish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining alohida mulkiy obyektlari-er osti boyliklar, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi, tarixiy va madaniy yodgorliklar, davlat byudjeti mablag'lari, respublika sug'urta jamg'armalari; mamlakatimiz mustahkamligini, uning ijtimoiy va iqtisodiy rivojini ta'minlovchi korxonalar va mulkiy jamg'armalar xususiylashtirilmaydi.

Xususiylashtirish jarayonlarida iqtisodiy maqsadga muvofiklik va samaradorlik qoidalari asosiy o'rin tutadi, isloh qilish sun'iy jadallashtirilishi yoki sustlashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Xususiylashtirishning asosiy yo'nalishi davlat mulki obyektlarini qayta tashkil etishdan iborat. Kichik inshootlar uchun asosan mulkchilikning xususiy va mas'uliyati cheklangan jamiyat va ochiq turdagi hissadorlik jamiyati usuli, yirik korxonalar uchun ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari usuli tavsiya etiladi.

2.7. Milliy iqtisodiyotda davlat mulki salmog'ining o'zgarishi. O'rta mulkdorlar tabaqasini shakllantirish.

Milliy iqtisodiyotda davlat mulki salmog'ining o'zgarishi bevosita tadbirkorlikni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat mulki ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat mulkini xususiylashtirish va uni davlat

tasarrufidan chiqarish jarayonida ko‘p ukkladli iqtisodiyot, ya’ni aralash iqtisodiyotda davlat mulkining mavqei katta bo‘ladi.

Davlat sektori ham ko‘p ukkladli tuzilmaga kiradi, bunda yakka davlat mulkchiligi mavjud bo‘lsada, bu mulkning tasarrufi har xil xo‘jalik yuritish sharoitida ro‘y beradi. Bu o‘rinda davlat mulki erkin raqobat muhitini hosil etsa, boshqa o‘rinda monopol tuzilmani yuzaga keltiradi.

Buning sababi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlat makroiqtisodiyotning barqarorligi va uning rivojlanishini ta’minlashga asos bo‘lib xizmat qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e’tibor berilganligidadir.

Shuningdek, u o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalashi, ayniqsa, kambag‘al qatlamning yashash minimumi darajasini ta’minlashi kerak. O‘tish davrida, tabiiyki, davlat jamiyat va iqtisodiyot muvozanatini saqlab turish uchun bufer vazifasini bajaradi. SHunga binoan, davlat mulkining mavqei va tutgan o‘rni sezilarli darajada bo‘lishi zaruriyatdir.

SHu bilan birga, davlatning mulkning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli va ahamiyati kattadir. Haqiqatan ham davlat mulki xalqqa tegishli bo‘lib, u ajratilmaydi va undan noyob resurslarni qayta ishlashda foydalaniladi. Davlat mulki unga tegishli tovar va xizmatlar yaratuvchi korxonalar majmuidan iborat bo‘lib, davlat sektori jumlasiga kiradi. Davlat mulk egasi sifatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni rag‘batlantiradi.¹² Uning korxonalari milliy mahsulot yaratuvchi ko‘rinishida maydonga chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘tishida kuchli davlatning faol ishtiroki va rahbarligida, ya’ni davlat sektorini mustahkamlash, so‘ngra boshqa mulklarga erkinlik berish yo‘li bilan amalga oshirildi. Davlat mulkining xususiyatlaridan biri davlatning mutloq monopolist bo‘lib, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan mahsulotlarni yakka o‘zi o‘zlashtirayotganligidadir. Davlat mulkiga

¹² Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида Ўзбекистони Республикаси. Қонунлари ва фармонлари- Т: О‘zbekiston

qarashli korxonalarda yollanib ishlovchi kishilar o'z mustaqilliklarini yo'qotadilar. Chunki ishlab chiqilgan mahsulot davlatning xohishistagiga qarab taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Mulkka davlat monopolizmining saqlanib qolinishi, iqtisodiy hayotda, ma'lum darajada, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining erkin amal qilishi uchun ma'lum chegaralarning payda bo'lishini taqozo etadi.

O'zbekiston Fuqarolik kodeksida davlat mulki respublika mulki va ma'muriy hududiy tuzilmalar mulkidan iborat ekanligi ta'kidlangan. Davlat mulki tizimiga mudofaa, davlat boshqaruvi, ijtimoiy tartibni muhofaza qilish, yagona energetika tizimini ta'minlash, fundamental fanlarni rivojlantirish, yer, yer osti va usti boyliklari, foydali qazilmalar, suv va suv inshootlari, tabiatni muhofaza qilish kabi qator obyektlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiyotida shunday sohalar mavjudki, Fuqarolik kodeksiga muvofiq yer, yer osti va usti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi, yoqilg'i energetika kompleksi, neft konlari, gaz zaxiralari va nihoyat «oltin zaxira»lari, davlat hokimiyati va respublikaning boshqa tashkilotlari molmulki, davlat ahamiyatiga molik madaniy va tarixiy boyliklar, respublikaning byudjet mablag'lari, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi.

Byudjet mablag'lari yoki davlatning boshqa mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan korxonalar, boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiytadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, boshqa molmulklar ham respublikaning foydalanishida va tasarrufida bo'lishi mumkin.

YUqorida zikr etilgan mulk obyektlarining yagona davlat mulki tarkibida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichi yakunlari shundan dalolat bermoqdaki, respublikada davlat mulki ma'lum davrgacha etakchi o'rinda bo'lib qolaveradi.

Bunday holat o'ziga xos bo'lgan yangi boshqaruv tizimini talab qiladi. Hozirgi sharoitda davlat mulkiga mansub korxonalarning ikki turi mavjud: birinchisi davlatning to'g'ridan-to'g'ri, bevosita rahbarligida ishlovchi korxonalar: ikkinchisi to'la tijorat hisobida turuvchi korxonalar. Demak, davlat tadbirkorlik sektorida faoliyat ko'rsatib, o'z ulushiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida davlat mulkini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi hukumatining agrar qonun hujjatlarida vakil qilingan organlar tasarruf etadi.

2.8. Mulkchilik munosabatlarini takomillashtirishda davlatning o'rni. Davlat aktivlarining ochiq birja savdolarida sotilishi.

Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mulkchilik huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mulkchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko'rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Mulkchilik xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqariladi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni o'zlashtirilmasa, ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u "huquqiy" kategoriya sifatida qoladi.

Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo'ysunuvchi rol o'ynamaydi. Bu shunda ko'rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma'lum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqilgan mahsulotdan foydalana olmaydi.

SHu sababli mulkchilikning huquqiy me'yorlari (egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Huquqiy me'yorlar, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabatlarini

muhoqaza qilish zaruratini bilan bog‘liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan, ular tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Bu rol shunda ko‘rinadiki, tovar xo‘jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyatini paydo bo‘ldi.

SHunday qilib, mulkchilikning huquqiy me‘yorlari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne‘matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalarining qonun bilan qo‘riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan, mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi ¹³.

Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o‘zida mujassamlashtirgan. SHu sababli mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. SHu tufayli mulkchilik ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriyadir. Mulkchilik iqtisodiy o‘zlashtirishning tarixiy muayyan shakli bo‘lib, undan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish va xizmatlarni amalga oshirishda foydalaniladi.

SHunga asoslangan holda mulkchilikni mavjud tarixiy sharoitidan tashqari mustaqil tushuncha shaklida emas, balki muayyan tarixiy bosqichdagi iqtisodiy munosabat shaklida tushunmoq kerak. Davr taqozosiga asosan mulkchilik turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Mulkchilik subyektivi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga muvofiq fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulkchilik huquqining subyektlaridir. Er, er osti boyliklari, suvlar, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, binolar, inshootlar, uskunalar, xomashyo va mahsulotlar, pul, qimmatbaho qog‘ozlar va

¹³ Ш.Ш.Шодмонов.У. В. Гофуров. “Иқтисодиёт назарияси”. Дарслик. -Т.: “ИQTISOD-MOLIYA”. 2010 йил 89 -бетдаги

boshqa molmulklar, shuningdek intellektual mulklar mulk huquqlari obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Mulkchilik ishlab chiqarishning ashyoviy omillariga va xizmatlariga egalik qilishda shakllanadi. Masalan, tovar oborotida biror shaxsda konkret ashyoga mulkchilik huquqining vujudga kelishi ayni vaqtda boshqa shaxsdagi unga bo'lgan mulkchilik huquqining bekor qilinishini anglatadi.

Mulkka egalik huquqining bekor bo'lishi mulkdor irodasiga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar jumlasiga molmulkni tugatish (yo'q qilish), milliylashtirish – fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli mol-mulkka egalik huquqining haq to'lab boshqa shaxsga o'tkazilishi,

rekvizitsiya – mulkdordan mulkni uning qiymatini to'lagan holda olish kabilar kiradi. Mulkdor o'z xohish irodasiga qarab, ishlab chiqarish vositalaridan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanmasdan chetlashtira olishi, boshqa bir tadbirkorga ijaraga berishi mumkin. Bunda mulkdor bilan tadbirkor o'rtasida mulkdan xo'jalikda foydalanish munosabatlari yuzaga keladi. Bu holatda tadbirkor ijaraga olgan mulkka vaqtincha egalik qilish va undan foydalanish uchun yuridik huquqni qo'lga kiritadi.

O'zbekiston Konsititutsiyasining 53-moddasiga muvofiq «O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi»¹⁴.

Biz totalitar tuzumning o'z hukmini o'tkazishi va boshboshdoqligidan voz kehdik. Odamning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan, shuningdek, mulkchilikning hamma vakillaridagi ma'muriy-xo'jalik tuzilmalari bilan xilma-xil munosabatlarini tartibga solishning huquqiy normalari sari dadil qadam tashladik". Jamiyatning iqtisodiy negizi – mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. SHu sababli nafaqat yuridik mazmunga, balki iqtisodiy ma'noga ham ega.

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Конситуциясининг 53-моддасига оид. - Т: О'zbekiston

O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Xususiy korxona to'g'risida»gi Qonunlar va boshqa qator huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq o'n uchinchi sessiyasida «Xususiy korxona to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bilan jamiyatimizda xususiy mulkning maqomini yanada mustahkamlash va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatning huquqiy asoslarini rivojlantirish borasida yangi bosqich boshlandi, desak xato bo'lmaydi. Ma'lumki, mulk qadimdan barcha kishilik jamiyatini va u jamiyat a'zolari hisoblangan fuqarolarni ohanrabodek o'ziga tortib kelgan. Zero, kishilarning o'zlari to'plagan mol-mulkiga qarab, ularning jamiyatdagi, ijtimoiy turmushdagi mavqelari belgilangan. Jamiyatning iqtisodiy negizi — mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. SHu sababli mulk nafaqat yuridiy mazmunga, balki iqtisodiy ma'noga ham ega. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda "taqdim etilgan" boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan.

3-bob. NARXLARNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

3.1. Narxning vazifalari. Tovar narxi tartibga solinishiga daxldorlar.

Narx – muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo‘lib, u talab va taklif bilan bir qatorda bozor qurollaridan biridir. Tovar qiymatining asosi mehnat hisoblanadi, qiymat kattaligi esa ushbu sharoitlarda jamiyat zarur deb tan oladigan mehnat harajatlari bilan belgilanadi. Narx - tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Bozor narxida qiymat qonuni, talab va taklif qonuni kabi iqtisodiy qonunlar talablari e’tiborga olinishi kerak, chunki narxlar ijtimoiy - zaruriy mehnat, materiallar, xomashyo harajatlariga asoslangan (qiymat qonuni), shuningdek mahsulotning iste’mol xususiyatlarini e’tibor olgan (talab va taklif qonuni).

Narx bozorni boshqarish quroli sifatida bir qator vazifalarni bajaradi.

- hisob;
- rag‘batlantiruvchi;
- tartibga soluvchi;
- taqsimlovchi.

Hisob vazifasi. Narxning muhim vazifasi – mehnat harajatlari va natijalarini o‘lchashdir. Tovar narxi inson va moddiylashgan mehnat, materiallar va xomashyolarga harajatlarni o‘z ichiga oladi. Mehnat unumdorligi va samaradorligi darajasini ko‘rsatadi, provardida ishlab chiqarish harajatlari, mahsulot muomalasi va foydani belgilaydi. Binobarin, ushbu vazifaning mohiyati narx, ijtimoiy – zaruriy harajatlar va ishlab chiqarish natijalarining hisobi rolini bajarishidir.

Rag‘batlantiruvchi vazifa. Iqtisodiy rag‘batlantirish vazifasi mahsulot sifatini hisobga olish, uning yaxshilanishini rag‘batlantirish va assortimentni yaxshilashdan iborat.

Tartibga soluvchi vazifa. Bozor narxi ishlab chiqaruvchi belgilashni istagan narxdan farq qilishi mumkin, chunki u sotuvdan katta savdo puli olishga, iste’molchi esa ushbu mahsulotni sotib olishga o‘zining harajatlarini minimallashtirishga intiladi.

SHuning uchun tartibga soluvchi vazifa talab va taklifni balanslovchi muvozanatlashgan narx belgilashdan iborat.

Taqsimlovchi vazifa. Ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilish uchun narxning tovar qiymatidan siljishi asosida foydani qayta taqsimlash vazifasi bo'lib xizmat qiladi. Bu soliq solish tizimi va ba'zi boshqa tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

Masalan, dori vositalarining ko'plariga qo'shilgan qiymatiga soliq belgilanmagan; hayotiy zarur bo'lgan dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar foyda hisobidan soliq to'lash bo'yicha imtiyozga ega. Dori vositalari o'ziga xos turdagi tovarlarga kirganligi sababli, ularning narxlari ushbu o'ziga xoslikni e'tiborga olishi lozim. SHu bilan birga dori vositalariga har qanday tovarning asosiy xususiyatlari xosdir.

Birinchidan, dori vositalari har qanday tovar kabi iqtisodiy mohiyatga ega. U chiqarish va tarqatishdagi harajatlar natijalarini hisobga oluvchi puldagi qiymatda ifodalanadi, iste'mol qiymatiga ega, iqtisodiy talab va taklif qonunlariga bo'ysunadi. Boshqa tomondan dori vositalari inson sog'lig'ini saqlashdan iborat bo'lgan ijtimoiy mohiyatga egadir. dori vositalari keskin qimmatlashchan sharoitda aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq davlat dasturlari, dorilarning ijtimoiy ahamiyatining isbotidir.

Ikkinchidan, dori vositalari o'ziga xos turdagi tovar kabi ijtimoiy -iqtisodiy samaradorligi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy samara ko'rsatkichi dorilarning ishlab chiqarilishi bilan bog'liq milliy ijtimoiy daromadning o'sishini ifodalaydi, ijtimoiy samara moddiy mehnat, moliyaviy zaxiralarning tejalishi bilan kechadi.

Uchinchidan, dori vositalariga talab fiziologik iste'mol me'yorlari bilan emas, balki inson patologiyasi bilan tartibga solinadi.

Sog'lom va bemor kishilar ba'zi (retseptsiz beriladigan) dori vositalarni mustaqil olishlari mumkin bo'lsada, foyda shifokor talab generatori hisoblanadi (oraliq ilte'molchi).

To‘rtinchidan, narxga nisbatan ehtiyoj aniqligi kasallik tavsifi dori to‘lov usuliga (naxd yoki pul o‘tkazish yo‘li bilan hisob-kitob qilish) bog‘liq bo‘lishi mumkin. Surunkali bemorlar dorilarni doimiy qo‘llaganliklari sababli, ular ishlatadigan tovarlarga ehtiyoj darajasi aniq bo‘lmaydi. Retsept bo‘yicha to‘liq qiymatiga yoki imtiyozli shartlar bilan beriladigan dori vositalari talabi ham noaniq bo‘ladi.

3.2. Ustama narxlar. Narxlarni tartibga soluvchi organ.

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining xilma-xilligi hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi darajasidagi farqlar narx turlarini farqlash zaruriyatini tug‘diradi. Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi. Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

Ulgurji narxlar. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar bir yo‘la ko‘tarasiga sotilganda ulgurji narxlardan foydalaniladi. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchilar va ta‘minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma‘lum miqdorda foyda ko‘rishini ta‘minlashi zarur. Ulgurji narxlar tovar birjalari va savdo uylarida ham qo‘llaniladi.

Shartnoma narxlar. Bu sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlardir. Shartnoma narxlar odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o‘zgarmaydi. Mazkur narxlar ham milliy va ham xalqaro bozorda qo‘llaniladi. U xalqaro bozorda qo‘llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

CHakana narxlar. Bu narxlarda tovarlar bevosita iste‘molchilarga sotiladi. CHakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi. CHakana narx tovarlarga bo‘lgan talab va taklifni bog‘lovchi rolini o‘ynaydi hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo‘lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solishlik faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyali narxlarni vujudga keltiradi. Chegaralangan narxlarda davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi, ular shu doirada o'zgarishi mumkin. Bunday narxlar yordamida davlat inflyasiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi. Dotatsiyalangan narx - bu davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlar. Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx. Bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadiki, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Sotish hajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar nufuzli narxdan foydalanadi. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, oxirgi nusxadagi kiyimlar kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish - martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Martabali iste'mol nufuzli narxlarni yuzaga keltiradi. Ular odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi. Nufuzli narxlarni qo'llashda tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari va rentabellik darajasi, bozordagi talab, uning o'zgarishi va bozordagi raqobatlashuv sharoiti hisobga olinadi. SHunga qarab, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy (standart) narxlar va o'zgaruvchan narxlar qo'llaniladi. SHunday tovarlar borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarmasligini afzal ko'radi.

Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati ta'riflari shunday narxlar jumlasiga kiradi.

Erkin bozor narxlari - bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narxlar jamiyat va bozor munosabatlari barcha subyektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik katta bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Bozor ko'lami hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar mavjud bo'ladi. Hududiy narx faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi. Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlaridir. Milliy narx mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-harajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafililigini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. Jahon narxi muayyan tovarga ketgan bayналminal harajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.

Narx xilma-xil turlardan iborat bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot nazariyasida narx nisbati degan tushuncha bor, u narx pariteti deb ham yuritiladi. Iqtisodiyot va undagi jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi. Masalan, ruda narxi metall narxiga, metall narxi mashina narxiga, mashina narxi kiyim narxiga kiradi, chunki bu narxlarning har biri o'zidan keyingi mahsulot harajatlarini shakllantiradi. Bozorga shunday o'ziga xos tovarlar chiqadiki, ular ko'pchilik sohalarda ishlatiladigan eng muhim iqtisodiy resurslar hisoblanadi. Bular metall, neft, ko'mir, gaz, yog'och, bug'doy, paxta kabi tovarlar bo'lib, ular narxining o'zgarishi butun narxlar nisbatini o'zgartiradi.

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. SHunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyusion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Masalan, AQSHda davlatning xususiy monopoliyalar faoliyatini cheklashga qaratilgan tadbirlari 1980 yilda trestlarga qarshi qabul qilingan qonunda («SHerman qonuni») o'z ifodasini topadi. Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar boshqa mamlakatlarda ham sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Buyruqli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog'lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy subyektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi.

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi.

SHunday qilib, O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo‘li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo‘jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o‘tishdir. Bu erda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo‘lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas’uliyat asosida o‘z manfaatiga ega bo‘lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo‘jalik subyektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

3.3. Monopolist korxonalar. Tabiiy monopoliya subyekti

Tabiiy monopoliyalar tarmoqlari, odatda, yuqori narxlar belgilash huquqiga ega bo‘lishi hisobiga mamlakat iqtisodiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. SHu bois ular faoliyati ustidan davlat nazoratini o‘rnatish, shuningdek mahsulot va xizmatlar tannarxini pasaytirish, tegishincha, mahsulot yoki xizmatga narxlar va tariflarni belgilash, ularning sifatini oshirish maqsadida bozorda harakat qilish qoidalarini ishlab chiqish bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchilar, davlat va tabiiy monopoliyalar subyektlari manfaatlari mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tabiiy monopoliya - tovar bozorining holati bo‘lib, unda texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo‘lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emas yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.¹⁵

Tabiiy monopoliyalar sohasida tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, ularni tartibga solish usullaridan biri sifatida, monopol faoliyatturlarini tabiiy monopoliyalar sohalariga bevosita kirmaydigan, ammo raqobatni keltirib chiqara oladigan faoliyat turlaridan ajratish (tabiiy monopol tarmoq tuzilmalari doirasida) hamda raqobat

¹⁵ Ўзбекистон Республикасининг “ Табиий монополиялар тўғрисида”ги қонуни 24.04.1997 й. N 398-I (Янги тахрири)


asosida ushbu faoliyat turlari bozorini shakllantirish yo'li bilan raqobat muhitini yaratish masalasini hal qiladi.

Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- narxlarni (tariflarni) yoki ularning eng yuqori (eng past) darajasini belgilash (o'rnatish) vositasida narxlarni tartibga solish;

- xizmat ko'rsatilishi shart bo'lgan iste'molchilarni aniqlash va (yoki) ularni tabiiy monopoliya subyektlari realizatsiya qiladigan tovar bilan to'liq hajmda qondirishning imkoni bo'lmagan taqdirda, ta'minlashning eng kam darajasini belgilash. Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish uchun qonun hujjatlariga muvofiq boshqa usullar ham qo'llanilishi mumkin. "Tabiiy monopoliya subyektlarining davlat reestrini tuzish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq, reestrni tuzish O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning hududiy organlari tomonidan ushbu Nizom ilovasida keltirilgan ro'yxatga muvofiq tabiiy monopoliya sharoitida ishlab chiqariladigan (realizatsiya qilinadigan) tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha amalga oshiriladi. Reestr respublika va hududiy bo'limlardan tashkil topgan. Reestrning respublika bo'limiga tabiiy monopoliya sharoitida ikki va undan ortiq viloyatlar hududlarida tovarlar ishlab chiqarayotgan (realizatsiya qilayotgan) xo'jalik yurituvchi subyektlar kiritiladi. Tabiiy monopoliyalarni tartib solish sohasidagi asosiy qonun hujjati "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda uni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan qonunosti hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan nazorat Raqobat qo'mitasiga yuklatilgan.

Ushbu Qonunga muvofiq Tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyati quyidagi 3-rasmda keltirilgan sohalarda davlat tomonidan tartibga solinadi.



4-rasm. O‘zbekiston respublikda tabiiy monopoliya subyektlari faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalar¹⁶

Tabiiy monopoliya sharoitida tovarlar ishlab chiqarayotgan (realizatsiya qilayotgan), davlat yoki xo‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar ushbu davlat yoki xo‘jalik boshqaruvi organi subyekti sifatida Reestrning respublika bo‘limiga kiritilishi mumkin. Tabiiy monopoliya sharoitida tovarlar ishlab chiqarish (realizatsiya qilish) asosiy faoliyat turi hisoblanmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, quyidagi alohida shartlar asosida Reestrga kiritiladi:

- tabiiy monopoliya tovarlarining pirovard iste’molchisi aholi va yoki byudjet tashkilotlari hisoblanganda;
- iste’molchilarga yetkazib berilayotgan tabiiy monopoliya tovarlari hajmi shu tovarlarning ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 10 foizdan oshganda;

¹⁶ Бурханходжаева Х., Мансуров К. Аҳолига савдо хизмати кўрсатишда рақобат ва уни тартибга олишнинг конституциявий ҳуқуқий асослари.//ТДЮИ Ахборотномаси. 2007 й. №5.

- subabonentlarga realizatsiya qilinayotgan tabiiy monopoliya tovari hajmlari sotib olingan tovar hajmining 10 foizidan kam bo'lmagan holatda.

Tabiiy monopoliya subyekti Reestrda kiritilganligi to'g'risidagi bildirishnomani olgan paytdan e'tiboran o'n kunlik muddatda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tabiiy monopoliya sharoitida ishlab chiqarilayotgan (realizatsiya qilinayotgan) tovarlar narxlari (tariflari) yoki ularning eng yuqori darajalarini (pochta aloqasi universal xizmatlariga tariflar bundan mustasno) tasdiqlash uchun tegishli moliya organiga murojaat qiladi.

3.4. Narxlarni tartibga soluvchi koeffitsientlar (pasaytiruvchi yoki oshiruvchi).

Transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xalqaro hujjatlar mavjud emas. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan transmilliy korxonalar va soliq organlari uchun transfert narxlar bo'yicha Qo'llanma (OECD Transfer pricing guidelines for multinational enterprises and tax administrations) (keyingi o'rinlarda – Qo'llanma) ishlab chiqilgan. Bu tavsiyaviy tusdagi hujjat bo'lsa-da, uning qoidalari turli mamlakatlar, jumladan IHTT a'zosi bo'lmagan davlatlar milliy qonunchiligida ham o'z aksini topgan.

Hozirda amalda bo'lib turgan Qo'llanma 1979- yilda qabul qilingan Transfert narxlar bo'yicha Hisobotning yangi tahriri hisoblanadi. Qo'llanma 2010- yil 22- iyulda tasdiqlangan. Qo'llanmada soliq solish maqsadida narxlarni aniqlash usullari ikki guruhga ajratilgan: an'anaviy usullar hamda tahlil va foydani taqsimlashga asoslangan usullar. Qo'llanma transfert narxlarni aniqlashning quyidagi usullaridan foydalanishni tavsiya etadi:

An'anaviy usullar:

Bozor narxi usuli (comparable uncontrolled price method);

Qayta sotish narxi usuli (resale price method);

Joriy xarajatlar usuli (cost-plus method).

Tahlil va foydani taqsimlashga asoslangan usullar:

Bitim bo'yicha toza marja usuli (Transactional net margin method);

Bitim bo'yicha foydani taqsimlash usuli (Transactional profit split method).

Transfert narxlar hosil qilinishini aniqlashning qaysi usulini tanlash ishning aniq holatiga bog'liq bo'lib, har bir usulning afzallik va kamchilik tomonlari, ularni qo'llash uchun zarur ma'lumotlarni to'plash imkoniyati, bitimlarni o'zaro solishtirish darajasi singari faktorlar e'tiborga olinadi.

Qo'llanmaning yuridik tabiati to'g'risida mulohaza qiladigan bo'lsak, IHTT to'g'risida konvensiyaning 5(b)-moddasiga ko'ra majburiy xususiyatga ega emas va IHTTga a'zo davlatlarga Qo'llanmaga rioya qilish tavsiya etiladi xolos.

SHunday bo'lsa-da, IHTTga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar tomonidan transfert narxlar bo'yicha qonunchilikni ishlab chiqishda Qo'llanmadan keng foydalanib kelinmoqda. SHuningdek transfert narxlar bo'yicha nizolarni ko'rib chiqish davomida ko'pgina mamlakatlar sudlari Qo'llanmadan foydalangan holda mamlakat transfert narxlar qonunchiligini sharhlashda foydalanmoqdalar.

Masalan, Irlandiya, Meksika, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Latviya, Peru va Ruminiya davlatlari o'zlarining transfert narxlar bo'yicha milliy qonunchiligida Qo'llanmadan mazkur qonunlarni sharhlash maqsadida foydalanish to'g'risida qoidalarni kiritganlar.

Transfert narxlarni tartibga solish bo'yicha AQSH tajribasi Transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan milliy qonunchiliklar tarixiga nazar solsak, bu sohada AQSH boshqa davlatlarga nisbatan ancha ilgarilab ketganiga guvoh bo'lamiz.

AQSH Ichki daromad kodeksi (Soliq kodeksi) 482-qismida transfert narxlarni tartibga soladigan qoidalar belgilangan. Mazkur 482-qism 1920-yillarda qabul qilingan. Unda soliq organlariga firmalararo tijorat munosabatlarida soliq to'lashdan qochish maqsadida past narxlar o'rnatilgan bo'lsa, soliq organlariga narxlarga tuzatish kiritish hamda ularni qayta hisoblab chiqish va soliq solish bo'yicha vakolatlar berilgan. Ushbu 482-qismda transfert narxlarni aniqlashning maxsus

usullari belgilab berilgan. Mazkur usullar Qo'llanmada belgilangan usullarga o'xshash. Chunki AQSHda transfert narxlar bo'yicha qonun hujjatlari avvalroq ishlab chiqilgan hamda undagi qoidalaridan 1960-yillarda Qo'llanmani ishlab chiqishda ham foydalanilgan.

AQSHning transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchiligi soliq to'lovchilarni o'zaro aloqador shaxslar bilan bitimlar tuzish davomida transfert narxlar shakllanishining oldini olish maqsadida Ichki daromad xizmati bilan Dastlabki narxlash bo'yicha kelishuv (Advance Pricing Agreement (APA)ga kirishishi mumkin. Mazkur kelishuvlarni amaliyotga kiritish ham AQSHda boshlangan va boshqa mamlakatlarning qonunchiligiga inkorporatsiya qilinishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Mazkur holda o'zaro aloqador kompaniyalar bilan bitimlar tuzayotgan kompaniya soliq organlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazilishi va hujjatlar tayyorlashning o'rniga soliq organi bilan kelishuv tuzadi. Bu esa kompaniyalar uchun ham, soliq xizmati organlari uchun ham kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish xarajatlarining oldini oladi.

Buyuk Britaniyaning amaldagi transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchiligi 2010 yilda qabul qilingan Soliq solish to'g'risida qonun (Taxation Act (International and Other Provisions, Xalqaro va boshqa qoidalar) bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun kompaniyalar tomonidan transfert narxlarni qo'llagan hollarda soliq xizmati organlari tomonidan transfert narxlar shakllanishini hisoblab chiqish usullari, narxlar bilan manipulyasiya qilish hollari mavjud bo'lgan hollarda narxlarga tuzatishlar kiritish asoslari va usullarini belgilab beradi. Buyuk Britaniya qonunchiligida ham kompaniyalar va soliq xizmati organlari o'rtasida Dastlabki narxlash bo'yicha kelishuv (Advance Pricing Agreement (APA)ga kirishishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi Rossiya Federatsiyasida transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchilikning qabul qilinganiga unchalik ko'p bo'lgani yo'q. 2011- yil 18- iyulda «Soliq solish maqsadida narxlarni aniqlash prinsiplarini

takomillashtirish sababli Rossiya Federatsiyasining ba'zi qonunlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida» qonun qabul qilingan. Mazkur qonun bilan Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksiga yangi – «V.1. O'zaro aloqador shaxslar. Narxlar va soliq solishning umumiy qoidalari. O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuziladigan bitimlar bo'yicha soliq nazorati. Narxlarni shakllantirish bo'yicha kelishuv» bo'lim kiritildi. Soliq kodeksiga kiritilgan mazkur qo'shimchalar Qo'llanmada keltirilgan tavsiyalarga mos keladi. Yangi kiritilgan qoidalar transfert narxlardan foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshirishning samaradorligini oshirishga bag'ishlangan. Kiritilgan o'zgartirishlar o'zaro aloqador shaxslar tushunchasini ancha kengaytirib berdi. O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuziladigan bitimlar nazorat qilinuvchi bitimlar deb tan olingan³. Qonunchilik, shuningdek, nazorat qilinuvchi bitimlarning boshqa turlarini ham ko'rsatib o'tadi. O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuzilgan bitimlardagi daromadlarni aniqlashning quyidagi usullarini qo'llash belgilab qo'yilgan:

- Solishtirma bozor narxlari usuli;
- Qayta sotish narxi usuli;
- Xarajatlar usuli;
- Solishtirma rentabellik usuli;
- Foydani taqsimlash usuli.

Transfert narxlar yuqoridagi usullarni qo'llagan holda aniqlanadi. Qonunchilikda ikki yoki undan ortiq usullarning kombinatsiyasidan foydalanishga ruxsat beriladi. Soliq kodeksi soliq to'lovchilarni soliq organlari talabiga binoan muayyan bitim bo'yicha hujjatlarni taqdim etish majburiyatini belgilab qo'ygan. Mazkur hujjatlar transfert narxlar qo'llanilishini aniqlash uchun foydalaniladi. Qonunchilik soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar turini belgilab beradi. SHuni aytib o'tish muhimki, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida transfert narxlarni nazorat qilish soliq tekshiruvining yangi turi hisoblanadi. O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida bitimlar tuzilishi bilan bog'liq soliqlarni hisoblab chiqish va

to'lashning to'raligini tekshirish o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida shunday bitimlar tuzilganda amalga oshiriladi. Agar o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida transfert narxlarni qo'llash soliqlar o'z vaqtida to'lanmasligiga olib kelsa, bu to'lanmagan soliqning 40% miqdorida, 30 000 rubldan kam bo'lmagan summada jarima to'lashga olib keladi. Agar soliq to'lovchi soliq organlariga mazkur narxlarning bozor narxlari ekanligini asoslovchi hujjatlarni taqdim etadigan bo'lsa yoki soliq organlari bilan Narxlarni shakllantirish to'g'risida bitim tuzgan bo'lsa, mazkur jarimani to'lashdan ozod qilinadi⁴. Rossiya Federatsiyasi soliq qonunchiligi ham soliq solish maqsadida narxlarni shakllantirish to'g'risida kelishuv tuzish imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyatdan faqatgina qonun bo'yicha yirik soliq to'lovchi maqomiga ega bo'lgan soliq to'lovchilar foydalanishi mumkin. Kelishuv soliq to'lovchi hamda davlat soliq organi o'rtasida tuziladi hamda unda kelishuv tuzilgan muddat davomida nazorat qilinuvchi bitimlar bo'yicha narxlarni belgilash va (yoki) narxlarni shakllantirishni aniqlash usullarini qo'llash tartibi nazarda tutiladi. Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi MDH davlatlari o'rtasida transfert narxlarni tartibga solish bo'yicha Qozog'iston Respublikasining tajribasi boshqa davlatlarnikiga nisbatan ko'proqdir. Qozog'iston «Transfert narxlar to'g'risida»gi qonunni 2008 yilda qabul qilgan. Bu mamlakatda transfert narxlarni belgilovchi qoidalar Soliq kodeksining bir qismi emas, balki alohida qonun hujjati sifatida qabul qilingan. Mazkur qonun transfert narxlarni nazorat qilishda nafaqat o'zaro aloqador shaxslar o'rtasidagi bitimlarda, balki boshqa turdagi bitimlar qo'llaniladigan transfert narxlar qo'llanilishini nazorat qiladi. Transfert narxlarning shakllanish bo'yicha nazorat xalqaro tijorat operatsiyalari bo'yicha bitimlar hamda Qozog'iston Respublikasi hududida tuziladigan va bevosita xalqaro tijorat operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bo'yicha amalga oshiriladi⁵. Qozog'iston Respublikasining transfert narxlar bo'yicha qonunchiligi Qo'llanmada keltirilgan tavsiyalarga mos keladi. Mazkur qonunning 12-moddasiga asosan bitimlardagi bozor narxlarini aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- 1) solishtirma nazorat qilinmaydigan narxlar usuli;
- 2) «xarajatlar plyus» usuli;
- 3) qayta sotish narxi usuli;
- 4) foydani taqsimlash usuli;

5) sof foyda usuli. Nazorat qilinuvchi bitimlar bo'yicha narxlarda bozor narxlaridan boshqacha narx qo'llaniladigan bo'lsa, vakolatli organlar bitim tomonlariga nisbatan tekshiruv o'tkazishlari mumkin va mazkur tekshiruv natijasiga ko'ra vakolatli organlar soliq solish obyekti va soliq solish bilan bog'liq obyektlarga tegishli tuzatishlar kiritadilar.

YUqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, transfert narxlarni shakllantirish orqali o'zaro aloqador shaxslar tomonidan soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning aniq tavsiyalari ishlab chiqilgan hamda mazkur tavsiyalarga tayangan holda ko'p davlatlarda, shuningdek MDH davlatlarida soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurashish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

3.5. Tarif smetasi. Narx (tarif)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlashi)

shart hollar. Narx (tarif)ni shakllantirish tartibi.

Iqtisodiyot nazariyasi predmetining yangicha talqini xo'jalik yuritishning bozor tizimi to'g'risidagi **marjinalizm** deb atalgan yangi bir ta'limotni yaratdi. U inglizcha so'zdan olingan bo'lib, so'nggi, qo'shilgan degan ma'noni beradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandalari (K.Menger, F.Vizer, Bem-Baverk va b.) bo'lib, ular tomonidan qo'shilgan tovar nafliligining, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga bo'lgan talab va uning narxi o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirini tahlil qilishda keng qo'llanildi.

Iqtisodiyot nazariyasining yangi yo'nalishi **neoklassik**, ya'ni yangi klassik deb nom oldi. Bu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri A.Marshall bo'lib, u iqtisodiy

jarayonning funksional bog‘lanishi va funksional nisbatlarini ishlab chiqishga harakat qildi, bozor muvozanatini va narxni aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaradi. Bu nazariy yo‘nalishning namoyandalaridan biri shveysariyalik iqtisodchi Leon Valras bo‘lib, u umumiy iqtisodiy muvozanat modelining nusxasini ishlab chiqishga harakat qildi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari tovar ishlab chiqarish sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi aloqalarni, ijtimoiy mehnatni taqsimlash va rag‘batlantirishni tartibga soluvchi obyektiv qiymat qonunining mavjudligini e‘tirof etadilar. **Qiymat qonuni tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash uning qiymati asosida amalga oshirishini, qiymatning o‘zi esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari orqali o‘lchanishini ifodalaydi.**

Qiymat qonuni individual mehnat sarfi ijtimoiy zarur mehnat sarfidan ozroq bo‘lgan ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantiradi. Bu bilan ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshirishga undaydi. Aks holda ular bozordan siqib chiqarilishlari yoki xonavayron bo‘lishlari mumkin.

Qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtiradi, mehnat va moddiy sarflarni kamaytirishni rag‘batlantiradi va mehnatning ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha taqsimlanishini tartibga solib turadi. Masalan, eng yuksak mehnat unumdorligiga erishgan ishlab chiqaruvchilar o‘z tovarlarini ijtimoiy zarur sarflaridan kamroq, lekin ayrim individual sarflaridan yuqori narxlarga sotishlari va yuqori foyda olishlari mumkin. Lekin ular ish faoliyatining muvaffaqiyati kafolatlangan deb bo‘lmaydi. Chunki ular ishlab chiqarishga fan-texnika yangiliklarini, samarali ishlab chiqarish usullarini o‘z vaqtida qo‘llab turmasalar, ma‘lum vaqtdan so‘ng o‘z ustunliklaridan ajralib qolishlari mumkin.

Qiymat qonunining tartibga solib turuvchi mexanizmi raqobat kurashi natijasida bozor narxlarining stixiyali ravishda tebranib turishidan, ularning ijtimoiy qiymatdan farq qilib turishidan iborat. Товар narxining ijtimoiy qiymatidan chetga chiqish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat deb hisoblanadi:

Talab = taklif bo'lgan holda narx = qiymat.

Talab > taklif bo'lgan holda narx > qiymat.

Talab < taklif bo'lgan holda narx < qiymat.

SHunday qilib, tovarlar narxining ular qiymatidan farq qilishi tovar ishlab chiqaruvchilarning xohishi bilan sodir bo'lmay, balki obyektiv qiymat qonunining kuchi ta'siri ostida bo'ladi.

Har qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi asosan to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: narx, talab, taklif, raqobat.

Narxlar nisbati o'zgarib turadi, shuning uchun narx, ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi zarurligini aniqlashda yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Talab va taklif hamda raqobatchilik muhitidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, narxlardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;
- tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- raqobat kurashining mavjudligi;
- davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi;
- korxona va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlar o'zgarishlariga moslashuvchanligi.

3.6. Monopol narx va narxlar diskriminatsiyasi.

O'zbekistonda monopol qimmat narx - tovar bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatlaridan to'laligicha foydalanmaslik tufayli qilgan asossiz xarajatlarini qoplash yoki tovar sifatini pasaytirish natijasida qo'shimcha foyda olish maqsadida tovarga belgilagan narxi.

Mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishlatmaslik – iqtisodiyotda, doimiy tarzda yuqori xarajatlar bilan ishlaydigan tarmoqlarda (mashinasozlik, og'ir sanoat,

tabiiy monopoliyalar va h.k) tabiiy holatdir. U doimo tovarni tannarxini oshiga sabab bo'ladi, demak shunga qarab narx ham oshadi. Narxlarni ushbu tarzda oshishini "asoslanmagan xarajatlar" deb atash qonunning mazmuniga zid keladi, chunki qonun iste'molchilar/xaridorlarga sezilarli zarar ko'rsatadigan haddan tashqari qimmat narxlarni va bozorlarni taqsimlash funkciyalarini taqiqlashga yo'naltirilgan.

AQSH esa monopol narxni quydagicha talqin etiladi. AQSH qonunchiligida "monopol narx"ga ta'rif berilmagan. Ba'zan "haddan tashqari qimmat narxlar" tushunchasidan foydalaniladi, lekin unga tushuntirish berilmagan. Umuman olganda, korxonalarni bozor ulushini yoki foydani (qimmat narxlar hisobiga) oshirish bilan bog'liq harakatlari Amerika sudlari tomonidan qachonki ular raqobatga zarar etkazmaslar qonunga qarshi emas deb topiladi. Haddan tashqari qimmat narxlar o'rnatilishi bo'yicha sud tomonidan aybdor qilish amaliyotda deyarli uchramaydi. Qimmat narxlar (demak foyda ham) bozor sharoitlarida doimiy hodisa hisoblanmaydi, sababi haddan tashqari qimmat foyda o'ziga ko'psonli raqobatlashuvchilarni jalb qiladi, natijada ular keyinchalik narxni pasaytirib yuborishlari mumkin. SHuning uchun, raqobat havfi mavjud bo'lgan taqdirda ham, monopolist uchun haddan ziyod qimmat narxlarni belgilash noto'g'ri bo'ladi, yuqori darajada foydani mavjud bo'lishi esa faqat raqobatni kuchaytiradi (jumladan, potensial) degan taxmin mavjud.

Evropa Ittifoqida esa "monopol narx" atama berilmagan, faqat "haddan ziyod qimmat narx" atamasidan foydalaniladi. Qonunning 82(a) moddasi "sotish va sotib olishni insofsiz narxlari"ni qo'llashni taqiqlaydi. Sotuvchilar tomonidan narx haddan ziyod qimmat qilib belgilanishi mumkin. Haddan ziyod qimmat narx – monopolistni o'z ustun mavqeini suiiste'mol qilishini eng aniq ko'rinishidir. Lekin, haddan tashqari yuqori narxlar ham raqobatlashadigan narxlar bo'lishi mumkin, chunki yuqori narx va yuqori foyda bozorga yangi raqobatchilarni kirishi uchun signal bo'lishi mumkin. Bozorda sezilarli to'siqlar mavjud bo'lganligi sababli ushbu holat sodir bo'lmasligi mumkin bo'lgan hollar, narxni tartibga solishdan foydalanish

mumkin (masalan, tabiiy monopoliyalar yoki ruxsat berilgan monopoliyalar sohalarida). Lekin narxni tartibga solish – erkin bozorni antitezasi va shuning uchun Komissiya “haddan tashqari qimmat narxlar”ga unchalik berilmasdan, hamda narx va foydaga aralashish o‘z-o‘zidan innovatsiyalar va investitsiyalarga to‘siq bo‘ladi degan fikrga qo‘shilgan. Ushbu borada sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan ishlarda javobgar tomonidan o‘rnatilgan haddan ziyod qimmat narxlarni noto‘g‘riligi isbot qilib berilmagan. Haddan ziyod qimmat narxlarni noto‘g‘riligi isbot qilib berish ayblovchi zimmasiga yuklatilgan.

Rossiyada esa monopol qimmat narxlarga berilgan ta’rifni to‘g‘ri va aniqligi shundaki, unda asosiy e’tibor narxlarni taqqoslanadigan bozorlarda emas, balki raqobatlashuvchi bozorlarda o‘lishiga qaratilgan:

Tovarni monopol qimmat narxi (moliyaviy xizmatlar bundan mustasno) -bu tovar bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan o‘rnatilgan va tovar bozoridagi raqobat sharoitlarida yil davomida sotilayotgan tovarlar sonig, xaridorlar (sotuvchilar) soniga va ularni tarkibiga, shuningdek bozorga kirish shartlariga bog‘liq holda yuzaga keladigan narxlardan taqqoslangan tovar narxidan qimmat narx.Ularni tovarni xaridorlari (sotuvchilar) bilan bitta guruhga kirmaydigan va ushbu taqqoslanadigan bozorda ustun mavqega ega bo‘lmagan, yohud ushbu tovarni ishlab chiqarishda va sotishda unga mos keladigan oqilona foyda va iqtisodiy tomondan asoslangan xarajatlar summasidan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rnatadilara.Tabiiy monopoliya subyekti tomonidan ushbu tovarga tabiiy monopoliya subyektlarini tartibga soluvchi organ tomonidan belgilangan tarif chegarasidagi tovar narxi monopol qimmat narx hisoblanmaydi.

YAponiyada ham “monopol narx” tushunchasiga ta’rif berilmagan, biroq uning ma’nosini “monopolistik vaziyat” (ustun mavqe) tushunchasidan olish mumkin:

tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsus tovarlar va xizmatlarni narxlarini oshirishi, oshish yoki kamayish ushbu davrda tovarlar yoki xizmatlarga yetkazib berish qiymatlarida yoki talab va taklifdagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan

holda, ma'lum davr mobaynida unchalik katta bo'lmagan, bundan tashqari, ushbu tadbirkor qayd etilgan vaqt mobaynida quyidagi talablardan birini ta'sirida bo'lgan: (a) tadbirkor Hukumat Qarori bilan biznesni ushbu sinfi uchun norma sifatida belgilangandan ortiq darajada foyda normasini oldi; yoki (b) tadbirkor faoliyat yuritayotgan biznes sohasi uchun norma sifatida ko'riladigan darajadan oshib ketgan tarzda xarajatlarni sotish va umumiy va ma'muriy xarajalar darajasida sarfladi.

Narxlarni tartibga solish organi va o'z vakolatlari doirasida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan narxlari davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli va strategik tovarlarga qat'iy belgilangan yoki cheklangan narxlarni (tariflarni) belgilash;

ijtimoiy ahamiyatli va strategik hisoblangan, ularga narxlar (tariflar) davlat tomonidan tartibga solinadigan, monopolist korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlarga narxlarni (tariflarni) yoki ularning cheklangan darajalarini, tartibga soluvchi koeffitsientni, ustama yoki cheklangan rentabellikni deklaratsiya qilish (keyingi o'rinlarda tovarlarga narxlarni (tariflarni) deklaratsiya qilish deb ataladi);

tabiiy monopoliyalar subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlarga narxlarni tartibga solish organi tomonidan narxlarni (tariflarni) yoki ularning cheklangan darajalarini tartibga soluvchi koeffitsientni, ustama yoki cheklangan rentabellikni tasdiqlash (keyingi o'rinlarda narxlarni (tariflarni) tasdiqlash deb ataladi);

narxlarni tartibga solish organi bilan kelishish yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq alohida tovarlarga qat'iy belgilangan yoki cheklangan narxlarni (tariflarni) va ustamalarni belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq narxlarni (tariflarni) davlat tomonidan tartibga solishning boshqa usullari ham qo'llanilishi mumkin.

Qolgan tovarlarga shartnomaviy (erkin) narxlar (tariflar) qo'llaniladi.

3.7. Adolatli foyda olishni ta'minlaydigan narx. Iste'molchi ortiqchaligining narx va ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi

Adolatli foyda olishni ta'minlaydigan narx yoki qisqa qilib aytganda “monopol arzon narx” tushunchasi O'zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida”gi Qonunida monopol arzon narxlarga keltirilgan ta'rif tavsifi va maqsadlari bo'yicha batamom turlicha bo'lgan monopson arzon narxlar va yirtqich narxlarni o'z ichiga oladi:

monopol arzon narx — tovar bozorida xaridor sifatida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektning sotib olayotgan tovariga qo'shimcha foyda olish yoki qilingan asossiz xarajatlarni sotuvchi hisobiga qoplash maqsadida belgilaydigan narxi...

Ta'rifning birinchi qismi arzon narxlarga tegishli bo'lib, ular ular monopsoniya holatida ya'ni – korxona o'z xaridlari asosida (sotib oluvchi korxona) ustun mavqega ega bo'lgan holatda o'rnatiladi.

Ta'rifning ikkinchi qismi yirtqich narxlarga taalluqli bo'lib, unda ustun mavqega ega bo'lgan korxona bozordan raqiblarini chiqarib yuborish yoki raqiblarini bozorga kiritmaslik maqsadida o'rnatadi:

... yoxud tovar bozorida sotuvchi sifatida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektning sotayotgan tovariga ongli ravishda shu tovarni sotishdan zarar ko'radigan darajada belgilaydigan narxi bo'lib, uni belgilash natijasida bozordan raqobatchilarni siqib chiqarish yo'li bilan raqobat cheklanadi yoki cheklanishi mumkin;

Agar birinchi holatda mavqeni suiiste'mol qilish obyekti bo'lib bir-biriga vertikal tarzda bog'liq bo'lgan sotuvchilar hisoblansalar, ikkinchi holatda mavqeni suiiste'mol qilish obyekti bo'lib o'zaro raqobatlashuvchilar hisoblanadi.

AQSHda “monopol arzon narxlar tushunchasi”, ya’ni monopsoniya (yoki ustun mavqega ega bo’lgan korxona – sotib oluvchi) holatida o’rnatiladigan narxlar ta’rifi berilmagan. Kamdan-kam ko’rib chiqiladigan “yirtqich narxlar” tushunchasi mavjud.

Evropa Ittifoqida esa “insofsiz arzon xarid narxlari” (monopson narxlar) Rim SHartnomasini 82(a) moddasiga to’g’ri keladi, lekin EH tarixida ushbu narxlar bo’yicha ayblovchi bitta ham hukm chiqarilmagan. Tarixda faqatgina bitta ish ko’rib chiqilgan. Biroq, katta supermarketlarni (ulgurji savdo bilan shug’ullanuvchilar va qishloq xo’jalik mahsulotlarini etishtiruvchilarni narxlarni pasaytirishga majbur qiladigan) bozor hukmronligidan norozi bo’lish holatlarini ko’payishi oqibatida “insofsiz arzon xarid narxlari” bo’yicha ishlar soni ko’payishi ehtimoli ham yo’q emas.

Rossiyada faqat “yirtqich narxlarga” ta’rif berilgan:

Tovarni monopol arzon narxi (moliyaviy xizmatlardan tashqari) ushbu tovarni ishlab chiqarish va sotishda iqtisodiy asoslangan xarajatlar va oqilona foyda summasidan sezilarli kam bo’lgan, yoki raqobat sharoitida taqqoslanadigan tovar bozorida tovarni sotib oluvchilar (sotuvchilar) bilan bitta shaxslar guruhiga kirmaydigan va ushbu taqqoslanadigan bozorda ustun mavqega ega bo’lmagan shartlarda belgilanadigan narxlardan sezilarli darajalarda past bo’lgan, tovar bozorida ustun mavqega ega bo’lgan xo’jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarga o’rnatilgan narx. Sotuvchi tomonidan o’rnatilgan, raqobatchilarni bozordan siqib chiqarish oqibatida raqobatni cheklashga olib kelmasa, tovarni monopol arzon narxi hisoblanadi. Tabiiy monopoliya subyektlarini tabiiy monopoliyalarni tartibga solish organi tomonidan belgilangan tariflar darajalaridja o’rnatgan narxi, tovarni monopol arzon narxi hisoblanmaydi.

Ta’rifni muvaffaqiyatli berilgani shundaki, u ushbu narxlarni qo’llamaslik bo’yicha “raqobatni cheklash” mezonlarini eslatadi:

...Agar sotuvchi tomonidan monopol arzon narxni o’rnatilishi tegishli tovar bozoridan raqiblarini siqib chiqarilishiga olib kelmasa ...

Yaponiyada bu tushunchaga ta'rif berilmagan.

Germaniyada ham bu tushunchaga ta'rif berilmagan. Doktrina ustun mavqeni suiiste'mol qilishni quyidagi turlari doirasida ishlatiladi:

... haq to'lashni qulay bo'lmagan shartlarini yoki boshqa shartlarni talab qiladi, shu vaqtni o'zida ushbu korxona taqqoslanayotgan bozorlardagi o'xshash xaridorlardan talab qiladi, agar ushbu tarzda tabaqalashtirishga obyektiv isbot mavjud bo'lmasa.

Buyuk Britaniya "monopol arzon narxlar" tushunchasi, ya'ni monopsoniya (yoki ustun mavqega ega bo'lgan korxona – sotib oluvchi) holatida o'rnatiladigan narxlar ta'rif berilmagan. "Yirtqich narxlar" tushunchasini quyidagicha aniqlanadigan ta'rif mavjud:

Korxonani keyinchalik haddan ziyodqimmat narxlarni o'rnatib raqibini bozordan chiqarib tashlash maqsadida vatinchalik zarar ko'rib ishlashga qaratilgan strategik xatti-harakati.

Huquqni qo'llash amaliyoti Evropa Adolat Sudining tajribasiga binoan asoslangan narxlarni uchta darajasi mavjud:

- o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlardan past narx – yirtqich narxlarni shakllanishi belgilarini mavjudligi
- o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlardan yuqori, lekin o'rtacha umumiy xarajatlardan past – raqibni chiqarib tashlash niyati isbotlangan taqdirda yirtqich narxlar mavjud bo'ladi
- narx o'rtacha yalpi xarajatlardan yuqori bo'ladi – yirtqich narxlar bo'lmaydi.

Vengriyada esa "ustun mavqeni suiiste'mol qilish" shakli sifatida insofsiz qimmat va arzon narxlar mavjud degan tushuncha bor, biroq ushbu tushunchaga qonunda ta'rif berilmagan.

4-bob. MONOPOL HOKIMIYAT VA UNING BOZOR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

4.1. Monopoliyalarni o'rganishning uslubiy asoslari

Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish. Erkinlashtirish – bu xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. U butun iqtisodiyotga tatbiq etilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda davlat monopoliyasini bekor qilish;
- resurslarning markazlashgan holdagi taqsimotini tugatish;
- narxlarning asosan talab va taklif nisbati asosida shakllantirilishiga o'tish;
- ichki va tashqi bozorlarda transaksion bitimlar ustidan davlat nazoratini pasaytirish.

2. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish. Bu yo'nalish quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

- barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligi uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi;
- bozorga xorijiy raqobatchilar ham kirishi uchun imkon berilishi;
- kichik biznesning rivojlanishiga halaqit beruvchi ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlash va tarmoqqa kirishidagi to'siqlarni pasaytirish;
- tabiiy monopoliyalarning narx va mahsulot sotish siyosatini tartibga solish va boshqalar.

3. Institutsional o'zgarishlar. Mazkur o'zgarishlar quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish;

- bozor infratuzilmasini (tijorat banklari, tovar va fond birjalari, investitsiya fondlari va h.k.) shakllantirish;

- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tizimini yaratish;

- bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo'jalik qonunchiligini qabul qilish va boshqalar.

4. Tarkibiy o'zgarishlar. Tarkibiy o'zgarishlar birinchi navbatda iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishdan asosiy maqsad – ichki va tashqi bozorlarda to'lovga qodir talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarilishini rivojlantirishdan iborat.

5. Makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish. Aslini olganda, bu jarayon tizimiy islohotlar qatoriga kirmaydi, chunki u bozor iqtisodiyoti barqaror amal qilayotgan mamlakatlarda ham tez-tez o'tkazilib turadi. Bu yo'nalishning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi eng avvalo va kuchli ravishda moliyaviy sohada, ayniqsa yuqori inflyasiya shaklida namoyon bo'ladi. Inflyasiyaning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bozor munosabatlarining me'yorda qaror topishiga to'sqinlik qiladi, shuning uchun uni bartaraf etish o'tish davri iqtisodiyoti uchun o'ta muhim hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish, ijobiy foiz stavkasini ta'minlash va boshqalar kiradi.

6. Aholini ijtimoiy himoyalashning bozor xo'jaligiga mos bo'lgan tizimini shakllantirish. Bu tizim aholining nisbatan muhtoj qatlamini aniq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga o'tishga yo'naltirilgan.

Bozor tizimining ko'rsatib o'tilgan asosiy unsurlarini shakllanishining yakuniga etishi o'tish davri tugaganligidan darak beradi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy bo'lib, u mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarning mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari – po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'mol tovarlari – avtomobillar, kir yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining narx siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o'rganish, cheksiz ko'p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

4.2. Mukammal raqobatlashgan bozorlar va ularda faoliyat yuritayotgan firmalarning xatti-harakati. Raqobatlashmagan bozorlar.

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat pirovardida iste'molchilarni o'ziga jalb etish uchun kurashni ham anglatadi.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi.


Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lishga harakat qiladilar. Arzon va sifatli tovarni sotib olish uchun kurashadilar.

SHunday qilib, raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Bu munosabatlarni qiymatning mehnat va naflilik nazariyalarini sintez qilish usulini davom ettirgan holda quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin (8-rasm).

CHizmadan ko‘rinadiki, ishlab chiqaruvchilar sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko‘proq foyda olish maqsadida raqobatlashadilar. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida ular orasida tovarlarni sotish doiralarini kengaytirish, qulay bozorlar, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalariga erishish uchun kurash boradi.

O‘z navbatida xaridorlar, ya’ni iste’molchilar sarflagan har bir so‘m xarajati evaziga ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon, sifatli tovar va xizmatlarga ega bo‘lishga harakat qiladi.



5-rasm. Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo‘lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Chunki har bir mulk egasining o‘z manfaati bo‘lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu manfaatga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi subyektlar manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lishini aniq tavsiflaydi. Raqobat mavjud bo‘lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining ma’lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti subyektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxona (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.

Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan ne'matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalarining texnika bilan ta'minlanish va mehnat unumdorligi darajalari turlicha bo'lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining ahamiyatli qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat kapitallarning foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu erda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi

oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat obyektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga «baravarlashtiradi».

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratib ko'rsatiladi. Bular sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste'molchilarining soni ham juda ko'p bo'ladi.

Sof raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat o'rnatil olmaydi yoki nazorat sezilarli darajada bo'ladi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Sof raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

4.3. Monopoliyalar va ularning turlari. Monopol bozor shartlari

Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib bormoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud bo'lishiga ko'ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;

2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;

3) turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;

4) monopolistik birlashmalar ichidagi raqobat.

SHuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda g'irrom va halol raqobatlashuv usullari ham ajratib ko'rsatiladi. Raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur etkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g'irrom raqobat deb yuritiladi. G'irrom raqobat orqali firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Banklarni, moddiy resurs ta'minotchilarini kredit va materiallar yetkazib berishdan voz kechishga majburlash, etakchi mutaxassislarni og'dirib olish, narxni keskin pasaytirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Monopoliya tushunchasiga turli o'quv adabiyotlarida turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, ba'zi o'rinlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq huquqi»¹⁷ sifatida qaralsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba'zi adabiyotlarda – yakka) hukmronlik holati»¹⁸ deb ta'riflanadi. Bu ta'riflardagi monopoliyaning «mutlaq huquq» yoki «har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta'riflash o'rinli deb hisoblaymiz: monopoliya – monopol yuqori

¹⁷ Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 121-б.

¹⁸ Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005, 191-б.; Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Т.: «Ўқитувчи», 2002, 246-б.

narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari¹⁹.

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monoc» - yagona, bitta va «poleo» - cotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. **Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi.**

Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba'zi bir korxonalarning o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. SHu bilan birga raqobat amaldagi kapitalarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. SHunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to'planishi – bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab

¹⁹ Бу мазмундаги таърифлар куйидаги манбаларда ҳам берилган: Шишкин А.Ф. Экономическая теория: Учебное пособие для вузов. 2-е изд. Кн.1. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1996, 597-б.; Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, 208-б.; Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, 499-б.

chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.

Ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal to'planishi farqlanadi.

Ishlab chiqarishning gorizontal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i doirasidagi korxona va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to'planishining asosiy shakli sifatida maydonga tushgan edi.

Ishlab chiqarishning vertikal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha o'zaro bog'liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to'planishidir. U ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida keng rivojlandi.

4.4. Monopoliyalarni turkumlash mezonlari: vujudga kelish sababi va tavsifi, bozorni qamrab olish darajasi.

Ishlab chiqarishning to'planishi o'z rivojining ma'lum darajasida monopoliyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning to'planishi hamda monopoliyalarning paydo bo'lishi o'rtasidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarning hukmron mavqega ega bo'lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

2) yirik korxonalar o'rtasidagi raqobat juda qaltis bo'lib, ular uchun katta miqyosdagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. SHunga ko'ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishi lozim bo'ladi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning to'planishidan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) davlatning proteksionistik bojxona siyosati. U chet eldagi raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo'qotib, monopoliyalarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi;

2) banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o'sishiga imkon beradi.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko'ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O'zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. SHuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi.

Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (SHarg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga «O'zDEUavto» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxona mamlakatimizdagi engil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeiga ega bo'ladi.

2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo'lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo'lgan mulkdorlar va xo'jalik tashkilotlari kiradi. SHuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o'ziga xos texnologiyani qo'llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo'lmaydigan ba'zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. SHu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) patent tizimi – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san’at asarlari, ijro san’ati fonogrammalari, ko’rsatuvlar, efir to’lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o’z mahsulotlarini ma’lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko’paytirishga ruxsat berish imkonini ta’minlaydi;

3) tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro’yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo’yicha paydo bo’lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

4.5. Monopolistik rakobat. Oligopoliya. Monopol hokimiyat.

Monopol hokimiyat manbalari

Sun’iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun’iy monopoliya o’z manfaatlari yo’lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o’zgartiradi, ya’ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo’l qo’ymaslik uchun turli to’siqlar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarining bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qoʻllaydi;

- oʻz faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Cunʼiy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium, konsern kabi aniq shakllarda namoyon boʻladi.

Kartel – bitta sanoat tarmogʻidagi bir necha korxonalarning uyushmasi boʻlib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga oʻz mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, yaʼni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning boʻlib olinishi va h.k. boʻyicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining oʻzida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkil etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni taʼminlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs koʻrinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qoʻyish).

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil boʻlgan, koʻp tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini oʻz ichiga oluvchi birlashma. Odatda bunday birlashma maʼlum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur boʻlgan turli soha korxona va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar faoliyati

ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun'iy monopoliyalarning sanab o'tilgan shakllari orasida konsernlar keng tarqalgan.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning ijobiy tomoni asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi.

Birinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, u ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi.

Ikkinchidan, monopolist bo'lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi. Chunki, uncha yirik bo'lmagan raqobatlashuvchi korxonalarning odatda moliyaviy jihatdan imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ular ishlab chiqarishga yangiliklarni tatbiq etish orqali kelgusidagi daromadlarni oshirishdan ko'ra, ko'proq joriy daromadga e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari, yangi g'oyalar raqiblar tomonidan juda tez o'zlashtirib olinadi va, buning oqibatida, bu g'oyalarni amalga oshirish xarajatlarini bir tomon qilgani holda, uning samarasidan barcha foydalanadi. Yirik monopolistik firmalarda moliyaviy imkoniyatlar keng bo'lib, innovatsiyadan olingan foyda ularning mualliflariga tegishi aniq kafolatlanadi.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jixatlarni ko'rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib,

ishsizlik va inflyasiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo'shimcha urinishlarsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlari to'g'risida qayg'urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lgan korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, jamiyatga o'z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o'zlarining kamsituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlari mumkin.

Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. SHunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi.

Odatda AQSHdagi monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890- yilda qabul qilingan). Bu qonun savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo'lga olish, narxlar bo'yicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

2. Kleyton qonuni (1914- yilda qabul qilingan). Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo'yicha kamsitish, ma'lum ko'rinishdagi birlashib ketishlar, o'zaro bog'lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi.

3. Robinson-Petmen qonuni (1936- yilda qabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo'yicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950- yilda Kleyton qonuniga Seller-Kefover tuzatishi kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to'siq qo'ygan bo'lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

4.6. Monopolistik raqobat. Monopoliyaga qarshi boshqaruvning obyekti va subyekti

Raqobatlashgan bozorda juda ko'p sotuvchilar va xaridorlar qatnashadi, shu sababli ulardan birortasi ham tovar narxiga ta'sir qila olmaydi, narxni bozorning o'zi talab va taklifga ko'ra shakllantiradi. Sotuvchilar va xaridorlar bu narxni qabul qiladilar va shu narxga ko'ra qancha mahsulot sotish kerak yoki qancha mahsulot sotib olish kerakligi bo'yicha qaror qabul qiladilar. Sof monopoliya raqobatlashgan bozorning aksi bo'lib, bu erda bitta sotuvchi va ko'plab xaridorlar qatnashadi. Sof monopolistning raqobatchisi yo'q.

Raqobatlashgan bozorda juda ko‘p sotuvchilar va xaridorlar qatnashadi, shu sababli ulardan birortasi ham tovar narxiga ta’sir qila olmaydi, narxni bozorning o‘zi talab va taklifga ko‘ra shakllantiradi. Sotuvchilar va xaridorlar bu narxni qabul qiladilar va shu narxga ko‘ra qancha mahsulot sotish kerak yoki qancha mahsulot sotib olish kerakligi bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Sof monopoliya raqobatlashgan bozorning aksi bo‘lib, bu erda bitta sotuvchi va ko‘plab xaridorlar qatnashadi. Sof monopolistning raqobatchisi yo‘q.

Sof monopoliya mahsulot o‘rnini bosadigan boshqa mahsulot bo‘lmagan hududlarda vujudga keladi. Umuman olganda jahon va milliy bozorlarda bitta mahsulotni bitta sotuvchi tomonidan sotilishi kamdan-kam uchraydi. Sof monopoliya ko‘proq mahalliy bozorlarga xos bo‘ladi. Masalan, tumandagi yagona kitob magazini, yagona telefon stansiyasi, yagona tish doktori, yagona jarrox yoki bo‘lmasa mahalliy kommunal xo‘jaligi xizmati. YUqorida keltirilgan subyektlar bozor sharoitida narxga ta’sir qilish uchun real hokimiyatga ega.

Sof monopoliyaning vujudga kelishiga ta’sir qiluvchi yana bir omil bu - tarmoqqa kirish to‘siqlarining kuchliligidir. Biror mahsulotni sotishdan tushadigan iqtisodiy foyda yuqori bo‘lsa, bu raqobatlashgan bozor sharoitida boshqa firmalarni ham shu bozorga kirib kelishi uchun signal bo‘lar edi. Agar monopol firma iqtisodiy foyda ola boshlasa, bu boshqa firmalarni ham ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishga undaydi. Demak sof monopoliyani saqlab qolish uchun, boshqa raqobatlashmoqchi bo‘lgan firmalar uchun maxsus to‘siqlar bo‘lishini taqazo qiladi. Tarmoqqa kirish to‘siqlari - bu monopol firma bozoriga boshqa sotuvchilarni kirib kelishini to‘xtatuvchi cheklanishlar.

Tarmoqqa kirish to‘siqlaridan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

1. Davlat tomonidan berilgan maxsus huquq. Masalan mahalliy hokimiyatlarda aholiga transport xizmati ko‘rsatish, pochta xizmati ko‘rsatish, kommunal xizmati ko‘rsatish va aloqa xizmati ko‘rsatish bo‘yicha monopol huquqlar berib, rasmiy to‘siqlar yaratadi.

2. Patentlar va mualliflik huquqi, yangi texnologiya yaratganlar uchun patent va mualliflik huquqi berilishi, ularga ushbu yangilikni sotishda, undan foydalanish uchun litsenziya berishda monopol huquq beriladi. Lekin bunday huquq ma'lum muddatgacha kuchga ega bo'ladi. AQSH da patent qonuniga ko'ra ixtirochi o'z ixtirosiga 17 yil egalik qiladi.

3. Biror bir ishlab chiqarish resursi taklifiga egalik qilish. Masalan, Amerikaning «De Birs» kompaniyasi jahonda sotiladigan, qayta ishlanmagan olmosning 85 foizini nazorat qilgani uchun, olmos bozorida monopol hokimiyatga ega. YUqoridagilardan tashqari insonning noyob qobiliyati va bilimi ham monopolni vujudga keltiradi.

Ishlab chiqarish masshtabi kengayishining musbat samarasi ham tarmoqqa kirish uchun to'siq bo'lishi mumkin. Masalan, avtomobil zavodi ma'lum miqdorda avtomobil ishlab chiqarishga erishgandagina, uning umumiy xarajatlari minimal bo'ladi.

Monopol hokimiyat. Firma monopol hokimiyatga ega bo'ladi, qachonki u o'zining sotadigan tovari narxiga ta'sir qila olsa, ya'ni o'zgartira olsa. Monopol hokimiyat darajasi ushbu tovar o'rnini bosuvchi tovarning mavjudligi va tovarning bozordagi ulushi bilan belgilanadi. Monopol hokimiyatga ega bo'lish uchun firmaning sof monopolist bo'lishi shart emas. Firma mahsulotiga bo'lgan talab chizig'i raqobatlashgan bozordagiday garizontal bo'lmasdan, pastga yotiq bo'lishi kifoyadir. Agar talab chizig'i pastga yotiq bo'lsa, firma taklif hajmini oshirib yoki kamaytirib, mahsulot narxini o'zgartirishi mumkin.

Umumun olganda monopolist narxni nazorat qilishidan yutuqqa ega bo'ladi. Monopolistning taklifi raqobatlashgan bozor taklifiga ko'ra kam bo'ladi, tovar narxi esa, raqobatlashgan narxga nisbatan yuqori bo'ladi (monopol narx chekli xarajatdan yuqori).

Tovarlarni monopol narxda sotilishi jamiyat xarajatini ko'paytiradi, aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nima uchun deganda, ushbu tovarni sotib

oluvchilar ko‘proq pul sarflaydi, shu tovarni sotib oluvchilar soni ham kamayadi. SHuning uchun ham monopoliyaga qarshi qonun, bozorlarni monopoliyaga aylantirishga yo‘l qo‘ymaydi.

Monopolist mahsulotiga talab. Raqobatlashgan bozorda firma maksimal foyda oladi, agar u chekli daromad chekli xarajatga teng holatni ta’minlaydigan hajmda mahsulot ishlab chiqarsa, bunday mahsulot hajmi optimal bo‘ladi. Monopolist ham shu optimal ishlab chiqarish shartiga amal qilishi kerak bo‘ladi. Sof monopolist tovariga bo‘lgan talab ham bozor talabi hisoblanadi. Monopolist o‘z tovari narxini oshirsa unga talab kamayadi va aksincha, monopolist tovar narxini tushirsa unga talab ortadi.

5-bob. STRATEGIK TOVARLAR SAVDOSINI TARTIBGA SOLISH

5.1. Strategik tovarlar savdosining tashkiliy-uslubiy asoslari.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsad va vazifalari hamda shulardan kelib chiqqan holda so'zsiz amalga oshirilishi shart bo'lgan strategik rejalari amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning 2017- yil 7- fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni bilan tasdiqlangan taraqqiyotimizning kelgusi besh yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berildi. Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi – 1) davlat va jamiyat qurilishini tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari; 2) qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishningustuvor yo'nalishlari; 3) iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari; 4) ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari; 5) xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustivor yo'nalishlar kabi aniq, hayotiy islohotlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilab berildi. Bu vazifalar mamlakatimizda islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatni har tomonlama uyg'un va jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, barcha sohani modernizatsiya qilish va erkinlashtirishdek buyuk maqsadlarga qaratilgan. Bugun jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashev sharoitida raqobat tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday murakkab vaziyat davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqib, amalga oshirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va liberallashtirish borasida eng dolzarb masalalar echimi borasida aniq vazifalarning belgilab berilgani bu borada hal

qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur dasturilamal hujjatning uchinchi yo‘nalishi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga qaratilgan bo‘lib, u 5 qismdan iboratdir. Bunda quyidagi tarmoq va sohalarda kelgusi besh yilda amalga oshiriladigan vazifalar haqida so‘z boradi: 1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sinh sur‘atlarini saqlab qolish; 2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish; 3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish; 4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish; 5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish. Iqtisodiyot sohasida belgilangan bu strategik vazifalar bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish natijasida YAIMning hajmining turini ko‘paytirish va sifatini oshirish bilan bog‘liqdir.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, mamlakatimiz aholisining talab va extiyojlarini o‘zimizning resurs va imkoniyatlarimizni real baholagan holda, aniq strategik maqsadni – ya’ni, 2030- yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamida 2 barobarga oshirish vazifasi qo‘yilmoqda. Bu masalaning o‘ta muhimligini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev “2030- yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod ko‘paytirishga erishishimiz darkor”²⁰, deb ta’kidladilar. Prezidentning 2017- yil 7- fevralda qabul qilingan Farmonida “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da mamlakatimizda ishlab

²⁰ Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлиси тўғрисида ахборот // Халқ сўзи, 2016 йил 15 декабрь.

chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini jadal rivojlantirish, YAIM hajmini ko'paytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni har tomonlama rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida muhim o'rin egallaydi.

5.2. Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etish

Respublikamizda o'tkazilayotgan tub islohotlardan bosh maqsad bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat qurish va uni rivojlantirishdir. SHuning uchun ham mamlakatimizda 2017-2021 yillar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida qayta ishlash korxonalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi. Har bir xo'jalik subyekti sifati jihatdan bozor talabiga to'liq javob beradigan, raqobatbardosh mahsulotlarni imkoniyati boricha kam xarajat evaziga ishlab chiqarish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida korxonalar iqtisodiyotining barqarorlashishi va o'sishini, shuningdek, kelgusida yanada samaraliroq faoliyat ko'rsatishini taminlaydi. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga, korxonaning foydasi va rentabelligini oshirish, oqibat natijada ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish imkoniyatini beradi. To'qimachilik korxonalari xomashyo sarfini eng ko'p talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlari qatoriga kiradi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxida xomashyo va asosiy materiallarning ulushi 90% gacha tashkil etilishi mumkin. Moddiy sarf xarajatlarni muntazam ravishda qisqartirib borish mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish hamda korxonaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatini beradi. Tahlilda haqiqatda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining tannarxida xomashyoga ketgan xarajatlarning reja ko'rsatkichidan farqi aniqlanadi. Bu farq mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xomashyo sarfi miqdori

hamda qiymatining o'zgarishi hisobiga yuzaga keladi. Xomashyo sarfi hamda qiymatining o'zgarishi turli omillar hisobiga yuzaga keladi. Tahlil davomida ushbu omillarning ta'siri ham o'rganilishi kerak. SHunday qilib biz to'qimachilik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda xomashyo va asosiy materiallar omilining ta'sirini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olishimiz kerak: - mahsulot ishlab chiqarish tannarxida xomashyo va asosiy materiallarga ketgan xarajatlarning reja ko'rsatkichidan farqlanishi; - xomashyo sarfi me'yori va narxi omillarining xomashyo va asosiy materiallarga ketgan sarf-xarajatlarning reja ko'rsatkichidan farqlanishiga ta'sirini aniqlash: - ba'zi omillarning xomashyo sarfi me'yoriga ta'sirini aniqlash; - xomashyo va asosiy materiallar qiymatining reja ko'rsatkichlaridan farq qilish sabablarini aniqlash; - mahsulot ishlab chiqarish tannarxida xomashyo va asosiy materiallarga ketgan sarf-xarajatlarni qisqartirish ichki imkoniyatlarini aniqlash.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish omillarini tahlil qilar ekanmiz, mahsulot birligiga ketadigan xomashyo sarfi ulushini ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Xomashyo sarfini 2 guruhga bo'lish mumkin: mahsulotga ketgan xomashyo hamda chiqindilarga ketgan xomashyo unumli foydalanilgan xomashyoni umumiy xomashyo sarfiga nisbati xomashyo va materiallardan foydalanish ko'effitsienti deyiladi. CHiqindilar esa qayta ishlatilsa bo'ladigan va qayta ishlatib bo'lmaydigan chiqindilarga bo'linadi (1-jadval).

1-jadval

“Истиклол дизайн маркази” корхонасида хом ашё ва материалларга кетган харажатлар

Кўрсаткичлар	Ҳақиқатда ишлаб чиқарилган маҳсулот ассортименти бўйича ҳажми, минг сўм		
	Режа	Ҳисобот	Фарқи (-, +)
Хом ашё ва асосий материаллар	685939,2	686300,6	+361,4
Қайта ишлатиладиган чиқиндилар	2057	2058,9	+1,9
Чиқиндилар қийматини ҳисобга олган ҳолда хом ашё ва материаллар	683882,2	684241,7	+359,5

Xomashyo va asosiy materiallardan foydalanish koeffitsienti qanchalik yuqori bo'lsa, chiqindilar miqdori shunchalik kam bo'ladi. SHu sababdan haqiqatda yuzaga kelgan chiqindilarning xarakteri va reja ko'rsatkichidan farq qilish darajasiga qarab miqdoriy omillarning mahsulot ishlab chiqarish tannarxidagi xomashyo va materiallar qiymatiga ta'sirini aniqlash mumkin.

Demak, qayta ishlatsa bo'ladigan chiqindilar miqdori o'zgarishini haqiqatda sarflangan xomashyo va asosiy materiallarni reja ko'rsatkichidan farqlanishini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar qatoriga kiritish mumkin. Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va assortimenti bo'yicha hisoblangan haqiqatdagi xomashyo va materiallar qiymatining rejadan farqlanishi ayrim mahsulot turlari bo'yicha ko'rilgan zararlarning algebraik yig'indisi ko'rinishida hisoblanadi.

SHu bilan bir qatorda ma'lum bir xomashyo turidan turli mahsulotlarni ishlab chiqarishda ham iqtisod qilishi mumkin. Bir xil sharoitda ma'lum hajmdagi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xomashyo sarfi miqdori hisobot davrida rejaga nisbatan xomashyo va asosiy materiallar ulushining o'zgarishiga, ya'ni xomashyo sarfi meyori va narxi omiliga bog'liqdir. Xomashyo sarfi meyori deganda, mahsulot birligiga sarflanadigan xomashyo miqdori, narxi deganda esa mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan xomashyoning qiymati tushuniladi.

5.3. Mahsulotlarning monopol turlarini mavsumiy talabni hisobga olgan holda birja savdolariga qo'yish tartibi

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish va isloh qilish hozirgi kunning asosiy vazifasi bo'lib, shu yo'l orqali davlatimiz iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy vazifalarni hal etishi oson kechadi. Bunda respublikaga chet el investitsiyasini jalb qilish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mustaxkamlash, tadbirkorlikka erkinlik berish va zarur shart-sharoit yaratish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olindi. Aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat mahalliy

boshqaruv organlarining roli ahamiyatli bo'lgani holda ular kichik biznes korxonalarini rivojlantirishda ham e'tibordan chetda qolmasliklari lozim. Mahalliy boshqaruv organlari tadbirkorlarni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish binolari, ombor, shuningdek savdo joylari bilan ta'minlash muammolarini hal etishda etakchilikni o'z zimmasiga olishi lozim. Chunki o'z xududida kichik biznesni jadal rivojlanishidan ko'proq mahalliy boshqaruv organlari manfaatdordirlar va o'z hududlarida joylashgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy salohiyatini, bandlik darajasi to'g'risida operativ va kengroq ma'lumotga ega bo'ladilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ma'lum hududda samarali ishlashi shu hududda joylashgan bog'cha, maktabga ijtimoiy yordam ko'rsatish va boshqa xayriyalar natijasida shu hududda yashovchi aholining yashash darajasi oshadi, ijtimoiy ziddiyatlarning oldi olinadi. Hozirgi vaqtda faoliyat olib borayotgan turli o'quv kurslari, jumladan, pishiriqlar pishirish, tikuvchilik, sartaroshlik singari kurslarning tashkil etilishi xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Bunday kurslarning O'zbekistonning turli viloyatlarida faoliyat olib borishlari natijasida yana qo'shimcha ish joylari tashkil etilmoqda. Demak, kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiy islohotlarning barqarorligini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti eski, samarasiz xo'jalik yuritish mexanizmi o'rniga bozor munosabatlarini shakllantirishga karatilgan maxsus chora-tadbirlar tizimi raqobat muhitini yaratadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari tamoyillariga amal qilgan holda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq davrni oluvchi jarayon hisoblanadi. Sog'lom raqobatni rivojlantirishda aksariyat hollarda o'tish davri iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan quyidagi muammolarni bartaraf etish choratadbirlar tizimi ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- tarmoqlar tuzilishidagi nomuvofiqliklar va ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarning etishmasligi;

- soha va tarmoqlar miqyosidagi raqobatda adolat mezonlarining buzilishi;
- mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati borasida suiste'mollik holatlariga yo'l qo'yilishi;
- narx belgilashda monopol mavqening saqlanib qolishi, xususan iqtisodiyotning agrar va industrial sektorida narxlarning keskin farqlanishi;
- mamlakatga tovarlarning kontrabanda yo'li bilan kirib kelishi;
- faoliyat turini va daromadlarni yashirish holatlarining mavjudligi;
- sog'lom pul muomalasi uchun hozirgi sharoitdan kelib chiqadigan bozor infratuzilmasining etarli emasligi;
- milliy valyutani xorij valyutalariga erkin almashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- subyektlarning bozor iqtisodiyoti qoidalarini chuqur tushunib etmasliklari;
- iqtisodiy jinoyatchilik holatlarining mavjudligi.

Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida raqobat bozor xo'jaligining ajralmas qismi sifatida tabiiy ravishda paydo bo'lgan bo'lsa, o'nlab yillar davomida ma'muriy buyruqbozlik tartibi hukmron bo'lgan, raqobatni va bozorning boshqa belgilarini tan olmagan mamlakatlarda bu jarayon elementlarini "joriy qilish" va hatto majburan qabul qilishga to'g'ri keladi.

SHu munosabat bilan iqtisodiyotning o'tish davri holatida raqobat munosabatlarini rivojlantirishning mavjud real imkoniyatlarini hisobga olish muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, raqobatsiz iqtisodiyotning samarali harakat qila olmasligiga ishonch shakllandi. Bu ishonch ta'sirida yaqin vaqtlargacha xukmron mavqega ega bo'lgan rejali-buyruqbozlik tizimining g'oyaviy qarashlari emirilmoqda. Ikkinchidan, respublikada raqobatni davlat gomonidan rag'batlantirish va tartibga solishning keng rejali harakatlari shakllanmoqda. Uchinchidan, raqobat hali keng joriy qilinmasada, bozor iqtisodiyotiga o'tishda muhim qadamlar qo'yilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida raqobatni shakllantirishning asosiy tamoyillari qatorida, eng birinchi navbatda, bozor munosabatlarining qaror

toptirilishini ta'kidlash mumkin. SHunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi. Raqobatning to'laqonli amal qilishi iqtisodiy jarayonlarning erkinligini taqozo etadi.

Iqtisodiyotdagi faoliyat va jarayonlarning erkinligining har qanday ko'rinishdagi cheklanishi o'z navbatida raqobatning ham cheklanishi holatlariga olib keladi.

5.4. Iste'molchilar o'rtasida limitlarni taqsimlash tugatilishi.

Moddiy-texnika resurslarining strategik turlari

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatuvchilar va iste'molchilar munosabatlarning erkin raqobat ostida yo'lga qo'yilishi, shuningdek, bozor subyektlari faoliyatini har bir imkoniyat va resurslardan samarali foydalanish hisobiga tashkil etilishiga erishish bugungi kunning bugungi eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'rsatib berilganidek, "Jahon bozorlarida raqobatning keskin tus olishi shuni ko'rsatmoqdaki, endilikda korxonalar o'z maqsad va vazifalarini belgilashda nafaqat mahsulotga bo'lgan oddiy talab va taklifdan kelib chiqishlari kerak, balki birinchi navbatda, salohiyatli iste'molchilarining ehtiyojlari, hohish-istaklari hamda maqsadlarini doimo diqqat markazda tutib, ularni chuqur o'rganishlari va shu sharoitga mos keladigan strategiyani amalga oshirishlari muhim bo'lib qolmoqda". 1 Ulgurji savdo faqat ishlab chiqarish va iste'mol bozori o'rtasidagi tayyor mahsulot taqsimotidan iborat. Ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ta'minot bo'g'inidan xomashyo va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarishga yetkazib berish, ishlab chiqarishdan esa tayyor mahsulotlarni iste'mol bozorlariga taqsimlashni ta'minlaydi. Bu ulgurji savdoning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy bo'g'in ekanligini isbotlaydi. Mamlakatimizda ulgurji savdoning rivojlanish holatini tahlil qilsak, 2017- yilda ulgurji savdo tovar aylanmasi 45 410,0 mlrd. so'mni yoki 2016- yilga

nisbatan 101,1 foizni tashkil qildi. Umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 2016- yilga nisbatan o'sishiga qaramasdan, yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 10,4 foizga kamayganligini kuzatildi, bu 13 630,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2. O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari ulgurji savdoning mazmunmohiyati va funksiyalariga yangi o'ziga xos tamoyillar asosida yondoshishga, ularga qo'yiladigan talab, mezon va me'yorlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu masala bo'yicha tovar-moddiy boyliklar harakati kanalini loyihalash, yaratish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanuvchi nazariyotchi va amaliyotchilarda turli yondoshuvlar shakllangan. Ma'lumki, takror ishlab chiqarish davriy jarayon bo'lib, har bir davr ta'minotdan boshlanadi va tayyor mahsulotni taqsimlash yoki sotish bilan yakunlanadi. YA'ni har bir ishlab chiqarish davrida xomashyo va moddiy resurslar tayyor mahsulotga aylantiriladi va sotiladi. Davrlarning takrorlanishi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Har bir ishlab chiqarish davridagi tovar moddiy resurslar harakatining quyidagi qat'iy belgilangan tartib asosida tashkil qilinishini tavsiya qilamiz:

1) xomashyo va boshqa moddiy resurslarni, ularning manbalaridan korxona ta'minot omborlariga yetkazib berish va vaqtinchalik saqlash, ya'ni iste'mol (ishlab chiqarish iste'moli) vaqtigacha saqlash.

2) Xomashyo va moddiy resurslarni umumzavod ta'minot omborlaridan ichki ishlab chiqarish omborlari, ulardan ishlab chiqarish sexlari, uchastkalari va ish o'rinlaridagi dastgohlarga yetkazib berish. Bu yerda xomashyo va moddiy resurslardan detallar, butlovchi qism va yarimtayyor mahsulotlar tayyorlanadi.

3) Sexlar, uchastkalar va ish o'rinlarida ishlab chiqarilgan detallar, butlovchi qism va yarim tayyor mahsulotlar korxonaning yig'uv sexiga yetkazib beriladi. Bu yerda ulardan tayyor mahsulot yig'iladi va u korxonaning tayyor mahsulot omboriga yetkazib beriladi.

4) Tayyor mahsulot omboridagi mahsulot bozor talabi (buyurtma)ga asosan iste'molchilar o'rtasida taqsimlanib, realizatsiya qilinadi.

Moddiy resurslar harakatini tashkil qilish va boshqarishning bunday jarayonida ulgurji savdoning funksiyalari "ta'minot-ishlab chiqarish-iste'mol" zanjiri doirasida amal qiladi. Bu holda ulgurji savdo funksiyalari ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash va o'z vaqtida iste'mol bozorida talabni qondirish kabi vazifalarni bajaradi. Ulgurji savdoning "ta'minot-ishlab chiqarish-taqsimot" zanjiridagi funksiyalar mamlakat hududlarini kompleks tarzda mutunosib rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiya sharoitida ulgurji savdoning funksional tizimlari rivojiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- moddiy resurslar harakatining optimal kanallarini loyihalash va shakllantirish;
- moddiy resurslar harakati uchun sarflanadigan vaqt va mablag'ni tejash;
- bozor munosabatlarning o'zgarishi va murakkablashuvi, ta'minot va taqsimot jarayonlari sifat ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talabning oshishi;
- moslashuvchan ishlab chiqarish va yetkazib berish tizimining yaratilishi.

Ulgurji savdo taqsimot funksiyasini amalga oshirishi uchun zamonaviy bozor infratuzilmasining ko'plab, turli-tuman tuzilmalaridan foydalanadi. Ular yetkazib berish kanalining bo'g'inlari hisoblanib, ular o'rtasida murakkab aloqalar tizimi shakllanadi.

Yetkazib berishda bunday murakkab aloqalarning vujudga kelishi moddiy resurslar harakatining mavjud modellarini modernizatsiya va modifikatsiya qilishni taqozo etadi. Moddiy resurslar harakati modellarini modifikatsiyalash, ular oqimini tashkil etish va boshqarish yo'nalishlarini optimallashtirish uchun taqsimot markazlarini optimal joylashtirish, moddiy resurslarni yetkazib berishda ulgurji savdoning funksiyalari va moddiy resurslar hamda buyurtmalarning optimal miqdorini aniqlash va ularni tashishning optimal yo'nalishlarini ishlab chiqish orqali amalga oshirish lozim.

5.5. Foydalanishning asosiy yo‘nalishlari. Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning monopol turlarini tovar-xomashyo birjasi orqali sotish ro‘yxatini yanada kengaytirish va hajmlarini ko‘paytirish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan monopoliyaga qarshi boshqaruvni davlat tomonidan tartibga solish borasidagi iqtisodiy islohotlarning muhim jihatlari – bu bozor iqtisodiyotining eng asosiy elementlaridan hisoblangan raqobatni rivojlantirish, monopol va ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlari va xizmatlarining sifati hamda kafolatini kuchaytirish, ularning narxlari (tariflari) muqobilligini ta‘minlash, iste‘molchilarning xarid talabini qondirish orqali makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirishga qaratilganligidan iboratdir. Bu esa, davlat tomonidan monopol mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tarkibiy o‘zgartirish va sog‘lom raqobat muhitini yaratishga yo‘naltirilgan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi va albatta qonunchilikni takomillashtirishni taqazo etadi.

Monopoliyaga qarshi organning vakolatlari, axborot olish hamda monopoliyaga qarshi organga axborot taqdim etish, shuningdek mazkur qonun talablari buzilganligi uchun jarimalar solish hamda etkazilgan zararining o‘rnini qoplash, raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqida ishlar qo‘zg‘atish va ularni ko‘rib chiqish, monopoliyaga qarshi organning qarori va ko‘rsatmasini ijro etish tartiblari qonunning muhim jihatlari hisoblanadi. —Raqobat to‘g‘risidagi qonunning hayotga tatbiq etilishining o‘ziga xos ahamiyatiga shundaki, yangi qonun tovar va moliya bozorlarida raqobatga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini oshirish hamda qonunchilikdagi mavjud kamchilik, nomutanosibliklarni, shuningdek, monopoliyaga qarshi tartibga solishdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. SHu bilan birga, raqobatni rivojlantirish va himoya qilish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

subyektlari uchun qulay biznes muhitini yaratish, har xil byurokratik aralashuvlarni bartaraf etish, erkin bozor iqtisodiyoti talablari va shartlari bajarilishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, erkin bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining yanada samarali ishlashiga, iste'molchilar va ushbu bozorning boshqa ishtirokchilarining huquqiy himoyasini kuchaytirishga, tovar va moliya bozorlaridagi munosabatlarning yanada liberallashtirishiga, tovar va moliya bozorlarida raqobatga oid ta'sirchan davlat siyosatini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Ayni paytda tovar va moliya bozorlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqeini belgilovchi Nizom, tovar va moliya bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestrini yuritish tartibi, tovar va moliya bozorlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarining aksiyalarini (ulushlarini) va boshqa mulkiy huquqlarini olishda oldindan monopoliyaga qarshi organning roziligini olish tartibi, raqobatni cheklovchi bitim va xarakatlarni ko'rib chiqish tartibi hamda tovarning monopol yuqori va monopol past narxlarini aniqlash tartibi kabi me'yoriy hujjatlar tayyorlandi. Mamlakatimizda davlat tomonidan monopoliyaga qarshi boshqaruvni tartibga solish va takomillashtirish nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki institutsional rivojlanish xususiyatiga ham ega. Institutsional rivojlanish esa, bozor iqtisodiyotiga o'tish va unga mos keluvchi bozor iqtisodiyotining eng asosiy elementlaridan hisoblangan raqobatni rivojlantirish, raqobat munosabatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. SHuningdek, yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish, ularning samarali faoliyatini ta'minlashda mazkur subyektlar faoliyatining tarkibi va chegaralarini belgilab beradigan, ularning boshqa subyektlar bilan munosabatlariga aniqlik kiritadigan, raqobat siyosatini amalga oshiradigan institutsional asoslarni shakllantirish hamda bozor talablariga muvofiq takomillashtirishning ahamiyati katta.

5.6. Strategik va monopol mahsulotlar, xomashyo va materiallar hajmlarni bir maromda birja va kimoshdi savdolariga majburiy tartibda qo'yish.

Har bir davlatda raqobat qonunchiligi ijrosini ta'minlash hamda monopoliyaga qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi o'zining maxsus vakolatli organlari faoliyat yuritadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, monopoliyani tartibga solish va unga qarshi kurashish uchun nafaqat mustahkam qonunchilik bazasi, balki aholining, ishbilarmon doiralarning va davlat organlarining ochiqlik va shaffoflik, mustaqillik asosida faoliyat olib boradigan monopoliyaga qarshi kurashuvchi organga bo'lgan ishonchi ham lozim bo'ladi. Turli raqobatga qarshi harakatlarning jamiyatga keltiradigan zararlarini salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ko'pgina davlatlarda monopoliyaga qarshi qonunchilikni rioya etishni nazorat qilish uchun turli maxsus organlar orqali amalga oshiradi. Respublikamizda raqobat muhiti mavjud bo'lgan iqtisodiyotda tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining erkin bo'lishi, ularning istalgan tovarlar bozorida faoliyat ko'rsatishlari va ushbu munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli organ O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hisoblanadi (keyingi o'rinlarda "Davlat raqobat qo'mitasi" deb yuritiladi).

Monopoliyaga qarshi bozorda yetkazib beruvchilar o'rtasidagi gorizontal munosabatlar uchun bozor kuchi va ustunlik raqobat to'g'risidagi qonun uchun deyarli bir-birini o'rnini bosuvchi hisoblanadi, lekin qonunni amalga oshirish standartlari (andozalari) o'zgaruvchan bo'ladi.

Yirik yetkazib beruvchilar ustun bo'lgan joyda ularni raqobatlashuvchilar ustidan nazorati yetkazib beruvchini tovari ustidan bozor hukmronligini amalga oshirishda foydalanish mumkin, bunda huquqiy aralash holatlari bozor hukmronligi konsepsiyasiga yohud ustunlikka asoslanishi mumkin. O'rganilgan itisodiyotlar bozor

hukmronligini amalga oshirish, yohud o'z ustun mavqeini suiiste'mol qilish kabi xatti-harakatlarni man qiladi.

Hozirgi kunda Davlat tomonidan samarali raqobat siyosatini amalga oshirilishi natijasida respublika iqtisodiyotida monopollashgan tovar va xizmatlar bozorlari soni sezilarli darajada qisqardi. Erishilgan natijalar tovar va xizmatlar bozorlarida erkin raqobatlashadigan va oxiroqibatda sog'lom raqobat muhitini shakllantiradigan yangi xo'jalik va tadbirkorlik subyektlarini paydo bo'lishida namoyon bo'lmoqda. Monopol korxonalarining soni sezilarli qisqargan, ayniqsa iste'mol bozorida. So'nggi 27 yil mobaynida olib borilgan monopoliyaga qarshi siyosat natijasida, monopolist korxonalar soni 828 tadan 178 tagacha kamaydi. Monopol mahsulotlar soni esa 5186 tadan 157 tagacha qisqardi. Monopol mahsulot va xizmatlarning respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 20 foizgacha pasaydi. Avval yirik monopoliya hisoblangan sohalarda, ya'ni qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida ichimliklar, sharbatlar, non va non mahsulotlari, go'sht-sut mahsulotlari, qandolatchilik mahsulotlari, alohida olingan nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida mebel, gilam va gilam mahsulotlari va shuningdek telekommunikatsiya xizmatlari bozorlarida sog'lom raqobat muhiti shakllantirildi. Shu bois, monopoliyaga qarshi siyosatni tartibga solish iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishi sifatida tan olindi. Bu borada ularning faoliyat yuritish samaradorligi nuqtai nazaridan asosiy omillar sifatida mulkchilik, javobgarlik, raqobat, monopoliyaga qarshi boshqaruv va shartnoma institutlari katta rol o'ynaydi.

6-bob. BIRJA VA TENDER SAVDOLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH

6.1. Tanlov (tender) yoki birja savdolarining xususiyatlari

Savdolar tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan bo'lib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishda muxim ahamiyat kasb etadi hamda tovar (xizmat, ish) va hom-ashyo bozorining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash, ko'rsatilgan sohalarda qonunbuzarliklarni oldini olish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Tanlov savdolarining bir turi hisoblanadi (kim-oshdi savdolari bilan bir qatorda). Bunda tanlov tashkilotchisi tomonidan oldindan tuzilgan tanlov komissiyasining hulosasiga ko'ra eng yaxshi taklifni bergan (kimoshdi savdolarida eng yaxshi narx bergan) ishtirokchi tanlov g'olibi bo'ladi. Ayrim chet el huquqiy amaliyotida tanlov savdolari tender deb yuritiladi. Tender (ingl. Tender – taklif) deganda tovarlar yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ko'zda tutuvchi takliflarni hujjatlarda oldindan belgilangan shartlar va muddatlarda raqobat, odillik va samaradorlik tamoyillari asosida tanlash tushuniladi³⁰. Bunda shartnoma tender g'olibi, ya'ni talablarga mos keluvchi va eng yaxshi shartlar ko'rsatgan ishtirokchi bilan tuziladi.



6-rasm. Tender turlari

«Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qaroriga asosan 2000- yil 1- dekabrdan boshlab davlat byudjeti, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar hamda donor mamlakatlar, xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlar bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati tomonidan tuzilgan shartnomalar doirasida beriladigan xorijiy grantlar mablag'lari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan va bitta kontrakt bo'yicha qiymati 100 ming AQSH dollariga teng miqdordan ortiq bo'lgan import qilinadigan va mamlakatimizda ishlabchiqarilgan xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar tender asosida xarid qilinadi. Shuningdek, xorijiy yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan tender kontraktlari bo'yicha yuklar tashilishini ta'minlaydigan transport-ekspeditorlik kompaniyalari tender asosida tanlanadi.

6.2. Birja faoliyatining davlat tomonidan tartibga solish.

Birja faoliyati mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va hom-ashyo bazasining katta hajmlardagi savdolarini qonuniy yo'llar orqali va zamonaviy usullarda amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan yagona markazlashtirilgan organ – O'zbekiston tovar hom-ashyo birjasi (keingi matnda "O'zRTHB" deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki ushbu faoliyat yildan yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 2004-2014 yillar davomida O'zRTHBda tuzilgan bitimlar hajmi 20 barobarga oshdi (2004 yildagi 450 mlrd. so'mdan 2014- yildagi 8,9 trln. so'mgacha). Oxirgi yillarda birja bozorining O'zRTHB aylanmasi hajmidagi ulushi 80 foizga etdi. Birja savdolari orqali sotiladigan tovarlar nomenklaturasi 14 ta pozitsiyaga oshdi³¹ va bu o'sish ko'rsatkichlari kelajakda ham saqlanib kolishi

kutilmoqda. Birja savdolari birjada uning a'zolarining barchasiga ushbu savdolarida bir vaqtda ishtirok etish imkoniyati berilgan holda, markazlashtirilgan tarzda elektron shaklda o'tkaziladi. O'z o'rnida birja savdosi qoidalarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak: birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizom; birja a'zolarining birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi; tovarlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi; birja bitimlarining turlari; birja savdolarida muomalada bo'ladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) tavsifi; tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish tartibi; birja savdolarini o'tkazish tartibi; birja bitimlarini va birja savdolari natijalarini ro'yxatga olish hamda rasmiylashtirish tartibi; kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi; birja tovarlarini kotirovkalash (ularning narxini belgilash) tartibi; birjada narxlarning shakllanish jarayoni ustidan nazorat qilish tartibi; birja savdolari to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibi; birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar; birjada nizolarni hal etish tartibi. Birja savdosi qoidalarida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

Dastlabki ko'zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko'rsatkichlari o'zgarmasligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan, birja savdolariga qo'yilgan muayyan turdagi tovarlar ro'yxati birjaning kotirovkalash varag'idir. Tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi, qimmatli qog'ozlar bundan mustasno: tovar ishlab chiqaruvchining yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish; tovarning Qonun talablariga muvofiqligini tekshirish; tovarning likvidligini baholash; tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga etkazish. Qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish (birja listingi) quyidagi tartibtaomillarni o'z ichiga oladi: qimmatli qog'ozlar emitentining o'z qimmatli qog'ozlarini birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini

ko‘rib chiqish; qimmatli qog‘ozlar emitentining moliyaviy holatini baholash; qimmatli qog‘ozlarning likvidligini baholash; qimmatli qog‘ozlarni birjaning kotirovkalash varag‘iga kiritish va uni birja a‘zolariga etkazish. Birjaning kotirovkalash varag‘iga kiritilgan tovar birja savdolariga qo‘yilgan hisoblanadi. CHet el valyutasi va davlat qimmatli qog‘ozlari birjaning kotirovkalash varag‘iga tovarni birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berishni amalga oshirish va birja listingi tartib-taomilisiz kiritiladi.

6.3. Birja faoliyatining asosiy prinsiplari.

Birja savdolari birja a‘zolari tomonidan berilgan buyurtmalar asosida, birja savdosi qoidalariga muvofiq o‘tkaziladi. Birja tovarini kotirovkalash birja savdolarida birja tovarining birja narxini belgilash maqsadida avtomatik rejimda, birja savdosi qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Birja savdolari yakunlariga ko‘ra olingan qimmatli qog‘ozlarning, davlat qimmatli qog‘ozlari bundan mustasno, birja narxi mazkur qimmatli qog‘ozlarning birja savdolari sanasidagi bozor narxidir.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2011- yil 7- fevraldagi PQ-1475 sonli “ Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida “ gi qaroriga ko‘ra 2011- yilning 1- apreldan mazkur tizimni takomillashtirishga qaratilgan choratadbirlarni yanada mustahkamlash hamda Davlat xaridlari jarayonining shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha yangi tizimning joriy etilganligi va uning samaralari haqida atroflicha to‘xtalib o‘tildi. Yangi tizim O‘zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasi tomonidan elektron auksion savdolari tartibida tashkil etilib, Elektron savdolar O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab internet orqali , real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Bu o‘z navbatida bir qator qulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Avvalo, elektron auksion tizimining ahamiyatli jihati byudjet tashkilotlari uchun sotuvchi qidirishga hojat yo‘q. Birja saytiga e‘lon berishning o‘zi kifoya va natijada ularga yetkazib beruvchilar o‘z xizmatlarini taklif etadilar. Mazkur sohada 2011-2014 yillarda amalga oshirilgan

ishlarni tahlil etadigan bo'lsak, kichik biznes subyektlarining Davlat xaridlari bo'yicha elektron savdolaridagi ishtiroki 30 mingtani tashkil etganligi yoki besh barobarga oshganligini ko'rish mumkin. Ularning tovarlar ta'minotidagi ulushi 99 foizga ko'paygan. Davlat xaridlari bo'yicha elektron savdolarida dastlabki yillarda har bir talab uchun ikkitadan taklif berilgan bo'lsa, bugunga kelib ularning soni oltitadan oshdi. Prezident qarorini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tashkil qilingan bo'lib, uning ishchi organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tayinlandi. Bu borada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015- yil 26- martdagi 69- sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida "O'zRTXB" AJda 2015 yilning 1 iyunidan birjaning yangi elektron savdo tizimi- " Davlat xaridlarida elektron katalog " ishga tushirildi. Qisqa vaqt ichida mazkur tizim o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Joriy yilning iyun-oktyabr oylarida elektron katalog bo'yicha 36,5 mlrd. so'mlik bitimlar imzolanib, 9,3 mlrd. so'm byudjet mablag'lari iqtisod qilindi. Bu borada kichik biznes subyektlarining ulushi 100 foizni tashkil etdi 32 . Birja savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan: birja savdolarini o'tkazish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan harakatlar, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno; birja savdolari ishtirokchilarining kelishib olingan harakatlari natijasida joriy birja narxlarining keskin ko'tarilishiga yoki qat'iy belgilanishiga olib keladigan harakatlar; birja savdolarida talabning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yolg'on ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq harakatlar taqiqlanadi.

6.4. Birja savdolarida tovarlarning narxi.

Birja bitimi deganda birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnoma tushuniladi. Birjada birja bitimlari, shu jumladan: birja tovarlarining ularni

kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (spot); birja tovarlarining ularni kechiktirib yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (forvardlar); birja tovarini yetkazib berishni (yetkazib berish fyuchersi) yoki birja tovarini yetkazib bermagan holda bitim taraflari o'rtasida pul hisob-kitoblari amalga oshirilishini (hisob-kitob fyuchersi) nazarda tutadigan, kelgusida bajarish majburiyati bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (fyucherslar); birja tovarlarini yoki hosila moliyaviy vositalarni (derivativlarni) kelgusida sotib olish yoxud sotish huquqi bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (opsionlar); valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan valyuta kursi bo'yicha amalga oshirish sharti bilan tuziladigan valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar (valyuta svoplari); qimmatli qog'ozlarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan narx bo'yicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari (repo) tuzilishi mumkin. Birja bitimi to'g'risidagi axborot (birja tovarining nomi, soni, kotirovkasi (narxi), birja bitimi tuzilgan sana bundan mustasno) uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin emas. Birja bitimi to'g'risidagi axborot sudlarga taqdim etiladi, surishtiruv va tergov organlariga esa, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda taqdim etiladi.

Birja bitimini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlarga doir birja bitimlarini yozma ravishda rasmiylashtirish talab qilinmaydi. Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi. Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi: kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish; agar birja bitimi shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, birja tovarlarini yetkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish; pul mablag'larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash; birja savdosi qoidalariga va birja bitimlari bo'yicha

majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish. Birja bankrot deb topilgan taqdirda, birja a'zolarining va ular mijozlarining birja hisobvaraqlaridagi mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi hamda birja a'zolariga va ularning mijozlariga ularning birja bitimi bo'yicha majburiyatlari bajarilganidan keyin qaytarilishi lozim. Birjaning majburiyatlari bo'yicha undiruvni birja a'zolarining va ular mijozlarining mol-mulkiga qaratishga yo'l qo'yilmaydi. Birja a'zolarining mablag'lari etarli bo'lmagan taqdirda, birja bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondining pulli va qaytarib berish asosida birja a'zolariga taqdim etiladigan mablag'lari orqali ta'minlanishi mumkin.

6.5. Birja savdolarini o'tkazish tartibi. Tanlov (tender) va birja savdolarini o'tkazish hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat yo'llari.

Birja savdolarini o'tkazish tartibi me'yoriy huquqiy hujjatlar hamda mazkur masala amaldagi qonunchilikning bitimlarga oid umumiy qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi. Quyidagi hollarda bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin, hususan Bitim qonunchilikda belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bunda nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabni qonunchilikda ko'rsatilgan shaxslar qo'yishlari mumkin. Bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha (shu jumladan olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart.

Tanlov jaraenlariga monopoliyaga qarshi talablarning tatbiq etilishi muxim ahamiyat kas etib savdolarining qonunda belgilangan prinsiplarga rioya etilgan holda o'tkazilishiga Yagona (umumiy) iqtisodiy manfaatga ega bo'lgan shaxslar yig'indisi

shaxslar guruhi deb e'tirof etilib, ularga tatbiqan quyidagi bir yoki bir nechta shart bajariladi: ikki va undan ortiq yuridik shaxsning biri bevosita yoki bilvosita, shuningdek o'zga shaxslardan olgan vakolatlariga muvofiq boshqa yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizidan ortig'iga egalik qiladi; ikki va undan ortiq yuridik shaxsda ayni bir jismoniy shaxs, shuningdek uning eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchilari), bolalari (farzandlikka olingan bolalari), tug'ishgan va o'gay aka-ukalari hamda opa-singillari (bundan buyon matnda yaqin qarindoshlari deb yuritiladi) ushbu yuridik shaxslardagi ishtiroki tufayli yoxud boshqa shaxslardan olgan vakolatlariga muvofiq mazkur yuridik shaxslardan har birining ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizidan ortig'iga ega bo'ladi; ikki va undan ortiq yuridik shaxsda ayni bir yuridik shaxs ushbu yuridik shaxslarda o'zining ishtiroki tufayli yoxud boshqa shaxslardan olgan vakolatlariga muvofiq mazkur yuridik shaxslardan har birining ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizidan ortig'iga ega bo'ladi; ikki va undan ortiq yuridik shaxsning ijro etuvchi organi tarkibiga ayni bir jismoniy shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari kiradi; ikki va undan ortiq yuridik shaxsning kollegial ijro etuvchi organi va (yoki) kuzatuv kengashi son tarkibining ellik foizidan ortig'ini ayni bir jismoniy shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari tashkil etadi; ikki va undan ortiq yuridik shaxslardan biri qonun hujjatlariga yoki ushbu yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomalarga asosan ushbu yuridik shaxslarga ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishga haqli bo'ladi; ikki va undan ortiq yuridik shaxsda ayni bir jismoniy shaxs yoki ayni bir yuridik shaxs qonun hujjatlariga va ushbu yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga yoxud ular bilan tuzilgan shartnomalarga asosan ularga ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishga haqli bo'ladi.

6.6. Tanlov (tender) yoki birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablarni buzganlik uchun jarimalar

Tanlov (tender) savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan, quyidagilar taqiqlanadi:

savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish; savdolarining tashkilotchilari va (yoki) buyurtmachilari tomonidan savdolar ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish; xo'jalik yurituvchi subyektlardan savdolarida qatnashish uchun hujjatlarni qabul qilishni asossiz ravishda rad etish; savdolar ishtirokchilarini asossiz ravishda chetlashtirish; savdolarining bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarida qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berish, shu jumladan, axborotdan foydalanish orqali imtiyozli shartsharoitlar yaratib berish, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno; tovarning aniq ishlab chiqaruvchisini ko'rsatish, bundan tovarlarning mos kelmasligi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar mustasno. Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan monopoliyaga qarshi talablarning buzilishi tanlov (tender) savdolarining qarorlarini va shu savdolar natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi. Monopoliyaga qarshi organning oldindan berilgan roziligisiz sodir etilgan, tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqei yuzaga kelishiga yoki kuchayishiga va (yoki) raqobatning cheklanishiga olib keladigan harakatlar (tuzilgan bitimlar) sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi № 456 "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan tender savdolarini tender komissiyasi tomonidan o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi holatlari belgilangan.

Bunda agar tushgan tender takliflarining birortasi tender hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmagan taqdirda, tender o'tkaziladi, ammo salbiy natijaga ega deb hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda sudlar faoliyatida tanlovlarni o'tkazilmagan deb topish bo'yicha aniq normalar ko'rsatilmagan bo'lib ushbu masaladagi ishlarni ko'rib chiqishda tender savdolarini o'tkazishga doir normativ-huquqiy hujjatlardagi savdolarga qo'yilgan talablar, takliflarni tanlash shartlari va mezonlari, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib qaror chiqariladi.

Hususan, Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi 456-sonli, 2013- yil 11- iyundagi 166-sonli, 2015- yil 14- sentyabrdagi 264-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013- yil 5- apreldagi 1948-sonli qarorlarida tanlovlar, tender savdolari va elektron savdolari tashkil etishga doir qoida va tartiblar o‘z aksini topgan.

7-bob. MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

7.1. 30.03. 2018 yildagi “Tovar bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMning 249- sonli qarorida belgilangan vazifalar

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 30martdagi “Tovar bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tovar bozorida sotiladigan tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) monopol yuqori va monopol past narxlarini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom hamda narxlari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli tovarlar (xizmatlar) va ularning strategik turlari ro‘yxati tasdiqlandi.

Nizomda tovarning monopol yuqori va monopol past narxlarini aniqlash uchun ma’lumotlarni olish va tahlil qilish qoidalari, tovarga monopol yuqori va monopol past narxni aniqlash, monopol yuqori va monopol past narxni qo‘llash aniqlanganda chora-tadbirlar ko‘rish tartibi bayon qilingan.

Nizomda ko‘rsatilishicha, tovarning monopol yuqori narxi, agar ushbu narx bunday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo‘lgan xarajatlar hamda foyda summasidan yuqori bo‘lsa, shuningdek, asossiz xarajatlarning o‘rnini qoplashga yoki tovarning sifatini pasaytirish natijasida qo‘shimcha foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan belgilanadigan tovarning narxi hisoblanadi.

Agar tovar narxi birja savdolari yakunlari bo‘yicha shakllangan bo‘lsa, bunday narx monopol yuqori narx deb e’tirof etilmaydi.

Tovar bozorida sotuvchi yoki sotib oluvchi sifatida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarning tannarxidan past darajada va ushbu tovarni sotishdan zarar keltiradigan darajada belgilanganidan, natijada raqobatning cheklanishiga olib keladigan narx tovarning monopol past narxi sanaladi.

Nizomga ilova sifatida tovar bozorida sotiladigan mahsulotlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopol yuqori va monopol past narxlarni belgilash tartibining sxemasi keltirilgan bo'lib, u bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestriga kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar har chorakda chorak birinchi oyining 10-kuniga qadar tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestriga kiritilgan tovarlarga qo'llanilgan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni monopoliyaga qarshi organga taqdim etadilar.

Ikkinchi bosqichda monopoliyaga qarshi organ tovarlarning narxlari o'zgarganligi aniqlangan yoki monopol yuqori yoxud monopol past narxlarni qo'llash holati to'g'risida murojaatlar tushgan taqdirda o'rganish maqsadida davlat organlariga, xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga zarur ma'lumotlarni olish uchun yozma so'rov jo'natadi.

Bu ish tovarlarga qo'llanilgan narxlar to'g'risida ma'lumot olingandan yoki jismoniy va yuridik shaxslardan murojaat tushgandan so'ng uch kun mobaynida bajariladi.

Uchinchi bosqichda davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa tashkilotlar so'rov olingan kundan boshlab o'n besh kun mobaynida so'ralgan ma'lumotlarni monopoliyaga qarshi organga taqdim etadi.

To'rtinchi bosqichda monopoliyaga qarshi organ olingan axborot va ma'lumotlar asosida monopol yuqori va monopol past narxlarni aniqlash yuzasidan ma'lumotlar olingan kundan e'tiboran bir oyda o'rganadi.

Qaror bilan tasdiqlangan narxlari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli tovarlar (xizmatlar) va ularning strategik turlari ro'yxatidan "O'zdonmahsulot" AJ korxonalari ishlab chiqaradigan un, qolipli non (chakana narx), paxta mahsuloti (paxta xomashyosi, paxta tolasi, texnik urug'lik), etil spirti, don (xarid narxlari), shuningdek, qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashish,

shahar yo'lovchi tashish transportida yo'lovchilarni tashish (yo'nalishli va liniyalik taksilardan tashqari) kabi jami 21 ta tovar va xizmat o'rin olgan.

7.2. Tovar bozorida sotiladigan tovarlarning monopol yuqori va monopol past narxlarini aniqlash tartibi

Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestriga kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar har chorakda chorak birinchi oyining 10-kuniga qadar monopoliyaga qarshi organga Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestriga kiritilgan tovarlariga qo'llaniladigan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadilar.

1. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda monopoliyaga qarshi organ deb ataladi) subyektlar tovarlariga narxlarning o'zgarishi dinamikasini kuzatib borish maqsadida muntazam ravishda:

har chorakda subyektlar tomonidan taqdim etilgan Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestriga kiritilgan tovarlarga qo'llaniladigan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

statistika organlari ma'lumotlarini (ma'lumotnomalar, byulletenlar va boshqalarni);

ommaviy axborot vositalari ma'lumotlarini;

belgilangan tartibda amalga oshiriladigan nazorat funksiyalari materiallarini (o'rganishlar natijasida tekshirish bo'yicha dalolatnomalar va ma'lumotnomalar, berilgan ko'rsatmalar va boshqalarni);

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar ma'lumotlarini tahlil qiladi.

2. Subyektlar tovarlariga narxlar o'zgarishi holati aniqlanganda yoki jismoniy va yuridik shaxslardan monopol yuqori va monopol past narxlar qo'llanilganligi holati to'g'risida murojaatlar tushgan taqdirda monopoliyaga qarshi organ uch kun

muddatda davlat organlariga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga:

tovarlarning ishlab chiqarilishi, sotilishi, importi va eksporti hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

ushbu Nizomning 12 va 13-bandlariga muvofiq narx o‘zgarishi belgilarini aniqlash, shuningdek, tovarni ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog‘liq zarur xarajatlar va foydani aniqlash uchun zarur bo‘lgan hisob-kitob va tasdiqlovchi hujjatlarni;

tovar bozorining o‘ziga xosligidan kelib chiqib boshqa hujjatlarni olish uchun yozma so‘rovlar yuboradi.

3. Davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ularning mansabdor shaxslari monopoliyaga qarshi organ talabiga ko‘ra zarur hujjatlar va ma’lumotlarni belgilangan tartibda unga bepul taqdim etishlari shart. Ma’lumotlar so‘rov olingandan keyin 15 kun mobaynida monopoliyaga qarshi organga taqdim etiladi.

4. Monopoliyaga qarshi organ ma’lumot olingandan keyin bir oy mobaynida olingan ma’lumotlarni o‘rganib chiqadi va ular natijasi bo‘yicha tovarga monopol yuqori narxlar belgilanganligi belgilari aniqlanadi, bu:

xuddi shu turdagi boshqa tovar narxidan, shu jumladan, bozorning boshqa subyektlarining uning o‘rnini bosuvchi tovarlardan ancha yuqori bo‘lgan miqdorda narx belgilanganligi aniqlanishida;

tovarga belgilangan narx iqtisodiy va texnologik omillar bilan tushuntirib bo‘lmaydigan 10 foizdan ziyodga oshirilishida;

tovar bozorida qiyoslanadigan narxlarning tegishli o‘sish sur‘atlari bilan taqqoslash bo‘yicha tovar narxining 10 foizga asossiz oshirilishida;

tovarning fizik tavsiflarini (tovarning og‘irligi yoki birligi soni, sifatini o‘zgartirish) sezilarli pasaytirish yo‘li bilan tovarga narxlarni oshirish yoki saqlab qolishda;

tovar narxi asossiz o'zgartirilishidan dalolat beruvchi boshqa xatti-harakatlarda ifodalanadi.

5. Tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xarajatlar qiymatini qoplamaydigan va foyda olishni nazarda tutmaydigan tovarga narx qo'llash, agar u:

raqobatning cheklanishiga;

raqobatchilarning bozordan siqib chiqarilishiga;

raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan boshqa oqibatlarga olib kelsa, monopol past narxni o'rnatish belgisi hisoblanadi.

6. Subyekt tovariga narx o'zgarishi belgilarini va ushbu o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash uchun:

subyektning moliya-xo'jalik faoliyati;

tovar tannarxi, ishlab chiqarish xarajatlari va davr sarflari o'zgarishi;

subyektning tovarni sotishdan olgan daromadi yoki ko'rgan zarari;

subyekt va bozorning boshqa ishtirokchilari tovariga narxlarning o'zgarishi dinamikasi;

subyekt va bozorning boshqa ishtirokchilari ishlab chiqarish, tovar realizatsiyasi va bozordagi ulushi hajmlari;

ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish tahlil qilinadi.

7. Ular bo'yicha subyektning ustun mavqei e'tirof etilgan tovarni ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq zarur xarajatlar va foydani aniqlashda:

tovar birligini ishlab chiqarishga xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, moddiy resurslar sarfining qo'llaniladigan normalaridan va ularning yillik normalaridan kelib chiqib tasdiqlovchi hujjatlarda (shartnomalar, schyot-fakturalarda) va moddiy resurslarning fizik hajmida nazarda tutilgan narxlardan kelib chiqib aniqlanadigan tannarxga kiradigan moddiy sarf-xarajatlar;

xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlari, shu jumladan, mehnat haqidagi qonunlarga muvofiq mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan mehnat sharoiti uchun to'lanadigan qo'shimcha haq va ustamalar;

subyektning hisob siyosatida nazarda tutilgan usulni qo'llagan holda aniqlanadigan amortizatsiya xarajatlari;

jalb etilgan mablag'larga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

subyektning tovarini ishlab chiqarish va sotishga bevosita tegishli bo'lgan boshqa xarajatlar;

korxonaning samarali faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta'minlovchi foyda darajasi hisobga olinadi.

8. Foyda ular bo'yicha subyektning ustun mavqei e'tirof etilgan tovarni ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromad bilan tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'lgan asoslangan sarf-xarajatlar, shuningdek, amalda to'langan soliqlar o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi.

9. Subyektni rivojlantirish uchun talab etiladigan zarur foyda miqdori ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarning xususiyatlarini, tovar bozorining o'ziga xosligini va subyektning faoliyat ko'rsatishi shart-sharoitlarini aks ettirishi, shuningdek:

yangi aktivlarni yaratishga, mavjud aktivlarni kengaytirish, yangilash, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashga investitsiyalarni;

tavakkalchiliklar darajasini (ishlab chiqarish yoki iste'molning mavsumiy xususiyati, iqlim omillariga yuqori bog'liqlik);

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni hisobga olishi kerak.

10. Tovar birligiga subyektning zarur xarajatlari va foydasini baholashda zarurat bo'lganda o'xshash xarajatlar va bozorning boshqa qatnashchilari foydasining qiyosiy tahlili usuli qo'llaniladi.

11. Tahlil qilishda tovar bozorida davlat tomonidan tartibga solishning mavjudligi, shuningdek, tegishli bozorda biror-bir tovarni ishlab chiqarish, sotish yoki xarid qilishga davlatning mutlaq huquqi mavjudligi e'tiborga olinadi.

7.3. Davlat tomonidan narxni tartibga solish usullarini qo'llash yo'llari

Monopol narx - monopol mavqedagi subyekt (korxona)lar bozorda belgilaydigan narx, monopol foyda olishning asosiy vositasi. Monopoliya sharoitida bu sotuvchi narxi bo'lsa, monopsoniya sharoitida xaridor narxi shakliga ega bo'ladi. Monopol narx- erkin bozor narxidan raqobat asosida shakllanmasligi bilan farq qiladi. Monopol narxni belgilashning asosiy maqsadi olinadigan foydani maksimallashti-rishdir. Monopoliyaning narx belgilashdagi hukmronligi uning bozordagi hokimiyati hisoblanadi. Monopol narx o'rnatilganda tanlash imkoniyati bo'lmaganligi sababli xaridor daromadining bir qismini yo'qotadi. Lekin monopoliya monopol narxni chegarasiz oshira olmaydi, chunki har qanday narxning yuqori chegarasini xarid qobiliyati belgilaydi. Shuni hisobga olib monopol narx bozor ko'taradigan narxning eng yuqorisi qilib belgilanadi, ammo bunday narx talabning elastikligini yuzaga keltirmaydi, ya'ni talab narxining ortishga nisbatan tezroq pasayadi.

Monopol narxga resurlar narxining ortishi ham ta'sir etadi, chunki xarajatlar ortib, foyda qisqaradi. Monopsoniya sharoitidagi monopol narx xaridor narxi hisoblanib, u ishlab chiqaruvchilarning o'rtacha xarajatlari darajasida bo'ladi. Buning natijasida monopolistga tovar sotganlar minimal foyda ko'radi, monopsonist esa narxni pastligidan yutib chiqadi. Bu yerda sotuvchilarning yo'qotishi xaridor - monopolistning yutug'iga aylanadi. Monopol narx bozorning asosiy vositasi bo'lganligidan, davlat bu narxlarni nazorat qiladi, ularning haddan ziyod yuqori yoki past belgilanishiga yo'l bermaydi, narxni oshirish hisobidan topilgan foydani davlat o'z byudjetiga olib qo'yadi.

Monopoliyadan chiqarish-iqtisodiyotdagi monopoliyadan erkin, teng huquqli raqobatga asoslangan tadbirkorlik faoliyatiga qaytish (qayta o'tish). Monopoliya erkin raqobatga yo'l bermay, iqtisodiyotda turg'unlikni vujudga keltiradi. Monopoliyadan chiqarish sog'lom iqtisodiy bellashuvga yo'l berish maqsadlarida amalga oshiriladi. Natijada monopol korxonalar va birlashmalar o'rniga o'zaro raqobatlashuvchi ko'plab korxonalar paydo bo'ladi. Monopoliyadan chiqarish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi;

1-yirik monopol mavqedagi birlashmalar, kompaniyalar tarqatilib, ulardan mustaqil korxonalar ajralib chiqadi;

2-monopol korxona yoki birlashmalar, kompaniyalar saqlangan xolda ular bilan raqobat qila oladigan, bir xildagi yoki bir-birining o'rnini bosuvchi mahsulot chiqaruvchi korxona yoki birlashmalar tashqil etiladi. Monopoliyadan chiqarish bozor iqtisodiyotiga o'tishda yoki uning o'sishi uchun yangi imkon yaratishda g'oyat muhim. Monopoliyadan chiqarish O'zbekistonda 1990-yillar boshidan bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Monopollashgan bozor - ozchilik sotuvchilar va xaridorlar hukmron, raqobat cheklangan yoki mavjud bo'lmagan bozor. Uning monopol raqobatli, oligopolistik, sof monopoliya bozori turlari bor. Monopol raqobatli bozorda korxonalar ko'p bo'lganidan ulardan har birining tovarlar sotishdagi hissasi kichik bo'ladi, natijada ular bozorni cheklangan xolda nazorat qiladilar. Ular yashirin kelishuv asosida o'zaro til biriktira olmaydilar, bu bilan mazkur bozor oligopolistik bozor (guruh monopoliyasi)dan farqlanadi. Monopollashan bozorda korxonalar mustaqil bo'lganidan o'z bozorida bir-biri bilan raqobatlashadi. Lekin raqobatning asosiy usuli narx bilan raqobatlashuv emas, balki sifat jixatidan bir-biridan farqlanuvchi mahsulot bilan bozorga chiqish hisoblanadi. Monopollashgan bozor yangi korxonalarning kirib kelishi uchun ochiq hisoblanadi. SHu bois bu erda raqobat cheklanmaydi, aksincha, kengayib turadi. Yangi korxonalar kirib kelganda taklif ko'payib, narxlar tushib ketadi, natijada zarar xam ko'riladi. Zarar ko'rganlar bozordan chiqib ketishgach,

narxlar oshadi, foyda maksimumlashadi. Bunday bozorda tovarlarni mukammallashtirish sotish hajmini oshirib, foyda miqdorini ko'paytiradi. Raqobatda modernizatsiyadan tashqari, reklama xam keng qo'llanadi. Monopollashgan bozorning monopollashuv darajasi amerikalik iqtisodchi A.P. Lerner (1903-1983) indeksi bilan aniqlanadi.²¹


Monopsoniya (monopsoniya, yunoncha- sotib olmoq) - bozor holati, bozorda xaridorning xukmron mavqega ega bo'lishi. Monopsoniyada bir nechta sotuvchilar va bir yirik xaridor ishtirok etadi. Bozorda xaridor o'z hukmini o'tkazib, etakchi mavqeni egallaydi, xarid hajmini kamaytirib, ishlab chiqaruvchilarni narxni pasaytirishga majbur etadi. Aksariyat resurslar bozorida paydo bo'ladi (ishlab chiqaruvchi yutug'i xaridor-iste'molchiga o'tadi). Resurslarni davlat qat'iy narxlarda xarid etganda, davlat buyurtmalarida ham monopsoniya vujudga keladi. Masalan davlat avianosets, kosmik-raketa obyektlari kabi qimmat va murakkab qurol-aslahalar xaridori bo'ladi. Keng ma'noda - narxlar shakllanishiga xaridorlar ta'sir ko'rsatadi.

7.4. Davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar

Hozirgi davr xalqaro miqyosdagi globallashuv davri bo'lib uning muhim belgisi mono-iqtisodiy tizimdan poliiqtisodiy tizimga o'tishdan iborat. Bu jarayonni faqat transformatsiya bosqichidagi mamlakatlar bilan cheklab bo'lmaydi, uni global hodisa, deb baholash o'rinlidir. Hamma erda polituzilmaga o'tish ko'p ukladlilikni hosil bo'lishini bildiradi. Ko'p ukladlilik iqtisodiy xilma-xillikdan o'zga narsa emas, lekin bu rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida aralash iqtisodiyot tarziga kirsam, transformatsiya bosqichidagi mamlakatlarda tranzit iqtisod shaklini oladi. O'zbekistondagi ko'p ukladlilik uzoq davom etgan, tabiiy jarayon-evolyusiya mahsuli emas, balki monopoliyaga qarshi siyosat natijasida yuzaga kelgan tuzilmadir. O'zbekistonda ko'p ukladlilikning yuzaga kelishi xususiylashtirish bilan cheklanmay, ukladlarni yangidan hosil etish tarzida ham kechadi. Bunda monopoliyaga qarshi siyosat davlat mulki qaytadan taqsimlanmaydi, balki mulk obyekti uning egasi

²¹Ўзбекистон Республикаси миллий энциклопедияси 8том 183 бет

tomonidan yangidan yaratiladi, ya'ni puldorlar tadbirkorlikka qo'l urib, xususiy mulk hosil etadilar. O'zbekistonda barqaror yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda monopoliyaga qarshi siyosatni mustahkamlash asosida turli ukladlarga erkinlik berish yo'li ko'zda tutildi. O'zbekiston tajribasi shundan guvohlik beradiki, monopoliyaga qarshi siyosatda davlat ukladining iqtisoddagi mavqeini ikki narsa belgilaydi: birinchisi, an'anaviy omil, davlat xo'jaligi naqadar rivojlangan bo'lishi, ikkinchisi, mamlakat tanlagan rivojlanish modelida monopoliyaga qarshi siyosatning iqtisodiy vazifalarilariga qanday e'tibor berilishidir.



7-rasm. Monopoliyaga qarshi siyosatning vazifalari²²

Monopoliyaga qarshi siyosatning iqtisodiy vazifalarilari ko'p va xilma-xildir. Shuning uchun tahlilimizda monopoliyaga qarshi siyosatning asosiy iqtisodiy

²² Оқюлов О., Мансуров К., Ходжаев Б. Рақобат ҳуқуқи. – Тошкент, ТДЮИ, 2018. - 174 б..

vazifalarilarini ko‘rib chiqamiz. Birinchidan, monopoliyaga qarshi siyosatning ayrim iqtisodiy vazifalarilari bozor tizimi rivojlanishini engillashtirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadiga ega bo‘lgan quyidagi besh vazifalarini quyidagi (7-rasm) orqali keltirib o‘tishimiz mumkin:

Raqobatli bozor tizimining qulayliklaridan biri resurslarni samarali taqsimlash hisoblanadi. Boshqacha aytganda, har bir turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda resurslar “to‘g‘ri” yoki maqbul taqsimlangan bo‘ladi. SHu bilan birga raqobatli bozordagi resurslarning samarali taqsimlanishida yashirincha ravishda kamchiliklar ham mavjud. YA’ni, har xil turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki iste’mol qilishda qo‘shimcha samara bo‘ladi. Monopoliyaga qarshi siyosat natijasida resurslar nomutanosib taqsimlanishining oldini olish uchun qonunlar va o‘ziga xos soliqlar amal qiladi.

Monopoliyaga qarshi siyosatning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar bilan rahbarlik qilish, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyani ta’minlash, Ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlaridan samarali foydalanish asosida resurslardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish va aholining turmush darajasini yuksaltirishdir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida monopoliyaga qarshi siyosat mamlakat iqtisodiyotining barqaror yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Monopoliyaga qarshi siyosatning asosiy vazifalarilaridan biri – iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari qatori fiskal siyosat orqali ham erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, byudjet-soliq siyosati deb xam aytiladi. Byudjet-soliq siyosati deganda noinflyasion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to‘liq bandlilikni, to‘lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga qaratilgan monopoliyaga qarshi siyosatxarajatlari va soliqlarini o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi. Iqtisodiyot turg‘unlik yoki pasayish davrida bo‘lgan vaziyatlarda monopoliyaga qarshi siyosat

tomonidan rag'batlantiruvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyasiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat- fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat monopoliyaga qarshi siyosat xarajatlarni kamaytirish yoki soliqlarni oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat. Ushbu farq fiskal siyosat vositalarini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Agar hukumat monopoliyaga qarshi siyosat sektorini kengaytirmoqchi bo'lsa, davriy pasayishni tugatish uchun o'z xarajatlarini oshirishi, inflyasiyani cheklash uchun esa soliqlarni oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

7.5. Tovarning monopol yuqori(past) narxlarini aniqlash uchun ma'lumotlarni olish va tahlil qilish

Har bir mamlakatda monopoliyaga qarshi qonunchilik o'ziga xos xususiyatlarga ega, lekin, barcha holatlar uchun umumiyleri ajratiladi: kompaniyalarning birlashishini nazorat qilish; tadbirkorlar (kartellar)ning kelishuvlarini taqiqlash; insofsiz raqobatni to'xtatish. Korxonalarning birlashishi raqobatni yo'qotish va bir vaqtda ishlab chiqarishning bir erga to'planishi va uning samarasini oshirish omili bo'lib hisoblanadi. Biroq, raqobat ko'rashida korxona quvvatini o'stirish, korxonalarning mexanik birlashishidan ko'ra oqilonaroq deb e'tirof etiladi. Shu sababli, birlashishda qat'iy reglamentatsiya olib boriladi.

Bozor iqtisodiyotida har kimning faravonligi bozorda o'ziga qarashli tovarni, o'z ishchi kuchini, malakasini, o'zi ishlagan buyumni, xususiy er uchastkasini yoki tijorat operatsiyalarini tashkillashtirish mahoratini va shu kabalarni qanchalik muvaffaqiyatli sotilishi bilan aniqlanadi.

Har bir mamlakatda iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimining eng muhim elementi – bu monopolist faoliyati tartibga solinishi lozim bo'lgan subyekt sifatida tushinishdadir

Xo‘jalik subektlari ixtiyorida bo‘lgan monopolistik xukmronligi darajasiga bog‘liq ravishda quyidagi bozor modellarini ajratib ko‘rsatishadi. Monopolizmning iqtisodiyotdagi bu va boshqa salbiy tomonlari davlatlarni monopoliyaga qarshi siyosatni ishlab chiqishga va qo‘llashga majbur qiladi. Ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari tufayli, raqobatning yo‘qligidan, bozor talabini qondira oluvchi tovarlar va narxlar keskin o‘zgarganda, o‘rnini boshqa tovarlar bosa olmaydigan turg‘un talabga ega bo‘ladi.

7.6. Tovarga monopol yuqori(past) narxni aniqlash. Monopol yuqori(past) narxni qo‘llash aniqlanganda chora-tadbirlar ko‘rish tartibi

Tovar va moliya bozorlaridagi raqobat jarayonini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi joriy yilning 20 avgustida «Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini qabul qildi, u bilan quyidagi 5 ta Nizom tasdiqlandi:

1) tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e‘tirof etish hamda Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestrini yuritish tartibi to‘g‘risida;

2) xizmatlarning moliya bozorida monopol yuqori va monopol past narxlarni aniqlash tartibi to‘g‘risida;

3) raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi to‘g‘risida;

4) xo‘jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish masalalarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida;

5) xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olishga doir bitimlarni ko‘rib

chiqish hamda bunday bitimlarni tuzish uchun oldindan rozilik olish tartibi to'g'risida.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozordagi ustun mavqeini e'tirof etish shartlari belgilandi

SHuni eslatib o'tamizki, «Raqobat to'g'risida»gi Qonun (6.01.2012 yildagi O'RQ-319-son, bundan ke yin – Qonun) bilan ustun mavqeni aniqlash tamoyili o'zgartirilib, tovarlar va xizmatlar bozorida uni aniqlashning yanada aniq mezonlari mustahkamlangan, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushi pasayishi belgilangan edi (Qonunning 6-moddasi). Agar ilgari tovarlari yoki xizmatlari ulushi tovar yoki moliya bozorida 65% va undan yuqori bo'lgan subyektning maqomi ustun sanalgan bo'lsa, endilikda Qonun ustun mavqeni e'tirof etishning eng yuqori darajasini pasaytirdi. Endilikda xo'jalik yurituvchi subyektning bozordagi tovarlari yoki xizmatlari ulushi 50%ga teng va undan ortiq bo'lsa, yoxud 35-50% hajmida bo'lsa – xo'jalik yurituvchi subyektning tovar bozoridagi ulushi kamida 1 yil mobaynida barqaror bo'lib turganda; boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlar nisbiy miqdorda bo'lib turganda; ushbu bozorga yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishiga imkoniyat bo'lganda ustun maqomga ega sanaladi. Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e'tirof etish hamda Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizamga muvofiq tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e'tirof etish Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ustun mavqe mavjudligini aniqlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning bir qismida tovar yoki moliya bozori chegarasini, ya'ni tovar yoki moliyaviy xizmatning (shu jumladan bir-birining o'rnini bosuvchi) muomalada bo'lish chegaralarini uning

iste'molchilar tomonidan erkin sotib olinishi tamoyili bo'yicha aniqlashni o'z ichiga oladi. Tovarni erkin sotib olish tegishli mintaqada aniq tovarni sotib olish imkoniyati; tovar qiymatiga nisbatan transport xarajatlarining qoplanishi; tovarning sifati, ishonchliligi va boshqa iste'mol xususiyatlarining saqlanishi; tovarni oldi-sotdi, olib kirish va olib chiqishga cheklovlar (taqiqlar)ning mavjud emasligi; tovar bozori chegaralari doirasida raqobatning teng shart-sharoitlari mavjud bo'lganda ta'minlanadi.

So'ngra xo'jalik yurituvchi subyektlar va (yoki) shaxs lar guruhining bozor ulushlarini aniqlash kamida bir yillik davr uchun amalga oshiriladi, bozor ulushi xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining aniq tovar bozoridagi savdo-sotiqdar hajmining umumiy hajmidagi ishtirokini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Oxirgi bosqich – bevosita xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e'tirof etish. Tovar bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holati ustun mavqe hisoblanadi.

Tegishli bozorda tovar ulushining quyidagi miqdorlari ustun mavqe mezonini hisoblanadi:

a) 50% va undan ortiqni tashkil etsa;

b) 35%dan 50%gacha hajmda bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ulushi 1 yil va undan ortiq muddat mobaynida barqaror bo'lib tursa yoxud bozorda 20%dan ortiq tovarlar ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxs lar guruhi yo'q bo'lsa.

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish boshlangan sanadan boshlab 2 yil mobaynida tegishli moliya bozorida moliyaviy xizmatlarning aniq turiga o'xshashi mavjud

bo'lmagan, birinchi marta bozorga ma'lum bir turdagi moliyaviy xizmatlar bozoriga kirgan xo'jalik yurituvchi subyekt moliya bozorida ustun mavqeini egallovchi xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ko'rib chiqilmaydi. Ustun mavqeni egallagan deb e'tirof etilgan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestriga kiritiladi.

8-bob. RAQOBAT MUHITINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

8.1. Monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobatni rivojlantirish mohiyati.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirishning keyingi bosqichi tovar bozorlarida monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilash, raqobat munosabatlarining shakllanishi va samarali amal qilishi uchun sharoitlar ta'minlashga qaratildi. Shu munosabat bilan, "Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida"gi qonuni bekor qilingan holda, 1996- yil 27- dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun tovar bozorlarida monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berdi, raqobat munosabatlarining shakllanishi va samarali amal qilishi uchun sharoitlar ta'minlashga qaratildi, shuningdek birinchi marta mamlakat raqobat muhiti uchun "raqobat", "insofsiz raqobat", "ustun mavqe", "monopolistik faoliyat", "mutlaq monopoliya" kabi tushunchalarning qonuniy talqinini belgilab berdi. Mazkur qonun doirasi 24 moddagacha kengytirilib, u asosida monopolistik faoliyat, monopoliyaga qarshi davlat organi, raqobat ustidan davlat nazorati, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari buzganlik uchun javobgarlik, monopoliyaga qarshi davlat organining qarorlar qabul qilishi, ular ustida shikoyat qilish va ularni ijro etish tartibi kabi masalalar tartibga solindi.

O'zbekiston Respublikasida tabiiy monopoliyalarga nisbatan davlat siyosatining huquqiy asoslarini belgilash hamda iste'molchilar bilan tabiiy monopoliya subyektlarining manfaatlari mos kelishiga erishish hamda tabiiy monopoliya subyektlari, iste'molchilar va davlat organlari ishtirok etadigan O'zbekiston Respublikasi tovar bozorlarida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solish ham monopoliyaga qarshi boshqaruvning hal etilishi lozim bo'lgan

vazifalaridan biriga aylandi. SHu maqsadda, 1997- yil 24- aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi 10 moddadan iborat qonun qabul qilindi. Keyinchalik ushbu qonun bekor qilingan holda, 20 moddadan iborat yangi tahrirda 1999- yil 18- avgustda qabul qilindi. Yangi tahrirdagi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi qonuni tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, ular ustidan davlat nazorati, tabiiy monopoliya subyektlarining huquqlari, majburiyatlari, tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyatini cheklash kabi masalalarni tartibga solishni ta’minladi. Ushbu yangi qonunga muvofiq, “tabiiy monopoliya” tushunchasiga kengroq va batafsil ta’rif berilib, unga ko‘ra tabiiy monopoliya – tovar bozorining holati bo‘lib, unda texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo‘lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emas yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi qonuni ijro etish va tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- sentyabrdagi 364-sonli «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” gi qarori qabul qilinib, unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini narxlar bilan tartibga soluvchi vakolatli organ hisoblanishi belgilandi hamda tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga narxlar (tariflar)ni yoki ularning eng yuqori darajalarini belgilash tartibini o‘rnatadigan “Tabiiy monopoliya subyektlarining tovarlari (ishlari, xizmatlari)ga narxlar (tariflar) belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlandi.

Monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatining institutsional asoslarini takomillashtirish monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish faktlari bo‘yicha ish qo‘zg‘atish va ularni ko‘rib chiqish va tegishli qarorlar qabul qilishga doir

qonunchilik hujjatlarini yaratishni ham ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997- yil 25- iyundagi 321-sonli "Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risida ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibini tasdiqlash haqida"gi qarori bu borada birinchi qadamlardan biri bo'ldi. Mazkur qaror asosida "Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risida ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi" tasdiqlanib, u monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzishni to'xtatish to'g'risida ko'rsatmalar berish, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarimalar solish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, monopoliyaga qarshi davlat organining qarorlari ustidan shikoyat qilish tartiblari va asoslarini belgilab berdi.

Keyingi yillarda monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatining institutsional asoslari nafaqat monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini, balki iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini ham o'z ichiga oldi. O'zbekiston Respublikasining 1996- yil 27- dekabrda "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi, 1999- yil 19- avgustda "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi, 1996- yil 26- aprelda "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", 1998- yil 25- dekabrda "Reklama to'g'risida"gi qonunlarining qabul qilinishi hamda monopoliyaga qarshi davlat organi funksional vazifalarining kengaytirilishi bu boradagi ishlarni ko'rib chiqilishining tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 aprelda PF-3602-sonli "Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" Farmoniga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005- yil 2- mayda PQ-66-sonli "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qaroriga muvofiq "Monopoliyaga

qarshi qonun hujjatlarini, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom" ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005- yil 12- oktyabrdagi 225-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Bugungi kunda ushbu huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 23- maydagi 143-sonli qarori bilan nomi "Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom" sifatida o'zgartirilib, monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan foydalanib kelinmoqda.

8.2. Monopoliyadan chiqarishning tashkiliy-me'yoriy asoslari

Monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatining institutsional asoslari, shuningdek, monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish vakolat berilgan davlat organi tomonidan ishlab chiqiladigan idoraviy hujjatlarni ham o'z ichiga oladi. SHunday huquqiy-me'yoriy hujjatlardan biri tabiiy monopoliyani tartibga solish sohasi oid bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining 2009- yil 23- fevraldagi 7-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2009- yil 30- martda 1930-raqam bilan ro'yxatga olingan "Tabiiy monopoliya subyektlarining Davlat reestrini tuzish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom" bo'lib hisoblanadi. Bunday turdagi hujjat tabiiy monopoliya subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona axborot bazasini yaratishga va uning hisobini yuritishga imkon berdi. Keinchalik, tabiiy monopoliya subyektlarining davlat reestrini tuzish va yuritish masalalari O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2010- yil 6- oktyabrdagi 14-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya

vazirligida 2010- yil 11- oktyabrda 2147-raqam bilan ro'yxatga olingan yangi nizom bilan tartibga solindi.

O'zbekiston Respublikasida muayyan soha va tarmoqlarida bozor islohotlarini va monopoliyadan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish, raqobatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilib kelindi. Jumladan, iqtisodiy islohotlarning ilk yillaridan boshlab respublikada monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatining institutsional asoslarini tashkil etadigan bir qancha qabul qilingan huquqiy hujjatlar asosida tashqi savdo, savdo sohasi, temir yo'l transporti, avtomobil transporti sohalari, paxta tozalash sanoati, mebel sanoati, baliqchilik tarmog'i, parrandachilik sanoatlarini monopoliyadan chiqarish borasida talaygina ishlar amalga oshirildi (2-jadval).

2-jadval

Iqtisodiyotning muayyan tarmoq va sohalarini monopoliyadan chiqarish borasida amalga oshirilgan ishlar

№	Tarmoq va sohani monopoliyadan chiqarishga asos	Amalga oshirilgan ishlar
1	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995- yil 4- apreldagi 120-sonli "Tashqi savdoni markazlashtirishdan va monopoliyadan chiqarishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori	Tashqi iqtisodiy faoliyatning markazlashtirilishiga barham berildi va uning asosan nodavlat tuzilmalari tomonidan tijorat asoslarida amalga oshirilishiga o'tildi.
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997- yil 19- dekabrda PF-1897-sonli "Savdo sohasida monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirish to'g'risida" farmoni	Oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarini fond yo'li bilan taqsimlash tizimi bekor qilindi va O'zbekiston «Savdo» Davlat-aksiyadorlik uyushmasi («O'zbeksavdo») tugatilib, O'zbekiston «O'zbeksavdo» aksiyadorlik kompaniyasini tashkil qilindi.
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001- yil 2- martdagi PF-2815-sonli "Temir yo'l transportini monopoliyadan chiqarish va aksiyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni	Temir yo'l transporti sohasidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi, «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasini ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001- yil 4- iyundagi PF-2871-sonli "Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni	Avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi, O'zbekiston avtomobil transporti davlat-aksionerlik korporatsiyasi («O'zavtotrans») tugatildi, uning tarkibiga kirgan

		hududiy davlat-aksionerlik konsernlari va birlashmalarini avtomobilda tashuvchilarning hududiy uyushmalariga aylantirgan holda ularni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyoriga berildi.
5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001- yil 11- iyundagi PF-2874-sonli “Respublika paxta tozalash sanoatini monopoliyadan chiqarish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni	Paxta xomashyosini qayta ishlash va paxta mahsulotlarini sotish davlat-aksiyadorlik uyushmasi «O‘zdavpaxtasanoatsotish» «O‘zpaxtasanoat» uyushmasiga aylantirildi, paxta xomashyosini xarid qilish, qayta ishlash va paxta mahsulotlarini yetkazib berish hududiy davlat-aksiyadorlik birlashmalari tegishli ravishda tugatgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda «Paxtasanoat» hududiy aksiyadorlik birlashmalarini tashkil etildi.
6	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001- yil 20- iyundagi 258-sonli “Respublika mebel sanoatini monopoliyadan chiqarish va uni boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori	«O‘zbekmebel» davlat-aksiyadorlik birlashmasini tugatildi va uning tarkibiga kirgan korxonalar va tashkilotlar aksiyalarining davlatga tegishli nazorat paketlarini «Fayz» xolding kompaniyasiga ishonchli boshqaruvga berildi.
7	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 13- avgustdagi 350-sonli “Baliqchilik tarmog‘ida monopoliyadan chiqarish va xususiylashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori	«O‘zbaliq» aksiyadorlik kompaniyasini va «Qoraqalpoqbaliq» uyushmasini tugatildi, tugatilayotgan «O‘zbaliq» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi baliqchilik tarmog‘ining baliq ovlash va baliqchilik korxonalarini to‘liq xususiylashtirish va asosan xususiy mulkchilikka aylantirish amalga oshirildi.
8	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 4- sentyabrdagi 382-sonli “Parrandachilikda monopoliyadan chiqarish va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi «O‘zparrandasanoat» uyushmasi uning tarkibiga kiruvchi korxonalar to‘liq xususiylashtirildi va ularga iqtisodiy mustaqillik berilgan holda tugatildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi boshqaruv siyosatining institutsional asosining eng muhim elementi bo‘lib, 2012- yil 6- yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni hisoblanadi. Mazkur qonun oldingi qabul qilingan qonunlar bekor qilingan holda 40 moddadan iborat bo‘lib, mamlakatda tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilindi hamda unda xo‘jalik

yurituvchi subyektlar, jismoniy shaxslar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining O'zbekiston Respublikasi hududida va (yoki) undan tashqarida sodir etiladigan, O'zbekiston Respublikasidagi tovar va moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlariga nisbatan tatbiq etilishi belgilab qo'yildi.

8.3. Tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish asoslari

Har qanday mamlakatda kechadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiylashtirish, monopoliyaga qarshi kurashish va raqobatni rivojlantirish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlarning o'ziga xos o'rnini bor. Zero, taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan raqobat muhiti xususiylashtirish orqali mulkchilikning turli shakllari vujudga kelgan hamda monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan sharoitda mavjud bo'ladi.

SHu boisdan ham mamlakatimiz mustaqilligini dastlabki yillaridan boshlangan bosqichma-bosqich islohotlar doirasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni kabi monopoliyaga qarshi kurash choralari ham xuddi shu yo'sinda izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqich: 1991-1999 yillarda raqobat muhitini shakllantirish uchun bozor iqtisodiyoti mexanizmlari tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich: 2000-2018 yillarda monopoliyaga qarshi kurashning rolini oshirish, monopol korxonalarni tarkibiy o'zgartirish hamda yiriklashtirishga e'tibor qaratildi.

Uchinchi bosqich: 2019- yildan -2030 yillargacha deb prognoz qilinmoqda. CHunki 2019- yil 14- yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5630-son «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Tahlillarga qaraganda, o'tgan 28 yilgi davr ichida raqobatga oid qonunchilik, tovar bozorlarida kelishib olingan harakatlar va bitimlarni amalga oshirish hamda ustun mavqeni suiiste'mol qilishni bartaraf etish borasida ko'rilgan choralar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. CHunonchi, monopol korxonalar hamda monopol tovar va xizmatlar turi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining kamayish tendensiyasi kuzatildi.

Bu yo'nalishdagi muayyan samaralar hamda mamlakatimizda bank-moliya xizmatiga, ayniqsa bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojning tobora oshib borishi bu sohada ham monopollashuv jarayonini tartibga solish zaruratini keltirib chiqarmoqda. SHu bois 2013- yildan mamlakatimiz iqtisodiyotida raqobat muhitini shakllantirishning keyingi bosqichiga qadam qo'yildi, ya'ni moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solish choralari amaliyotga kiritildi. Bu jarayonga avvalo, tovar va moliya bozorlaridagi raqobat munosabatlarini tartibga solish maqsadiga qaratilgan, 2012- yilning 6- yanvaridan kuchga kirgan "Raqobat to'g'risida"gi qonun huquqiy zamin yaratdi. Joriy yilning 20 avgustida esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va u bilan tasdiqlangan nizomlarda esa qonun normalarini hayotga tatbiq etishning yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berildi. Ushbu nizomlarda belgilangan keng ko'lamli chora-tadbirlar endilikda nafaqat tovar, balki bank, lizing, sug'urta va qimmatli qog'ozlar bozori kabi moliya bozorlariga ham qo'llaniladi va aytish joizki, mazkur murakkab ish soha mutaxassislaridan tegishli bilim va malakadan tashqari chuqur tahliliy yondashuv mas'uliyatini ham talab etadi.

Davlat raqobat qo'mitasi tizimida shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar korxonalar va bank muassasalari bilan ishlash, ular faoliyatini o'rganish yoki tadbirkorlardan kelib tushadigan sohaga daxldor murojaatlarni ko'rib chiqishda qonunchilik talablariga rioya etishlarini samarali ta'minlashni nazorat etib kelmoqda.

Xususan, raqobatga oid qonunchilikning asosiy talablari va bunday talablardan biri bo'lgan tender savdolari va iqtisodiy birlashishning hamda moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimi, raqobatga qarshi harakatlar va ularning oldini olish mexanizmlari, raqobat qonunchiligini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi kabilarni ta'kidlashimiz mumkin.

Bundan tashqari, tovar va moliya bozorlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini aniqlash va bu borada ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestrini yuritish, moliya bozoridagi xizmatlarning monopol yuqori va monopol past narxlarini hamda raqobatni cheklovchi kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartiblari va ushbu tartiblarni qo'llash jarayonining muhim jihatlarini ham ta'kidlashimiz mumkin.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish masalalarini ko'rib chiqishning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi aksiyalarni va boshqa mulkiy huquqlarini olishga doir bitimlarni ko'rib chiqish va bunday bitimlarni tuzish uchun oldindan rozilik olish tartibining o'ziga xos tomonlarini ham doimiy nazorat qilib kelmoqda.

8.4. Tovar va moliya bozorlarida xo'jalik yurituvchi subektlar va shaxslar guruhining faoliyati

O'zbekistonda tovar va moliya bozorlarida xo'jalik yurituvchi subektlar va shaxslar guruhining faoliyati 2000- yildan boshlab sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, raqobatni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, bozorlarni monopollashtirishga urinishlarga yo'l qo'ymaslik, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimini takomillashtirish, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish monopoliyaga qarshi boshqaruv faoliyatining eng ustuvor vazifalari sifatida e'tirof etila boshlandi.

SHu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000- yil 2- avgustdagi PF-2676-sonli "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu sanadagi 300-sonli "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida monopoliyaga qarshi organ hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi vazirlik tarkibidan chiqarilib, uning negizida mustaqil davlat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mitaning maqomi, vazifalari va funksiyalari ham, tabiiyki, kengaydi.

Yuqoridagi hujjatlar asosida shu fursatdan boshlab, O'zbekistonda monopoliyaga qarshi boshqaruvning funksional jihatlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- respublikada sog'lom raqobat muhitini yaratish uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlarni, mustahkam huquqiy bazani shakllantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz funksiyalarini amalga oshirish;
- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi raqobat qonunlarini, umumiy qabul qilingan normalar va qoidalarni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi monopoliyaga qarshi tartibga solishning kuchli tizimini barpo etish;
- insofsiz raqobatchilar tomonidan tovar va moliya bozorlarini, birinchi navbatda, iste'mol tovarlari bozorlarini monopollashtirish yuzasidan har qanday urinishlarning oldini olish, ularni cheklash va ularga barham berish;
- monopoliyadan chiqarish bo'yicha respublika, tarmoq va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi, shuningdek, o'z vakolati doirasida tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

- monopol birlashmalar (korxonalar)ning O'zbekiston Respublikasi Davlat reestrini yuritish;

- reklama va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- iste'mol tovarlari narxlari monitoringini o'tkazish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari bilan birgalikda narxlarning asossiz ravishda o'sib ketishiga, ichki bozorda sifatsiz iste'mol tovarlari sotilishi va xizmatlar ko'rsatilishiga olib keluvchi insofsiz raqobatning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish;

- monopol xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan samarali tartibga solish va nazorat qilishga, raqobat muhitini rivojlantirishga, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish va reklama faoliyatiga yo'naltirilgan normativ-metodologik bazani takomillashtirish.

Islohotlarning keyingi bosqichida xususiy sektorni rivojlantirish, korxonalar faoliyatini tabiiy monopoliyadan himoya qilishni kuchaytirish, bankrotlikka tushgan korxona va monopol tashkilotlarni qayta tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, raqobatni rag'batlantirish, raqobatni va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi bozor tizimi uchun sharoit yaratish, qolaversa, iste'molchilar huquqini himoya qilishni ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Bunda Prezidentimizning 2005- yil 30- apreldagi PF-3602-sonli "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. SHunga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini

boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etildi. Demak, monopoliyaga qarshi boshqaruv organining funksiyalari yanada kengaytirildi, va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2- maydagi PQ-66-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq, qo'mitaning vazifalari sifatida:

- xususiy sektorni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, jumladan xususiy tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holati va raqobatchilik qobiliyatini chuqur tahlil etish, Monopoliyadan chiqarish sohasida, jumladan yirik monopolist korxonalarni kichiklashtirish va tarkibiy jihatdan o'zgartirish, ular negizida ichki va tashqi bozorlarda samarali raqobat qila oladigan xususiy mustaqil ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo'yicha amaliy tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tabiiy monopoliya tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ulardan raqobat muhiti sharoitida faoliyat ko'rsata oladigan korxonalarni ajratib olish va xususiylashtirishni nazarda tutadigan dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tabiiy monopoliya korxonalari o'zlarining ichki bozordagi monopol mavqeidan foydalanib, ishlab chiqarayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar narxlarini asossiz ravishda sun'iy oshirishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida ular ustidan nazoratni amalga oshirish;

- yirik monopoliyalarning raqobatga zid harakatlarini, nopok raqobatchilar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan nohalol raqobatni, tovarlar va xizmatlar bozorlari monopoliya qilib olinishini cheklash hamda payini qirqishni ta'minlaydigan raqobat muhiti uchun huquqiy maydonni takomillashtirish;

- iqtisodiy nochor korxonalar to'g'risidagi masalalarni hal etish chog'ida davlat manfaatlarini ifoda etish, korxonalarni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularning bankrotligi sohasida davlat boshqaruvi vazifalarini amalga oshirish;

- iste'molchilar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish tizimini iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi jamoat tuzilmalari bilan mustahkam muvofiqlashtirgan holda tashkil etish;

- reklama sohasida nopok raqobatga yo'l qo'ymaslik maqsadida reklama bozorini tartibga solish, kabi vazifalar belgilandi.

8.5. “Ustun mavqe”, “iqtisodiy konsentratsiya”, “Insofsiz raqobat”,

“Kamsituvchi shartlar” kabi tushunchalar tavsiflari

“Ustun mavqe” tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir.

Tovar bozorida qaysi xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi:

1) ellik va undan ortiq foizni tashkil etsa;

2) o'ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo'lib, bunda quyidagi shartlar:

xo'jalik yurituvchi subyektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror bo'lib turishi;

tovar bozorida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo'lib turishi;

ushbu bozorga yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo'lishi shartlari belgilangan bo'lsa, shu xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqei ustun mavqe deb e'tirof etiladi.

Moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e‘tirof etish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

“Iqtisodiy konsentratsiya” - xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta’sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etish;

“Insofsiz raqobat”, shu jumladan:

boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektga zarar keltirishi yoki uning ishchanlik obro‘sga putur etkazishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri taqqoslashlar;

yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan, tovarni individuallashtirish vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalangan holda tovarni realizatsiya qilish;

tovarning xususiyati, ishlab chiqarish usuli va joyi, iste’mol xossalari, narxi, sifati, ishlab chiqaruvchining (bajaruvchining) kafolat majburiyatlari xususida iste’molchilarni chalg‘itish, xo‘jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarni uning tashqi bezatilishini, nomini, tamg‘alanishini, tovar belgisini va yuridik shaxsni individuallashtirishning boshqa vositasini takrorlash, reklama materiallaridan, tovarning firma o‘rovi va shaklidan nusxa ko‘chirish orqali qalbakilashtirish;

fan-texnikaga, ishlab chiqarishga yoki savdoga oid axborotni, shu jumladan, tijorat sirini egasining roziligisiz olish, undan foydalanish, uni oshkor etish;

tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektning kirishiga to‘siq qo‘yish taqiqlanadi.

Yuridik shaxsni individuallashtirish vositalariga, tovarni individuallashtirish vositalariga bo‘lgan mutlaq huquqni olish bilan bog‘liq insofsiz raqobatga yo‘l qo‘yilmaydi.

Monopoliyaga qarshi organning ushbu modda ikkinchi qismining tovar belgisiga bo‘lgan mutlaq huquqni olish xususidagi qoidalari buzilganligini e‘tirof

etish to'g'risida chiqargan qarori tovar belgisiga huquqiy muhofaza berish haqidagi guvohnomani haqiqiy emas deb topish uchun manfaatdor shaxs tomonidan intellektual mulk bo'yicha vakolatli organga yoki sudga yuboriladi.

“Kamsituvchi shartlar (sharoitlar)” - tovar yoki moliya bozoriga kirish, tovarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish, olish, realizatsiya qilish, o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish shartlari (sharoitlari) bo'lib, ular boshqa teng shartlarda (sharoitlarda) bitta yoki bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektning o'zga xo'jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) bilan taqqoslaganda teng bo'lmagan holatga solib qo'yadi.

6. Raqobatga qarshi harakatlarni turkumlash: ustun mavqeni suiiste'mol qilish. Raqobatni cheklaydigan kelishuvlar va bitimlar.

“Raqobatga qarshi harakatlar” - raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi) bildiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning pirovard natijada raqobatni cheklashga va (yoki) boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini kamsitishga olib keladigan harakatlari, shu jumladan, quyidagi harakatlari:

muomalada bo'lgan tovarlarning hajmini tovar yoki moliya bozorida taqchillikni keltirib chiqarish yoki saqlab turish maqsadida narxlarning oshishiga olib keladigan tarzda qisqartirishi;

tovarning monopol yuqori yoki monopol past narxlarini belgilashi;

shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan, moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatning cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishi;

shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar (raqobatchilar) tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarning olishini yoki realizatsiya qilishini taqiqlashi yoxud cheklashi;

kontragent tomonidan boshqa tovarlarni olish yoki realizatsiya qilish yoxud kontragentning tovarlarni o‘zga xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olishdan yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga realizatsiya qilishdan o‘zini tiyishi sharti bilangina shartnoma tuzishga rozilik berishi;

tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish imkoniyati bo‘la turib, shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortishi;

tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kirishiga to‘siqlar qo‘yishi tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni suiiste‘mol qilish deb e’tirof etiladi.

Tovar yoki moliya bozorida o‘zaro raqobatlashayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, potensial raqobatchilar bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi kelishib olingan harakatlar va bitimlar, agar bunday kelishib olingan harakatlar va bitimlar:

sun’iy ravishda narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlarni yoki ustama narxlarni belgilashga yoki saqlab turishga;

narxlarni sun’iy ravishda oshirgan yoki pasaytirgan holda erkin bozor narxlarining qaror topishiga to‘sqinlik qilishga;

ishlab chiqarish ustidan, mahsulot sotish bozorlari va kapital qo‘yilmalar ustidan nazorat o‘rnatishga;

taklif hajmini sun’iy ravishda o‘zgartirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini kelishib olishga;

shartnoma predmetiga taalluqli bo‘lmagan shartlarni, shu jumladan, moliyaviy mablag‘larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o‘zga shaxsga o‘tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatni cheklovchi boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishga;

auksionlarda, birjalarda va boshqa savdolarida narxlarni oshirishga, pasaytirishga yoki saqlab turishga;

shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishga;

tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, realizatsiya qilish yoki xaridlar hajmi bo'yicha, tovarlarning xillari bo'yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olishga;

boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tegishli tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari sifatida bozorga kirishini cheklashga yoki ularni bozordan chetlashtirishga yoxud xo'jalik yurituvchi subyektlarni muayyan tovarlar bozoriga qo'ymaslikka olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa, taqiqlanadi.

Biri tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan, boshqasi esa sotuvchi yoki sotib oluvchi bo'lgan, o'zaro raqobatlashmayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning kelishib olingan harakatlari va bitimlariga, agar bunday kelishib olingan harakatlar va bitimlar pirovard natijada raqobatni cheklab qo'ysa yoxud cheklab qo'yishi mumkin bo'lsa, shu jumladan:

sotuvchining yoki sotib oluvchining hududni yoki sotib oluvchilar doirasini tovarni keyinchalik qayta sotish maqsadida mustaqil belgilashini cheklaydigan;

tovarlarni qayta sotish uchun narxlarga cheklovlar belgilaydigan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni realizatsiya qilishni taqiqlaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlariga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu taqiq tovarlarni tovar belgisi, firma nomi va sotuvchining intellektual mulk obyektlariga bo'lgan boshqa mutlaq huquqlari orqali realizatsiya qilishni sotib oluvchi tomonidan tashkil etish to'g'risidagi bitimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirishi, agar bunday muvofiqlashtirish ushbu moddaning

birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan oqibatlarga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa, taqiqlanadi.

Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

8.6. Davlat siyosatining ishbilarmonlik faolligiga ta'siri.

Raqobat muhitini izchil rivojlantirish tizimi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasida ko'zda tutilganidek, faol davlat siyosatining ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bevosita tadbirkorlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashga yo'naltirilishi mumkin: xaridorlarning ixtisoslashgan toifalari yangi bozor "nisha"larini shakllantiradi va mahsulot standarti bo'yicha axborot manbasi hisoblanadi; asbob-uskunalar ta'minotchilari u bilan birga ishlab chiqarish tajribasini ham uzatadilar; resurslar ta'minotchisi ishlab chiqarishning yangi usul va g'oyalarining paydo bo'lishiga xizmat qiladi, raqobatchilar esa yangi g'oyalarning boy manbasini taqdim etadilar. Bunda davlat rivojlanish institutlari orqali texnologik va iqtisodiy qo'shilgan qiymat zanjirini ketma-ketlikda rivojlantirgan holda raqobatbardosh mahsulot yaratuvchi to'laqonli ishlab chiqarish tizimini yaratishga yo'naltirilgan loyihalarda ishtirok etishi lozim.

Bu raqobatbardosh mahsulotning barcha ko'rsatkichlariga javob beruvchi yakuniy mahsulotga ishlaydigan ko'p tarmoqli korxonalar yaratishga imkon beradi. Mamlakatning innovatsion siyosati va infratuzilmasi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi milliy innovatsion tizimini shakllantirish va rivojlantirish dasturi asosida takomillashtirilmoqda. Milliy innovatsion tizimning rivojlanishi ikkita asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi - innovatsion infratuzilmani yaratish va rivojlantirish hamda innovatsion faoliyat subyektlari o'rtasida samarali munosabatlar tizimini yaratish. Mamlakatda sanoat-innovatsion siyosatni amalga oshirish uchun potensial raqobatbardosh, jumladan, eksportga yo'naltirilgan, qo'shilgan qiymat iqtisodiy

zanjirini yaratuvchi ishlab chiqarish turlarini aniqlash maqsadida jahon bozorlarining rivojlanish tendensiyalari va tadbirkorlarning tashabbuslarini hisobga olgan holda vaqti-vaqti bilan iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish zarur.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi xudularda bozor isloxlari ko'lamini chuqurlashtirish va kengaytirish, modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va iqtisodiy tarmoklari raqobatdoshligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lida ishbilarmonlik va investitsiya muxitini takomillashtirish bo'yicha kabul kilingan choralarning amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishi - iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo'yicha, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom etish, xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'sqinliklar va cheklanishlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo'lida to'liq erkinlik berish, amaliyotda "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan prinsipni amalga oshirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvini qat'iy oldini olish; davlat mulkini xususiylashtirish tartib - taomillarini yanada kengaytirish va soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda tovar va moliya bozorlarini tizimli tahlil qilish va ushbu bozorlarda monopol mavqega ega bo'lgan korxonalarning raqobatga zid harakatlarini oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Qashqadaryo viloyatida 2018- yilning

9 oyida 22 ta moliya va tovar (xizmat) turlari bozorlari, jumladan qishloq joylarda servis va xizmat ko'rsatish, sertifikatlashtirish, suyultirilgan gaz, siqilgan gaz bilan to'ldirish va boshqa tovar (xizmat) hamda moliyaviy bozorlar tahlil qilindi. Viloyatda raqobat muhitini rivojlantirish hamda tovarlar va xizmatlar bozorlarida monopollashuv darajasini pasaytirish maqsadida 3 ta korxona (3 ta xizmat turi bo'yicha) reestrda chiqarildi.

Hududda tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestri ro'yxatida 2018- yil 1- oktyabr holatiga ko'ra, 18 ta xo'jalik yurituvchi subyekt 16 turdagi mahsulot, ish va xizmatlar turi (pozitsiyasi) bo'yicha turadi. Jumladan, tovar ishlab chiqarish bo'yicha 7 ta xo'jalik yurituvchi subyekt 3 ta mahsulot turi hamda 11 ta xo'jalik yurituvchi subyekt 13 ta ish va xizmatlar turi bo'yicha tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestri ro'yxatida qayd qilingan.

Monopol mahsulotlar va xizmatlar narxlarini majburiy deklaratsiya qilish mexanizmi orqali ularning asossiz o'sishining oldi olinmoqda. Oxirgi 10 yil mobaynida olib borilgan monopoliyaga qarshi siyosat natijasida monopol korxonalarining soni 68 tadan 18 tagacha, monopol mahsulot va xizmatlar esa 126 tadan 16 tagacha qisqardi. Faqatgina 2009-2014 yillarda monopol mahsulot va xizmatlarning YAHMdagi ulushi 54,8 foizdan 26,4 foizga pasaydi.

Monopollashish darajasini sifatli baholash indikatori (1,0 foizgacha) bo'yicha joriy yilning o'tgan uch choragida viloyatdagi shahar va tumanlar kesimida monopollashish darajasi past darajada, ya'ni monopollashish darajasi 0,001 foizdan 0,005 foizgacha bo'lgan ko'rsatkichlarni tashkil qilgan. Birja narxlari ustidan va yuqori likvidli, monopol mahsulotlarning birjada bir me'yor va maromda sotilishi bo'yicha tasdiqlangan oylik grafiklar ustidan qat'iy nazorat o'rnatilib, bajarilishi ta'minlanmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga shart-sharoit va qulayliklar yaratilishi natijasida bu davrda ular tomonidan chiqarilgan mahsulotlar (uzbex) ko'rgazma-

yarmarka savdosi orqali sotilishi o'tgan yilning to'qqiz oyidagiga nisbatan 163,9 foizga bajarilgan. Bozor ishtirokchilari uchun teng sharoit yaratish maqsadida 255 ta tender savdolarida boshqarma mutaxassislari ishtirok etib, shundan 240 tasi bo'yicha boshlang'ich narxlarning asossiz o'sishi oldi olindi va qurilish ishlari qiymatlari 9,8 mlrd. so'mga kamaytirildi.

Hisobot davrida ya'ni 2018- yil yakuni bo'yicha korxonalarda mahsulot tannarxini qisqartirish bo'yicha belgilangan maqsadli parametrlarning bajarilishi yuzasidan o'rganishlar amalga oshirildi, natijada 16 ta korxonada jami 61,3 mlrd. so'mga mahsulotlar tannarxi pasaytirildi. 7 ta shahar va tuman hokimliklarining 20273 ta qaror, farmoyish va yozishmalari xatlov qilinib, 58 ta holatda raqobat muhiti va tadbirkorlarning manfaatlariga zid holatlar aniqlandi va bartaraf etildi.

9-bob. MONOPOLIYALARNI TARTIBGA SOLISHNING HORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

9.1. Sanoat va savdoni himoya qilish bo'yicha dastlabki yondoshuvlar.

O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmanistonni qamrab olgan Markaziy Osiyo aholisi 72 milliondan oshdi. 2017- yilda mintaqa ichki bozor aylanmasi 150 mlrd. AQSH dollari bo'ldi. Mintaqaning aksariyat mamlakatlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ma'lum darajada investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

“Boston Consulting Group” (BCG) kompaniyasi tahlilchilari mazkur mintaqa keyingi 10 yil ichida 170 mlrd. AQSH dollarigacha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyatiga ega, shundan 40-70 mlrd. AQSH dollari iqtisodiyotning xomashyo bo'lmagan sektorlariga to'g'ri keladi, deb hisoblaydi.

BCG mutaxassislari fikricha, makroiqtisodiy barqarorlik, tabiiy resurslarning ulkan zaxirasi, katta ichki bozor va ko'p sonli ishchi kuchining mavjudligi mintaqaning asosiy ustunligidir. Shunga qaramasdan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, asosan, qazib olish va xomashyo tarmoqlariga yo'naltirilmoqda.



8-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy salohiyat²³

²³ <https://uzanalytics.com/iqtisodi>

BCG biznes strategiyasi bo'yicha etakchi maslahat beruvchi xalqaro kompaniya hisoblanadi va dunyoning 50 ta mamlakatida ofislariga ega. Kompaniyaning Markaziy Osiyo (MO) mamlakatlari investitsiya salohiyatiga bag'ishlangan batafsil hisoboti mukammal tadqiqotlari mahsulidir. Unda mintaqaning innovatsion rivojlanishdan orqada qolish sabablari, investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi muammolar, asosiy xavflar va mintqa salohiyatini ro'yobga chiqarish yo'llari ko'rsatib beriladi.

MO mamlakatlarini umumiy tarix va madaniyat birlashtirib turadi. Kompaniya hisobotida qayd etilganidek, madaniyatlar umumiyliigi mintaqaning bir xil ijtimoiy qiyofasida o'z aksini topgan. Uning asosiy jihatlari quyidagilardir:

- Hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi ulkan masofa;
- Past darajadagi individualizm (kollektivizm foydasiga);
- Noaniqlikdan qochishga bo'lgan intilish.

Ushbu uchta ko'rsatkich mintaqaning innovatsion rivojlanishdan ancha orqada qolayotganini ko'p jihatdan belgilab beradi. Mintaqa aholisi rivojlanish va muvaffaqiyatga erishishga intilish o'rniga xavflarga nisbatan sabrsizligi va barqarorlikni afzal ko'rishga moyilligi bilan ajralib turadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyot tuzilmalari deyarli bir-biriga o'xshash. Ularda tabiat resurslari asos bo'lgan qazib olish va xomashyoga ixtisoslashgan tarmoqlar ustunlik qiladi. Bundan tashqari, mintqa mamlakatlari iqtisodiyotlari ish kuchining arzonligi va agrosanoatlashgan salohiyat singari bir qancha umumiy afzalliklarga ham ega. MONing barcha mamlakatlari ham turli islohotlarni amalga oshirish orqali ko'proq investitsiya jalb qilishga intilmoqda. Biroq ushbu islohotlarning ko'lami va darajasi mamlakatiga qarab farq qiladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng turlicha rivojlandi. Qozog'iston iqtisodiyoti qo'shni mamlakatlar iqtisodiyotidan anga ilgarilab ketdi. Garchi bu erda mintqa aholisining 1/4 qismi istiqomat qilsa-da,

bugungi kunda YAIMning 60 foizdan ortig'i ushbu mamlakat iqtisodiyoti hissasiga to'g'ri kelmoqda. Tojikiston va Qirg'iziston iqtisodiyotining rivojlanish sur'ati past yoki sekin. Bu ham etmaganday, ular mehnat migrantlarining po'l o'tkazmalariga o'ta tobe. Mintaqa YAIMda Tojikiston va Qirg'izistonning ulushi 3 foizdan ham oshmaydi. SHuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari investitsiya muhitida ham ancha-muncha tafovut mavjud. Sarmoyadorlar uchun ularning jozibadorlik darajasi bir-biridan keskin farq qiladi. «Biznes yuritish» (Doing Business) reytingidagi turlicha o'rinlari ham buni tasdiqlaydi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar sur'ati ushbu tafovutni yanada kuchaytirishi mumkin. Qozog'istondagi jadal o'zgarishlar va O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar mamlakatlarning jozibadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.



9-rasm. Dunyoning ayrim mamlakatlarida 2008-2016 yillarda kiritilgan jami investitsiyalar to'g'risida ma'lumot

Bundan tashqari, mintaqa ichidagi mustahkam bo'lmagan iqtisodiy va savdo hamkorligi ham mamlakatlar taraqqiyotida ancha farq borligidan dalolatdir. 2016

yilda beshta mamlakat jami eksportining 6 foizdan kamrog'i ichki mintaqaviy savdoga to'g'ri kelgan edi. Qozog'iston umumiy eksportining 5 foizdan kamrog'ini, O'zbekiston umumiy eksportining 13 foizini, Tojikiston umumiy eksportining 1 foizdan ozrog'ini mintaqaviy savdo tashkil etadi.

SHu kungacha Markaziy Osiyoga yo'naltirilgan investitsiyalarning eng katta – 59 foizlik ulushi xomashyo tarmoqlariga qaratilgan edi. Telekommunikatsiya, savdo, moliyaviy xizmatlar kabi sektorlarga investitsiyalarning qariyb 9 foizi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich umumjahon darajasidan ancha past.

BCG kompaniyasi Markaziy Osiyo mintaqasida investitsiya salohiyati nisbatan ko'proq bo'lgan uchta tarmoqni belgiladi: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, neft kimyosi sektori va turizm. Ayni tarmoqlar quyidagi mezonlar asosida saralab olindi:

- nisbatan past darajadagi investitsiyalar;
- tarmoqlarga kirib borish uchun to'siqlarning kamligi;
- ularning Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari uchun ustuvor tarmoqlar ekani.

9.2. Napoleonning Fuqarolik kodeksi. Kanada yondoshuvi (1889 yil)

1806- yilda Reyn ittifoqiga asos solinib, unga dastlab 16 ta, keyin yana 5 ta german davlati kirdi. Reyn ittifoqi rasman davlat suverenitetidan mahrum etilmagan monarxiyalarning ittifoqi sifatida vujudga keldi. Lekin ularning Napoleon bilan munosabatlari syuzerenitet-vassalitet munosabatlariga asoslanardi. Reyn ittifoqi Napoleonning protektorati ostida edi. Bu ittifoqqa kirgan davlatlar «Muqaddas Rim imperiyasi» tarkibidan chiqqanliklarini e'lon qildilar. Bu davlatlarda dvoryanlar va ruhoniylar imtiyozlari bekor qilindi, cherkov erlari tugatildi, moliya, ma'muriy sud ishlari fransuzlarnikiga o'xshab isloh qilindi, ba'zi joylarda Napoleonning 1804 yilgi «Fuqarolik kodeksi» joriy qilindi. Nemis qishlog'idagi munosabatlarning o'zgartirilishi eng muhim islohot edi: krepostnoy qaramlik bekor qilinib, senorlarga

to'lanadigan to'lovlardan va o'taladigan majburiyatlardan haq to'lab qutilish uchun, shuningdek dehqonlarni mulkdorlarga aylantirish uchun birinchi qadam tashlandi. 1807- yilda Prussiya Fransiya bilan bo'lgan urushda qaqshatqich mag'lubiyatga uchraganidan keyin pruss dvoryanlari burjua xarakterida islohotlar o'tkazishga qaror qildilar. Bu islohotlar ichida eng muhimi 1807- yilgi farmon bilan dehqonlarning shaxsiy qaramligini tugatilishi va erlarning erkin tarzda olish-sotishning joriy qilinishi bo'ldi. Farmonda dvoryanlarga sanoat va savdo bilan shug'ullanish, shahar aholisiga va dehqonlarga esa yunkerlarning imeniellarini sotib olish ruxsat etildi. Biroq farmonda dehqonlar zimmasidagi hamma majburiyatlar, shuningdek pomeschikning sud qilish va ma'muriy hokimiyati daxlsiz saqlab qolindi.

1804- y., 21- marta – Fransiya fuqarolik kodeksi (1807- y.dan – “ Napoleon Kodeksi”deb atalgan) qabul qilindi.

Umumiy huquqni o'zlashtirib olinishi XIX asrda hatto tarixiy sharoitlar taqozosi bilan u yoki bu darajada ispan (Floridada) yoki Meksika (Texasda) qonunlari qo'llanilgan shtatlarida ham sodir bo'ldi. Hatto Napoleon kadifikatsiyasini qabul qilgan va uning namunasida 1825 yilda fuqarolik kodeksi tuzgan Luiziananing huquqiy tizimi ham XIX-XX asrlarda umumiy huquq an'alarining sezilarli ta'sirini boshidan kechirdi. Garchand ko'p amerika huquqiy institutlari ingliz huquqidan ishlab chiqilgan bo'lsa ham, AQSH umumiy huquqi Angliya huquqining oddiy bir turi yoki nusxasi bo'lmadi.

1804- yilgi Fransiya fuqarolik kodeksi. YUqorida aytib o'tganimizdek, 1789-1794 yillardagi inqilob davridayoq ko'pgina sof o'rta asrlarga oid fuqarolik huquqiy institutlari tugatildi va hozirgi zamon huquqiga asos solindi. Fransuz burjuaziyasi inqilob davomida nafaqat fuqarolik huquqini yaratish, balki uni tizimlashtirish yo'lida ham muhim qadamlar qo'ydi. 1791- yilgi Konstitutsiyada fuqarolik qonunlarining kodekslashtirilishi haqida ko'rsatilgan edi. Biroq bir-birini o'zgartirib turgan hukumatlarning etarli darajada mustahkam emasligi huquqdagi barqarorlikni ta'minlab bera olmasdi.

Faqatgina XIX asr boshida, Napoleon Bonopart hukmronligi davrida yagona va barqaror fuqarolik kodeksi qabul qilish uchun zarur shart-sharoitlar etildi va 1804 yilda Fuqarolik kodeksi qabul qilindi.

Fuqarolik kodeksini ishlab chiqishda o'sha vaqtning taniqli yuristlari – Portalis, Tronshe, Malvil va boshqalar ishtirok etdi. Ular rim huquqi, inqilobdan avvalgi sud amaliyoti va kutyumlarni yangi jamiyat ehtiyojlariga moslashtirib qayta ishlab chiqdilar.

9.3. Antitrest qonunlar. SHerman va Kleyton qonunlari

Butun dunyoda barcha davlatlar tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida hamda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash uchun raqobat to'g'risidagi qonunchilikni shakllantirishga keng e'tibor qaratiladi. Bu turdagi qonunlar barcha davlatlarning qonunchilik tizimidan muhim o'rin egallagan. Misol uchun, 1889 yilda qabul qilingan Kanadaning¹³ antimonopol qonuni raqobat borasidagi qonun shaklidagi hujjatlarning birinchisi deyish mumkin. Mazkur qonun raqobatni rag'batlantirish va Kanadaning dunyo savdosiga chiqishini maqsad qilib qo'ygan edi. Raqobatni muhofaza qilishga doir dastlabki qonunlar AQSHda Fuqarolar urushi tugashi bilan qabul qilingan. AQSH qonunchiligiga ko'ra bunday turdagi qonunlar antitrest qonunlari sifatida qayd etiladi. Bu ingliz tilidagi "Antitrust Law" atamasi asosida vujudga kelgan. Bunday qonunlarning birinchisi Merilend shtatida 1867-yilda qabul qilingan qonun hisoblanadi. 1890- yilda AQSHda "SHerman qonuni" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan Federal qonun kuchga kirgan. Mazkur qonunga ko'ra, shtatlararo savdo aloqalarini cheklashga qaratilgan bitimlarni tuzish, muayyan turdagi tovarlar savdosida monopolistik faoliyatni vujudga keltirish taqiqlab qo'yilgan. Evropada esa bu boradagi dastlabki qonun 1923- yilda Germaniyada qabul qilingan. Bu qonunning qabul qilinishiga sabab xususiy sektordagi tadbirkorlar tomonidan narx-navoning haddan ortiq oshirib yuborilgani edi. Lekin bu qonun iqtisodiy jarayonni deyarli tartibga sola olmagan. G'arbiy Evropada tom ma'nodagi

antimonopol qonun 1950- yillarda vujudga keldi. 1958- yil 1- yanvarda Evropa iqtisodiy ittifoqini tashkil etish to'g'risida Rim shartnomasi kuchga kirdi. Mazkur shartnomadagi raqobatni muhofaza qilishga qaratilgan normalar hozirgi kunga qadar ham a'zo davlatlar huquq normalaridan ham ustun turuvchi normalar hisoblanadi. Rim shartnomasi raqobatga zid xatti-harakatlarni taqiqlovchi ikki holatni o'zida aks ettirgan: birinchidan, raqobatga zid kelishuvlarni, assotsiatsiyalar(birlashmalar), kompaniyalarning raqobatga zid qarorlari, raqobatga zid kelishib olingan xattiharakatlarni taqiqlash, shuningdek, assotsiatsiya(birlashmalar) va kompaniyalarning yo'l qo'yilishiga ruxsat beriladigan kelishuvlari haqida qayd etilgan; ikkinchidan, tovar bozorlarida kompaniyalarning ustun mavqeni suiste'mol qilishini taqiqlashga doir holat. Mazkur taqiq hech qanday istisnolarga yo'l qo'ymagan. Dunyo miqyosida raqobatni huquqiy tartibga solish borasidagi normalarni 1883- yildagi Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasida ham uchratish mumkin. Xususan, mazkur konvensiyada insofsiz raqobat tushunchasi tarif berilgan. Ushbu konvensiyaning 10-bis moddasiga ko'ra, Ittifoqqa a'zo bo'lgan davlatlar a'zo davlatlarning fuqarolarini insofsiz raqobatdan samarali himoya qilishini ta'minlash shart. Mamlakatimizda raqobat tushunchasining legal ta'rifi mavjudligi ijobiy holat hisoblanadi. SHu bilan birgalikda mazkur tushunchaning yuridik ma'nosi bilan birgalikda iqtisodiy kategoriya sifatidagi ahamiyatini ham unutmaslik maqsadga muvofiqdir.

AQSHning monopolizmga qarshi qonuni amaliyotdagi qat'iy belgilangan qonunlardan biri hisoblanadi. XIX asr oxirlariga kelib, ushbu mamlakat jamoatchiligi stixiyali bozor mexanizmini ayrim firmalar egallab olishidan, ularning yakka hokimlikka olib keluvchi kelishuvlaridan himoya qilinmagan degan xulosaga kelishgan. Raqobatchilarning iqtisodiyotdan tashqari yakkalanishi hollarining, shuningdek bozorlarni taqsimlab olish va narxlarni oshirish haqidagi bitimlarning ko'payishi AQSH Kongressini 1890- yilda trestlarga qarshi birinchi qonunini – "raqobat tizimining konstitutsiyasi" deb ataladigan SHerman hujjatini qabul

qilinishiga sabab bo'lgan. SHerman hujjati bozorni o'sha davrda hukmron bo'lgan tarmoq monopoliyalaridan himoya qilishni ko'zda tutadi. Keyinchalik SHerman qonuni AQSHda ham boshqa mamlakatlarda ham monopolizmga qarshi qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. SHuningdek, monopolizmga qarshi qonunchilikni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi ishlab chiqildi, u o'z ichiga turli davlat muassasalari, parlament, hukumat, turli darajadagi sudlar faoliyatini qamrab oldi. Bu hujjat o'sha davrdagi ishlab chiqarishni tartibga solish va monopolistik faoliyatga yo'l qo'ymaslik, halol raqobatni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni hal etishga yordam berdi.

1914- yilda kongress Kleytonning trestlarga qarshi qonunini qabul qildi. YAngi qonun SHerman qonunining asosiy moddalarini o'z kuchida qoldirib, shu bilan birga, «kasaba uyushmalar va fermerlarning tashkilotlari erkin savdoni cheklashga qaratilgan bitim deb hisoblanmasligi lozim» deb maxsus pisanda qilib qo'ydi. Ayrim islohotlar o'tkazish siyosati Vilsonning ish tashlagan ishchilarni juda shafqatsizlik bilan jazolashiga halaqit bermadi, 1913- yil kuzida Koloradoda katta ish tashlash boshlanib ketdi. Ular kasaba uyushma tashkil etish huquqini tan olishni, 8 soatlik ish kuni joriy etishni, ish haqini 10 foiz oshirishni, ish soatidan ortiq ishlangan mehnatga haq to'lashni va shu kabilarni talab qilib ish tashlash e'lon qildilar. Biroq u shafqatsizlarcha o'qqa tutilib bostirildi.

9.4. Tadbirkorlar va iste'molchilarni himoya qilish bo'yicha

Magnusson-Moss qonuni

Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun shaxsni (yoki shaxslar guruhi)ni fuqarolik huquqiy javogarlilik chorasini qo'llashda huquq buzilgan shaxsga huquqi buzilgan shaxs tomonidan etkazilgan zararni moddiy ko'rinishda qoplab berishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1- moddasi birinchi qismida belgilangan xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligi, fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga

oshirilishi, mulkning daxlsizligi, munosabat ishtirokchilarining tengligini e'tirof etish prinsiplari bozor munosabatlari sharoitida uning ishtirokchilar tomonidan amal qilishi lozim bo'lgan qoidalarni o'zida mustahkamlaydi. Mazkur qoidalar bozor munosabatlari ishtirokchilarining amal qilishi lozim bo'lgan qat'iy qoidalarni o'zida ifodalaydi.

Har bir davlatda biror bir sohani tartibga solishga qaratilgan qonunchilik ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu qonunchilikni ijrosini ta'minlashga qaratilgan davlat organlari mavjud bo'ladi. Bozor iqtisodi shiddat bilan rivojlanishi bilan raqobat ham birday rivojlanib boradi. Monopoliyaga qarshi organlari faoliyati bilan ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak. Rossiya Federatsiyasida raqobatni tartibga solishga vakolatli organ Federal monopoliyaga qarshi xizmat hisoblanadi. Federal monopoliyaga qarshi xizmat tovar bozorlarida va raqobat sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, tabiiy monopoliya va reklama subyektlari faoliyatida, moliya xizmatlari bozorida raqobatni himoya qilish hamda ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish funksiyasini amalga oshiruvchi ijro hokimiyatning vakolatli organi hisoblanadi. SHuningdek, ushbu organ mahalliy va davlat ehtiyojlari uchun tovarlar, ishlar, xizmatlarni ayirboshlash sohasidagi shartnomaviy munosabatlarga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirida, Rossiya Federatsiyasida xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha ham nazorat funksiyasini bajaradi. Rossiya Federatsiyasi hukumatining 2014- yil 25- dekabdagi 1489-son Qaroriga binoan Federal monopoliyaga qarshi xizmatiga Mudofaa buyurtmalari bo'yicha Federal xizmatning davlatning mudofaa buyurtmalari sohasida nazorat funksiyasi o'tkazildi. Ushbu qaror 2015- yilning 1- yanvaridan kuchga kirdi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentning 2015- yil 21- iyuldagi 373-son Farmoniga ko'ra Federal monopoliyaga qarshi xizmatiga tariflarni boshqarish sohasida funksiyalar berildi.

Ushbu organ Rossiya Prezidentining 2004- yil 9- martdagi 314-son Farmoniga binoan tashkil etilgan. Hukumat tomonidan 2004- yilning 30- iyunida "Federal

monopoliyaga qarshi xizmat to'g'risidagi Nizom" qabul qilingan. Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida Federal monopoliyaga qarshi xizmatning 84 ta hududiy organlari o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Janubiy Koreyada raqobatni tartibga soluvchi organ Koreya Respublikasining adolatli savdo bo'yicha komissiya hisoblanadi. Ushbu organ 1980- yil 31- dekabrda "Monopoliyani tartibga solish va adolatli savdo to'g'risida"gi 3320-son Qonunini qabul qilinishi bilan 1981- yilda tashkil topgan. Ushbu organ raisi vazir darajasiga tenglashtirilgan. Xitoyda raqobat sohasini tartibga soluvchi organ Xitoy Xalq Respublikasi Tijorat vazirligi (avvalgi Iqtisodiy hamkorlik va tashqi savdo vazirligi) hisoblanadi. Ushbu vazirlikning asosiy vazifalari tashqi savdo masalalari bo'yicha siyosatni ishlab chiqish, eksport va importni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish, ikki va ko'ptomonlama savdo bitimlarini tuzish va raqobat bozorini tartibga solishdan iborat. Vazirlik majburiyatiga, shuningdek maxsus ma'muriy hududlar (Gonkong va Makao) bilan mustahkam iqtisodiy hamkorlik o'rnatish kiradi²¹. Qozog'iston Respublikasi raqobatni tartibga soluvchi organ bo'lib, hukumat tarkibiga kirmaydigan Qozog'iston Respublikasi tabiiy monopoliyalarni tartibga solish bo'yicha agentlik hisoblanadi. Agentlik tabiiy monopoliyalar sohasida va bozorni tartibga solish, shuningdek telekommunikatsiya va pochta aloqasi, temir yo'l transporti sohasida tovarlar va ishlar tartibga solish, elektr va issiqlik energiyasi, gaz va neftmahsulotlari, fuqaro aviatsiyasi hamda Qozog'iston Respublikasi Hukumati tomonidan o'rnatilgan narh siyosatini ham tartibga soladi.

9.5. Davlat monopoliyasiga keynschilikdagi munosabat

Monopoliyaga qarshi boshqaruvning tashkiliy va huquqiy asoslarini yaratish, uning faoliyatini tartibga solishda davlatning aralashuvi xususiy va ijtimoiy sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy va xalqaro iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimotining mutanosib rivojlanishini ta'minlashda dolzarb hisoblanadi. Shular bo'is, barqaror iqtisodiy taraqqiyotni tashkil etish va bozor muvozanatiga erishishda,

jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini oqilona qondirish darajasini oshirish vazifalarini hal etishda milliy iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi siyosatni takomillashtirish zaruriyati ortmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini pasaytirishda davlatning qonunchilik, ijro etish va nazorat qilishdan iborat tadbirlar tizimi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lajak mutaxassislarning globallashtirish sharoiti talablariga javob bera olishlari uchun iqtisodiy o'zgarishlarini to'g'ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni kelgusida samarali boshqara olishlari masalasi dolzarb hisoblanadi. YA'ni, mazkur fan xususiyatlari doirasida monopoliyalar faoliyatini tartibga solishning qoida va xulosalarini puxta o'zlashtirish hamda ijodiy yondashuvni ta'minlash talab etiladi.

Monopoliyaga qarshi boshqaruvning tashkiliy va huquqiy asoslarini yaratish, uning faoliyatini tartibga solishda davlatning aralashuvi xususiy va ijtimoiy sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy va xalqaro iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimotining mutanosib rivojlanishini ta'minlashda dolzarb hisoblanadi. SHular bois, barqaror iqtisodiy taraqqiyotni tashkil etish va bozor muvozanatiga erishishda, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini oqilona qondirish darajasini oshirish vazifalarini hal etishda milliy iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi siyosatni takomillashtirish zaruriyati ortmoqda.

Bozor xo'jalik sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatlarida tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Monopoliyaga qarshi boshqaruvni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv imkoniyati iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish va kapital to'planishi ma'lum darajaga erishganda vujudga keladi. Iqtisodiy rivojlanishda qiyinchiliklar o'sib va ziddiyatlar to'planib borishi bu imkoniyatlarni haqiqatga aylantirishni zarur qilib qo'yadi.

Hozirgi sharoitda monopoliyaga qarshi boshqaruvni, monopol narxni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

Davlat tomonidan monopol narx tartibga solinishining asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tizimni mustahkamlash (mamlakat ichida va xalqaro maydonda) va o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular tarkibiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish; atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini engillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'lishdir.

Raqobat bozor iqtisodiyotining asosiy belgilaridan biri, deb ta'riflasak ham bo'ladi. Raqobat sharoitida ishlab chiqaruvchilar doimo xaridorlar yoki iste'molchilarning ehtiyojlarini oldindan bilib, ularning moliyaviy ahvoriga mos ma'lumot ishlab chiqarilishini talab qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, raqobat sharoitida ishlab chiqaruvchilarning xaridorlarga bo'ysunadi. Raqobat sharoitida ko'plab xaridorlar bildirgan talab va sotuvchilarning taklifi bozor narxlarini belgilaydi. Raqobat sharoitida xaridorlar shoh, ishlab chiqaruvchilar ularning xizmatkoridir. Ammo monopoliyada aksincha jarayon kuzatiladi. YA'ni, endibozor xaridorlarning xohish-istagi emas, ishlab chiqaruvchining xohish-istagi asosida amalga oshiriladi. Boshqacha qilib ayiganda, monopol hukmdor, xaridor unga bo'ysinuvchidir.

Monopoliyalar o'zlarining takliflari umumiy hajmini tartibga solish layoqatidan foydalanib, mahsulot hajmini sun'iy cheklash orqali ularga ancha yuqori

narx belgilash va shu orqali barqaror foyda olishi mumkin. Bozor munosabatlari tizimida monopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat oʻrnatiladi.

Birinchi usulda, texnologiya va iqtisodiy sharoitlar “raqobatli bozor mavjud boʻlish imkoniyatini yoʻqqa chiqaruvchi tabiiy monopoliyalar”, deb nom oladigan tarmoqlarda davlat narxlarini tartibga soladi va koʻrsatilgan xizmatlar andozalari oʻrnatiladi. Transport, aloqa, elektr quvvati, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar maʼlum darajada shunday tartibga solinadi.

Ikkinchi usulda, samarali ishlab chiqarish juda koʻpchilik bozorlarda raqobat rivojining juda yuqori darajasini taʼminlash sababli davlat raqobatini kuchaytirish va himoya qilish maqsadida monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qilishdan iboratdir.

1914 yilda qabul qilingan yana bitta trestlarga qarshi qonun – Federal Savdo Komissiyasi (FSK) AQSH Hukumatiga boʻysunmaydigan, mustaqil vakolatli organi tuzdi. U erkin va insofli savdo-sotiqni ilgari surishga javob bergan. FSK toʻgʻrisidagi Qonunning 5 moddasi raqobatni insofsiz usullarini ... qonundan tashqari deb eʼlon qilgan. Ushbu modda taʼsiriga tushadigan xatti-harakatlar bir necha oʻn yilliklar mobaynida kengayib borgan. Kongress ataydan ushbu qonundagi tushunchaga taʼrif keltirmagan, buning sababi FSK ushbu xatti-harakatlarni koʻrib chiqishida kengroq vakolatlarga ega boʻlishi va ularga nisbatan tez chora koʻrishi uchun shunday qilingan.

1927 yilda Oliy Sud “per se ” doktrinasini kiritilishi haqida eʼlon qildi. Ushbu qoidaga binoan, sudlar “per se” qoidasiga binoan chora koʻriladigan xatti-harakatlar toifalarini kengaytirib borganlar, yaʼni mazkur xatti-harakat raqobatga zarar etkazadimi yoki etkazdimi qatʼiy nazar koʻrib chiqmasdan hukm chiqarganlar. Ushbu tendensiya Keynsian iqtisodiyotini keyingi vaqtlarda keng tarqalishi va iqtisodiyotni neoklassik nazariyasidan voz kechish bilan bogʻliqdir. Ushbu davrda sudlar “per se” taʼsiriga tushmaydigan bitimlar va harakatlarni raqobatga koʻrsatadigan taʼsirini iqtisodiy tahlil qilishga unchalik chuqur yondashmaganlar.

1936 yilda Kongress Robinson-Petman Qonunini qabul qildi, ushbu qonun ma'lum sharoitlarda narx sohasida kamsitishni taqiqlagan. Ushbu qonunning ta'siri "faqat Amerika Qo'shma SHtatlarida sotiladigan, iste'mol qilinadigan yohud qayta sotiladigan" tovarlar yoki mahsulotlarga taalluqli bo'lgan bitimlarga tegishli bo'lgan.

1970 yillar Xarta-Skotta-Rodinoni Trestlarga qarshi O'zgartirishlar to'g'risida qonunni qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu qonun agar bitim tomonlar hajmi va bitim hajmi sinov shartlarini qondirsa, u holda ushbu bitim to'g'risida oldindan ma'lum qilish tartibini belgiladi. Bitim to'g'risida ma'lum axborotni ilova qilgan qolda tuzilgan bildirishnoma (buyurtmanoma) FSK yoki YUstitsiya Departamentini Trestlarga qarshi Boshqarmasiga topshiriladi. Trestlarga qarshi O'zgartirishlar to'g'risida qonun shuningdek Kleyton Qonunini 7 moddasiga binoan ko'rib chiqiladigan qo'shilib ketishlar to'g'risidagi bitimlar bo'yicha da'volar sonini keskin kamaytirgan.

9.6. Me'yoriy va pozitiv nazariyalarning shakllanishi

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish nazariyasini shakllantirish, uning doimiy to'ldirib borilishi amaldagi va kelajakdagi menejerlar uchun samarali qarorlar qabul qilish usullari bilan bog'liq bo'lgan bilim va ta'lim jarayonlarini engillashtiradi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish nazariyasi ilmiy asoslangan qarashlar tizimi sifatida ushbu boshqaruv faoliyati aspektida 60 yillar oldin taxlana boshlagan nazariya asoschilari bo'lib ameri-kalik tadqiqotchilar CH.Barnard, E.Stin, keyinroq K.Ridli va S.Gay-mon hisoblanishadi.

Hozirgi vaqtda boshqaruv qarorlarini qabul qilish nazariyasi etarlicha tugallangan shakl ko'rinishida bo'lsada, uning ko'pgina qir-ralari umum qabul qilinmagan bo'lib, chuqur tahlilni talab etadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy nazariyasi o'ziga matematik, iqtisodiy huquqiy, psixologik va boshqa fanlar-ning yuqori natijalari hisoblangan topilmalar, muammolar, yangi-liklarni tanlaydi.

Boshqaruv qarorini qabul qilishni o'rganishda shuni nazarda tutish lozimki, u ikki muhim shaklda namoyon bo'ladi:

1. Me'yoriy nazariya - qarorni qanday qabul qilishni yoritish;
2. Pozitiv nazariya – menejerlar tomonidan turli qarorlar haqiqatda qanday qabul qilinadi va bunda ular qanday xatolarga yo'l qo'yishlarini yoritish.

Bu nazariya shakllaridan har qaysisi turlicha maqsadlarni nazarda tutib, bunda mavjud yoki taklif etilayotgan texnologiyani kim amalga oshiradi yoki ushbu muomila va takliflar natijalarini kim o'rganib yoritadi. SHunga qaramay menejerlar odatda boshqaruv faoliyatidagi o'zi-ning professional mahoratini oshirish maqsadida ikkala nazariya shaklini ham to'liq o'zlashtirib olishga harakat qiladi.

XX asr iqtisodiyotni erkinlashuvi, bozorlarni ochilishi va tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlashda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar davlat boshqaruviga emas, balki bozor kuchlariga suyuq boshlaganiga guvoh bo'ldi. Raqobat siyosati iqtisodiy erkinlikni rag'batlantirish, ba'zida esa mustaqil xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida raqobatni talab qilish yo'li bilan qo'llab-quvvatlaydi. SHu sababli barcha rivojlangan mamlakatlar o'zlarining raqobatga qarshi qonunlarini yanada kuchaytirdilar, shu vaqtni o'zida ba'zi mamlakatlar savdo-sotiqqa to'sqinlik qiluvchi, va keyinchalik boshqa xatti-harakatlar bilan qaytadan vujudga keltirilishi mumkin bo'lgan to'siqlarni barataraf etadigan yangi qonunlarni kiritdilar.

Azaldan, raqobat siyosati avvalambor iqtisodiyoti rivojlangan, ichki raqobat tijoratda muhim omil hisoblangan mamlakatlardagi raqobat jarayonini himoya qilish uchun qo'llanib kelingan. SHundan kelib chiqqan holda, eng jiddiy raqobat siyosati AQSH, Germaniya va EH kuzatiladi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilik uchun model sifatida xizmat qilgan va uni jahonning boshqa mamlakatlariga tarqatishga asos bo'lib xizmat qilgan Amerika va Germaniya tizimlarida raqobat to'g'risidagi qonunni belgilash va uni amalga oshirishda sud qarorlari markaziy (asosiy) rolni bajaradilar. Xuddi shunday jihat Avstraliya, Yaponiya, Koreya, Kanada, Fransiya va EH bor. Va aksincha, sud

qarorlari Buyuk Britaniya, Ispaniya va SHvetsiya qonunlarida unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu mamlakatlar mazkur qonunni amalga oshirish va ta'riflash ma'muriy sudlarda va ijro hokimiyatini tayinlangan rasmiy shaxslariga (odatda iqtisodiyot vaziri) asoslanadi.

Raqobat to'g'risidagi qonunlar ikkita, lekin bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan konsepsiyalarga asoslanadi: bozor hukmronligi va bozorda ustun mavqega ega bo'lish. Amaliyotda raqobat siyosatining ko'pchilik shakllari yohud yetkazib beruvchilarni bozor hukmronligini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, yohud ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarni o'z mavqelarini suiiste'mol qilishini to'xtatib turishiga yo'naltirilgan. Bunday holat bozor hukmronligini amalga oshirish iqtisodiy samaradorlik bilan bir-biriga to'g'ri kelmasligi, ustun mavqega ega bo'lish esa yetkazib beruvchiga savdo-sotiq yo'lida xususiy to'siqlarni yuzaga keltirishga, raqobatni cheklashga va boshqa tomonlarni iqtisodiy erkinligi va faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratadi.

Bozor hukmronligi iqtisodiy bozorlarning nisbiy hajmi (bozor ulushi) va tuzilmasiga, ya'ni o'zaro raqobatlashuvchi yetkazib beruvchilar soniga, savdo-sotiqni amalga oshirishda mavjud bo'lgan juddiy to'siqlar, tovarni o'rnini bosuvchisini mavjudligi bog'liq bo'ladi.

Ustun mavqega ega bo'lish yetkazib beruvchilarni absolyut hajmiga, uni buyurtmachilar va shaxsiy yetkazib beruvchilari bilan aloqalariga, shuningdek, uni savdo bo'yicha hamkorlarini iqtisodiy ahvolini bilish qobiliyatiga bog'liqdir. Bozor hukmronligi konsentratsiyasi va samaradorligiga asoslanadigan raqobat to'g'risidagi qonunlar iste'molchilarni farovonligini ko'zlagan holda yuzaga keladi. Aksincha, ustunlik konsentratsiyasiga asoslangan qonunlar raqobat jarayonini emas balki raqobatchilarni himoyalashga xizmat qiladi.

Savdo-sotiqni erkinlashuvi samarali raqobat siyosatini o'zgartiradi, sababi ko'pgina holatlarda erkin savdo-sotiq bozorining raqobat tuzilmasida unchalik aniq namoyon bo'lmaydi va bozorda samarali faoliyat ko'rsatishni rag'batlantirmaydi.

SHuning uchun, raqobat siyosati va savdo-sotqni erkinlashuvini muqobil siyosatga qo'shimcha sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

9.7. Ijtimoiy farovonlikni maksimizatsiyalashning ahloqiy jihatlari.

Haqiqatdan ham, iqtisodiyotda narxlar o'sishiga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri – bu muomaladagi ortiqcha pul massasi ekani iqtisodiyot nazariyasidan yaxshi ma'lum. Imtiyozli kreditlar – bu davlat byudjeti yoki Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan bozor stavkasidan ancha past bo'lgan stavkada taqdim etiladigan kredit hisoblanadi. Mazkur kreditlar oxir-oqibat qo'shimcha pul massasi sifatida chiqarilib, iqtisodiyotda qo'shimcha talabni vujudga keltiradi hamda agar ulardan samarali foydalanish ustidan qat'iy nazorat o'rnatilmasa, iqtisodiyotda narxlar oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

SHu sababli ma'ruzada imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha aniq mezon o'rnatildi, ularni ajratish hisobiga davlat byudjeti, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi xarajatlari keyingi yilda oshmasligi lozim. Mazkur holat muomaladagi pul massasi oshishining oldini oladi va narx barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ichki bozorda narx barqarorligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi – bu ichki bozorda raqobat muhitini yanada rivojlantirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning xomashyo resurslaridan hech qanday cheklovlarsiz foydalanishi uchun qulay sharoit yaratishdir. Buni qanday amalga oshirish mumkin, degan savol tug'iladi?

Birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarini etarli miqdordagi tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlash orqali maqsadga erishish mumkin. Bunda avvalo, iqtisodiyot strategik tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash talab etiladi. Moliyaviy sog'lomlashtirish esa bevosita mazkur korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarga narx shakllanishi mexanizmini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq.

Uzoq yillar davomida samarasiz narx shakllanish tizimining qo'llanilishi iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining zarar bilan ishlashiga, bu esa o'z navbatida, boshqa sohalarni etarli miqdordagi elektr energiya va tabiiy gaz bilan ta'minlash hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatini cheklab qo'ygan edi. Keyingi ikki yilda mazkur tarmoqlarni moliyaviy sog'lomlashtirish, narx shakllanishining zamonaviy usullarini qo'llash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ikkinchidan, xomashyo resurslarini bozor mexanizmlari asosida realizatsiya qilish tizimini joriy qilish. Haqiqatdan ham, xomashyo resurslaridan foydalanish uchun barcha tadbirkorlik subyektlariga teng sharoit yaratilmagani mazkur sohada raqobat muhitining rivojlanishiga katta to'siq bo'lib, korrupsion elementlar rivojlanishi uchun sharoit yaratar edi. 2017- yildan boshlab barcha resurslarning bozor mexanizmlari asosida faqat birja savdolari orqali realizatsiya qilish mexanizmi joriy qilindi. Natijada barcha uchun teng sharoit yaratilishi bilan birga, korxonalarning moliyaviy holati yaxshilanishiga erishildi.

Uchinchidan, ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'yintirish maqsadida mazkur tovarlar bo'yicha egiluvchan bojxona tariflarini joriy qilish yo'nalishida bojxona to'lov stavkalari qayta ko'rib chiqilib, 2019 yildan boshlab 3,5 mingga yaqin tovar bo'yicha boj miqdori va 800 ga yaqin tovar bo'yicha aksiz solig'i stavkalari kamaytirilishi belgilab qo'yildi. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish lozimligi Prezident ma'ruzasida ham alohida ta'kidlandi.

Darhaqiqat, aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri – bu narxlarni erkinlashtirish sharoitida aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoya qilishdir.

9.8. Robinson va Chemberlin nazariyalari

O'zbekistonda monopolistik faoliyatni tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini izchil rivojlantirish, tabiiy monopoliyalar korxonalari faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar

tomonidan narxlarning asossiz oshirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, raqobat va uning huquqiy bazasini takomillashtirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish sharoitida asosiy vazifadir.

Bozor munosabatlarining asosi sifatida raqobatni rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimizda yurboshimiz boshchiligida ulkan ishlar amalga oshirildi. SHu o‘rinda qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010- yil 26- fevraldagi “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4191-sonli Farmoni bilan monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish ishlariga bugungi kun rivojlanish realligidan kelib chiqqan holda tizimga yangi talablar qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi etib qayta tashkil qilindi.

Ayni paytda, monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish tizimini, raqobat muhitini izchil rivojlantirishning huquqiy bazasini takomillashtirilishi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish talablari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining nazorat vazifalarini qisqartilishi, shuningdek izchil rivojlanib borayotgan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi munosabatlari monopoliyaga qarshi qonunchilikni yanada takomillashtirish zaruriyatini belgilab berdi. Zero, so‘nggi yillarda iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining kuchayishi, bozorda turli moliyaviy, iqtisodiy hamda mulkiy munosabatlarning yangi shakllarining rivojlanishi natijasida bozor qo‘ygan talablarni, ya’ni shakllangan munosabatlarni tartib solish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Boshqacha aytganda, hozirda monopolistik faoliyatni nafaqat tovar bozorlarida, balki moliya bozorlarida, qimmatli qog‘ozlar bozorida, birja savdolarida ham cheklash choralarini ko‘rishni davlatimizning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham talab etmoqda.

Lekin, milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ta'minlashda muammolar mavjud bo'lib, ular quydagilardan iborat:

1. Qonun me'yorlari ko'pincha umumiy qoidalardan iborat bo'lib, doimo ham tartibga solishning muhim masalalarini to'liq qamrab olmaydi.

2. Raqobatni ta'minlashning ko'plab tomonlari qonundan tashqari me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi. Bizda qonunchilikka qo'shimcha ravishda 20 dan ortiq hujjatlar, jumladan, 100 ga yaqin hukumat qarorlari va 10 dan ortiq Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan idoraviy hujjatlar qabul qilingan.

G'arb mamlakatlarida qonunga qo'shimcha hujjatlar bilan monopoliyaga qarshi qonunchilik masalalarini tartibga solinmaydi, chunki barcha asosiy me'yoriy qoidalar qonunlarda o'z ifodasini topadi. Qonunga qo'shimcha hujjatlarning qo'llanishi raqobat masalalarini boshqarish tartibiga o'zgarish va to'ldirishlar kiritish, shuningdek, qonun me'yorlarini idoraviy manfaatlardan kelib chiqqan holda talqin etish imkonini beradi.

O'zbekistondagi monopoliyaga qarshi siyosatning huquqiy muhitini tahlil qilish asosida uni takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- monopoliyaga qarshi qonunchilikda qonun me'yorlarining turli tarzda talqin etilishi hamda ular o'rtasidagi ziddiyatning oldini olish, uning amaliy yo'naltirilganligi va uyg'unligini (ya'ni, amalga oshirish mexanizmiga ega bo'lmagan yoki noaniq me'yorlarga ega bo'lgan moddalarni chiqarib tashlash yoki to'g'rilash) oshirish, shuningdek respublika qonunchiligining boshqa bo'limlari bilan muvofiqligiga erishish maqsadida qayta ko'rib chiqish;

- qonunchilikka xaridorlarning ustunlik holatini aniqlash, shuningdek, uni suiste'mol qilish bo'yicha javobgarlik choralarini kiritish;

- raqobat siyosatining monopolist-korxonalar faoliyatini qat'iy tartibga solish asosiy tamoyilidan ularni raqobatga qarshi hatti-harakatlari uchun jazolash tartibiga o'tish tamoyiliga o'zgartirishga e'tiborni qaratish. Bunda shunday qoidadan kelib chiqish kerakki, firmaning bozordagi ustunlik mavqeining o'zi qonunchilikning buzilishi hisoblanmaydi.

TESTLAR

1. Bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch ...

- A) * Iqtisodiy faoliyati erkinligi, raqobat, daromadlarni cheklanmaganligi;
- B) Iqtisodiy faoliyati erkinligi, xususiy mulkning ustunligi, daromadlarni cheklanmaganligi;
- C) Raqobat, davlatning qo'llab quvvatlashi, daromadlarni cheklanmaganligi;
- D) Iqtisodiy faoliyati erkinligi, davlatning qo'llab quvvatlashi, daromadlarni cheklanmaganligi;

2. Bozor iqtisodiyotining obyekti bu ...

- A) *Tovar, pul (agregati);
- B) Tovar, jamoa xo'jaligi;
- C) Tovar, korxona;
- D) Pul, korxona;

3. Bozor iqtisodiyotining subyekti bu ...

- A) * Firma, korxona, uy xo'jaligi, davlat, moliyaviy institutlar;
- B) Firma, korxona, uy xo'jaligi, davlat, pul;
- C) Firma, korxona, uy xo'jaligi, moliyaviy institutlar;
- D) Firma, korxona, davlat, moliyaviy institutlar;

4. Bozor (aralash) iqtisodiyoti asosini ... tashkil etadi.

- A) *Mulkchilikning turli – tumanligi va ularning tengligi, qonun tomonidan birday muxofaza qilish;
- B) Xususiy mulkchilikni qonun asosida alohida qo'llab – quvvatlanishi;
- C) Hamkorlikdagi mulk alohida qo'llab – quvvatlanishi;
- D) Jamoa mulkiga alohida e'tibor berilishi;

5. O'zbekiston iqtisodiyotida ko'pchilik bozor:

- A) *muayyan raqobatga va monopolistik bozorga xos elementlarga xos;
- B) tartibga solib bo'lmaydigan monopoliya;
- C) tartibga solinadigan monopoliya;
- D) mukammal raqobatga asoslanadi;

6. Bevosita subsidiyalar: bu —

- A) * keltirilgan variantlarning barchasi;
- B) kapital qo'yimalarga ajratilgan mablag'lar;
- C) ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan mablag'lar;
- D) kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag'lar;

7. Bilvosita subsidiyalar: bu —

- A) * keltirilgan variantlarning barchasi;
- B) imtiyozli shartlarda kreditlar berish,
- C) pasaytirilgan bojxona bojlari
- D) soliq imtiyozlari va davlat transfertlari.

8. Davlat byudjetining bosh manbai: bu —

- A) * solik mexanizmi;
- B) baxo mexanizmi;
- C) bojxona bojlari
- D) pul emissiyasi.

9. Makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsata oladigano'zgartirish orqali investitsiyalar va jamg'armalar rag'batlantirilishiga erishiladi.

- A) * soliq mexanizmini.
- B) baxo mexanizmini;
- C) bojxona bojlarini
- D) pul emissiyasini.

10. Narx diskriminatsiyasi bu ...

- A) *bir mahsulotni turli xaridorlarga har xil bahoda sotish;
- B) millati yoki jinsiga qarab mehnat xaqi to'lashdagi farq;
- C) iste'mol tovarlariga baland narx belgilash orqali mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish;
- D) sifati yuqori bo'lgan tovarga yuqoriroq narx o'rnatilishi;

11. Monopolistda me'yoriy xarajatlar odatda mahsulot bahosidan past bo'ladi, sababi:

- A) *narx me'yoriy daromaddan yuqori;
- B) narx me'yoriy daromaddan past;
- C) me'yoriy xarajatlar o'rtacha xarajatlardan past;
- D) me'yoriy xarajatlar o'rtacha xarajatlardan yuqori;

12. Quyida sanab o'tilgan mahsulotlardan qaysi biri hech qachon kartel bitimi doirasida ishlab chiqarilmagan?

- A) *bug'doy;
- B) banan;
- C) shakar;
- D) neft.

13. Nomukammal raqobat sharoitida qachon maksimal foyda olish mumkin?

- A) $*MC=MR$;
- B) $MC=AR$;
- C) $MR=AC$;
- D) $MC=R$.

14. «Mukammal raqobatdosh firma» tushunchasi bu firma anglatadi

- A) *bozor bahosi shakllanishiga ta'sir o'tkazmasligini;
- B) o'z raqiblari bilan raqobatning faqat qonuniy metodlarini qo'llashni;
- C) bozorni egallash uchun har qanday metodlarni qo'llashni;
- D) raqobatda o'zi uchun ko'zlagan bahosini o'rnatishga erishishni;

15. Agar firma mukammal raqobatli bozorda faoliyat yuritir ekan, o'z mahsulotini taklifini qisqartirsa, u holda:

- A) *bozorga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi;
- B) taklifni kamaytiradi, mahsulot narxini ko'taradi;
- C) mahsulotning bozor bahosini o'sishiga olib keladi;
- D) mahsulotni bozor bahosini pasayishiga olib keladi;

16. Quyidagi bozorlardan qaysi birlarini mukammal raqobatga asoslangan bozorga kiritish mumkin?

- A) *dehkon bozori, qimmatli qog'ozlar bozori;
- B) muzlatkich, televizor bozori;
- C) avtomobil, velosiped bozori;
- D) axborot, intellektual mulk bozori;

17. Monopol hokimiyat Lerner usuli bo'yicha hisoblanganda,ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

- A) *monopol narx, chekli harajat, o'rtacha harajat va elastiklik;
- B) monopol narx va elastiklik;
- C) chekli harajat va elastiklik;
- D) o'rtacha harajat va elastiklik

18. Monopol hokimiyat Xerfindal-Xirshman usuli bo'yicha hisoblanganda,ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

- A) *Firmalarning bozor ulushi;
- B) Firmalarning bozor ulushi va monorol narx;
- C) Firmalarning bozor ulushi va chekli xarajat;
- D) Firmalarning bozor ulushi va o'rtacha harajat.

19. Monopol hokimiyatga ega firmalar uchun narx belgilapsh strategiyasining asosini..... usullari tashkil etadi.

- A) *iste'molchi ortiqchaligini egallash;
- B) ishlab chiqaruvchi ortiqchaligini egallash;
- C) foydani maksimallashtirish;
- D) zararni minimallashtirish.

20. Aytaylik monopolist 10 birlik tovarini 10000 so'mdan sota oladi. 11-tovarni sotish esa uni bahosini 9950 so'mga tushishga olib keladi. Bunda me'yoriy daromad sotish hajmini 10 dan 11 gacha o'sishi evaziga..... teng bo'ladi.

- A) *9450;
- B) 9950;
- C) 10995;
- D) 9400.

21. Oligopoliya – bu. . .

- A) *bir necha yirik raqobatdosh firmalar;
- B) tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqaruvchi ko'plab raqobatdosh firmalar;
- C) bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi raqobatlashuvchi ko'plab firmalar;
- D) bitta yirik firma;

22. Mukammal va monopolistik raqobatga asoslangan bozorning umumiy tomoni

- A) *bozorda sotuvchi va xaridorlar soni ko'p;
- B) tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqaradi;
- C) har bir firma o'z mahsulotiga talab egri chizig'i gorizontall bo'lgan sharoitga duch keladi;
- D) bir turdagi tovarlar ishlab chiqarishadi;

23. Oligopolistik bozor monopolistik raqobatli bozor bilan quyidagi tomonlari bilan o'xshash

- A) *firmalar uchun strategik yo'nalish xos;
- B) tarmoqqa kirish uchun to'siklar yo'qligi;
- C) uncha ko'p bo'lmagan sotuvchilar ish yuritishadi;
- D) firmalar bozorda hukmron rol o'ynaydi;

24. Kartel bitimini buzish uchun urinish shuncha kam bo'ladi, qachonki:

- A) *diskontlash koeffitsienti yuqori bo'lsa;
- B) bitimga rioya qilinmagani sezilmaslik ehtimoli yuqori bo'lsa;

- C) bitimni buzilishi va uni aniqlash o'rtasida uzoq vaqt o'tishi;
- D) kartel a'zolari o'rtasida xarajatlar teng bo'lsa;

25. Tarmoqda 40ta firma bo'lib, ulardan hech biriga umumiy ishlab chiqarish hajmining 3%dan ortig'i to'g'ri kelmaydi. Mahsulot bozorda tabaqalashgan hisoblanadi. Bunday tarmoq:..... misol bo'la oladi.

- A) *monopolistik raqobatga;
- B) sof monopoliyaga;
- C) mukammal raqobatga;
- D) oligopoliyaga.

26. Oligopoliyani boshqa bozor modellariga nisbatan tahlil qilish qiyin, sababi deb, faraz qila olmaymiz.

- A) *firmalar o'rtasida sezilarli darajada bog'lanish mavjud hamda oligopolistik bozorda firmani bir qarorga kelishi boshqa bozorlarga nisbatan noaniqroq
- B) me'yoriy xarajat va me'yoriy tushum egri chiziqlari oligopoliyalar uchun muvozanatli narxni va miqdorni aniqlashda hech qanday rol o'ynamaydi;
- C) firmalar faoliyati bir-biriga bog'liq bo'lmay, har biri haqida ma'lumot to'plash qiyin;
- D) boshqa bozor modelidagi firmalardan farqli ravishda oligopolistik bozorda firmalar foydani maksimallashtirishga intiladi.

27. Iste'molchi tomonidan tovarga to'lashi mumkin bo'lgan maksimal narx bilan tovarning haqiqiy narx o'rtasidagi farqni bildiradi.

- A) *iste'molchi ortiqchaligi;
- B) ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi;
- C) qo'shimcha narx;
- D) solishtirma narx.

28. Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi-.....oralig'idagi yuzaga teng.

- A) *taklif chizig'i bilan bozor narxi chizig'i;
- B) talab chizig'i bilan bozor narxi chizig'i;
- C) talab va taklif chiziqlarining yuqori qismi;
- D) talab va taklif chiziqlarining quyi qismi.

29. Davlat tomonidan o'rnatilgan maksimal narx bir qatorbozordan siqib chiqaradi.

- A) *ishlab chiqaruvchilarni;
- B) iste'molchilarni;
- C) ham ishlab chiqaruvchilarni, ham iste'molchilarni;

D) ba'zan ishlab chiqaruvchilarni, ba'zan iste'molchilarni.

30. Davlat tomonidan o'rnatilgan minimal narx bir qator

.....bozordan siqib chiqaradi.

A) *iste'molchilarni;

B) ishlab chiqaruvchilarni;

C) ham ishlab chiqaruvchilarni, ham iste'molchilarni;

D) ba'zan ishlab chiqaruvchilarni, ba'zan iste'molchilarni.

31. Davlatning barqaror narxlarni ta'minlash siyosati-bu

A) *belgilangan narx darajasiga muvofiq bo'lgan hajmni ta'minlash uchun kerakli hajmdagi mahsulot davlat tomonidan sotib olinishidir;

B) minimal narx darajasiga muvofiq bo'lgan hajmni ta'minlash uchun kerakli hajmdagi mahsulot davlat tomonidan sotib olinishidir;

C) maksimal narx darajasiga muvofiq bo'lgan hajmni ta'minlash uchun kerakli hajmdagi mahsulot davlat tomonidan sotib olinishidir;

D) barcha mahsulotlar davlat tomonidan sotib olinishidir

32. Davlat tomonidan ishlab chiqarishni kvotalash siyosati-bu

A) *bozor narxiga ta'sir etish shakli;

B) bozor narxiga ta'sir etmaslik shakli;

C) tovar hajmini oshirish shakli;

D) tovar hajmini pasaytirish shakli.

33. Monorolist uchun "adolatli foyda olishni ta'minlaydigan narx"

..... bilan baholanadi.

A) *o'rtacha xarajat darajasida o'rnatilgan narx;

B) chekli xarajat darajasida o'rnatilgan narx;

C) chekli daromad darajasida o'rnatilgan narx;

D) o'rtacha daromad darajasida o'rnatilgan narx.

34. Monopolistlarning qo'llaydigan narx diversifikatsiyasining asosiy usullarini.....tashkil etadi.

A) *keltirilgan variantlarning barchasi to'g'ri;

B) iste'mol hajmiga ko'ra;

C) tovarlar tulariga ko'ra;

D) iste'molchi daromadiga ko'ra.

35. Oligopolik bozorda narxlarni bosqichma –bosqich tushirishga deyiladi.

A) *Narxlar jangi;

- B) narx diversifikatsiyasi;
- C) “adolatli foyda olishni ta'minlaydigan narx”
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

36. **Kurno modelidatahlil etiladi.**

- A) *Duopoliya;
- B) monopoliya;
- C) monopsoniya;
- D) monorol raqobat.

37. **Birinchi bo‘lib oligopoliya nazariyasini asoslashga harakat qilgan iqtisodchi – bu . . .**

- A) *Ogyusten Kurno;
- B) Edvard Chamberlen;
- C) Joan Robinson;
- D) Jon Gelbreyt;

38. **Qisqa muddatli oraliqda tarmoqdagi firmalarning soliqqa tortilishi**

.....

- A) *yalpi mahsulot hajmini pasaytiradi va narxni oshiradi;
- B) yalpi mahsulot hajmini pasaytirmaydi va narxni oshiradi;
- C) yalpi mahsulot hajmini pasaytiradi;
- D) narxni oshiradi;

39. **Uzoq muddatli oraliqda tarmoqdagi firmalarning soliqqa tortilishi**

.....

- A) *ayrimlarining tarmoqdan chiqishiga olib keladi;
- B) yalpi mahsulot hajmini pasaytirmaydi va narxni oshiradi;
- C) yalpi mahsulot hajmini pasaytiradi;
- D) narxni oshiradi.

40. **Uzoq muddatli oraliqda raqobatlashgan firma uchun muvozanat holatiifodalanadi.**

.....

- A) * $MR=MC=AC=P$;
- B) $MR=MC=AC>P$;
- C) $MR=MC=AC<P$;
- D) $MR=MC<AC<P$.

41. **“Sof” ta’limot vakillarining fikricha jahon bozorida..... mavjud.**

- A) *mukammal raqobat;
- B) nomukammal raqobat;

- C) monopoliyalar xukmronligi;
- D) oligopoliyalar xukmronligi.

42. A.Smitning asosiy iqtisodiy asarini toping?

- A) *«Ahloqiy hislat» nazariyasi;
- B) «Xalqlar boyligining tabiati va sabalari to‘g‘risida tadqiqot»;
- C) «Kapital»;
- D) «Mulk nima?».

43. J.M.Keyns xulosalarining metodologik asosini qanday nazariya tashkil qiladi?

- A) *Davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini ta'minlash;
- B) «Qiymat va realizatsiya» nazariyasi;
- C) «Tabiiy tartib» nazariyasi;
